From a linguistic standpoint, word formation operates within specific grammatical and morphological rules. Theories in morphology describe how morphemes (the smallest units of meaning) combine systematically. Derivational morphology, for example, distinguishes between productive and non-productive affixes. The suffix -ness is highly productive (kind → kindness), while -th (warm → warmth) is less so. Scientific analysis of word formation helps linguists understand not only structure but also cognitive processes—how speakers intuitively recognize new words and assign meaning based on familiar patterns.

Modern Influences on Word Formation

Globalization, technology, and social media have significantly accelerated the pace of neologism creation. Platforms like Twitter, TikTok, and YouTube give rise to new words almost daily. Terms such as influencer, vlog, and unfriend demonstrate how language adapts to digital realities. Moreover, the blending of cultures and languages leads to hybrid forms and code-mixing, expanding linguistic creativity beyond

traditional boundaries. The scientific analysis of these changes helps document how linguistic innovation reflects human adaptability.

Conclusion

Word creation is both an art and a science—an artistic expression of culture and identity, and a scientific system governed by morphological rules. Through derivation and other formation processes, English continues to expand its vocabulary, enabling speakers to express new ideas and realities. The study of word formation, therefore, not only reveals the flexibility of language but also the endless creativity of the human mind.

REFERENCES

1. Bauer, L. (1983). *English Word-Formation*. Cambridge University Press.
2. Katamba, F. (1993). *Morphology*. Palgrave Macmillan.
3. Plag, I. (2003). *Word-Formation in English*. Cambridge University Press.
4. Yule, G. (2020). *The Study of Language*. Cambridge University Press.
5. Crystal, D. (2019). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.

ISHLAB CHIQUARISH OMILLARI VA INFRATUZILMASI**Alimova Sarvara**

Termiz Davlat Universiteti 2-bosqich talabasi

REZYUME. Ushbu maqolada iqtisodiy rivojlanishning asosiy poydevori bo'lgan ishlab chiqarish omillari hamda ularni qo'llab-quvvatlaydigan infratuzilmaning mohiyati, tarkibi va iqtisodiyotdagi o'rni keng yoritiladi. Ishlab chiqarish omillari yer, mehnat, kapital, tadbirkorlik qobiliyati va ilmiy-texnik taraqqiyot resurslarini samarali taqsimlash, mahsulot hajmini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ishlab chiqarish omillari, kapital, infratuzilma, transport va logistika, energetika tizimi, kommunikatsiya, axborot texnologiyalari, iqtisodiy islohotlar, innovatsiya, modernizatsiya.

Maqolada ishlab chiqarish jarayonini qo'llab-quvvatlaydigan infratuzilma, jumladan transport, aloqa tarmoqlari, energetika, axborot-kommunikatsiya tizimlari va moliyaviy xizmatlar kabi sohalarning iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishdagi roli chuqur ko'rib chiqiladi. O'zbekiston sharoitida infratuzilmani modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati alohida ta'kidlanadi..

““Infratuzilma” tushunchasi lotincha “infra – quyî, osti va struktura – tuzilma” so'zlaridan paydo bo'lib, “yo'shimcha ma'nosida talqin qilish mumkin (ya'ni, “ostki tuzilma” yoki “quyi tuzilma” ma'nosida). XX asr boshlarida bu atama orqali qurolli kuchlarning harakatini ta'minlovchi front orti moddiy vositalar omborlari, harbiy inshootlar majmui ifodalangan (masalan, poligonlar va h.k.). 40-yillarning o'rtalaridan boshlab mazkur tushuncha arb-iqtisodiy fanidan boshlab yuqoridagi xo'jalik tarmoqlari majmui tushunila boshlandi.”¹

O'zbekistonda ishlab chiqarish omillari va infratuzilma iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlovchi asosiy bo'g'in, davlat iqtisodiyotda muvozanatni ta'minlovchi va ishlab chiqarish omillarini samarali boshqaruvchi institut sifatida faol ishtirok etib kelmoqda. Mustaqillik yillarida ishlab chiqarishning asosiy resurslarini rivojlantirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

¹ Sh.Shodmonov. “Iqtisodiyot nazariyasi”: Darslik. - T.: “LESSON PRESS” nashriyoti, 2021. Bet-51

Ishlab chiqarish omillari

Ishlab chiqarish omillari – bu mahsulot va xizmatlar yaratishda zarur bo‘lgan asosiy resurslar majmui bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Yer – tabiiy resurslar, qishloq xo‘jaligi yer maydonlari, foydali qazilmalar.

2. Mehnat – malakali ishchi kuchi, mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan inson kapitali.

3. Kapital – ishlab chiqarish vositalari, texnika va texnologiyalar, moliyaviy resurslar.

4. Tadbirkorlik qobiliyati – ishlab chiqarishni tashkil etish, innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq qilish.

Bu omillar o‘zaro uyg‘unlashganda iqtisodiy o‘shishning asosiy drayveriga aylanadi

Infratuzilmaning ahamiyati.

Infratuzilma ishlab chiqarishning uzluksiz faoliyat yuritishini ta‘minlaydigan xizmatlar, tarmoqlar va obyektlar yig‘indisidir. U quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

Transport va logistika – avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar, havo va dengiz transporti.

Energetika tizimi – elektr energiyasi, gaz ta‘minoti, qayta tiklanuvchi manbalar.

Kommunikatsiya va axborot texnologiyalari – telekommunikatsiya, internet, raqamli xizmatlar.

Ijtimoiy infratuzilma – ta‘lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy, madaniyat sohalari.

Infratuzilma ishlab chiqarish omillarining to‘liq ishlatilishini ta‘minlab, hududlararo iqtisodiy aloqalarni kuchaytiradi.

Davlatning roli.

O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tishda quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilgan:

Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi – iqtisodiy manfaatlarni birinchi o‘ringa qo‘yish.

Davlat bosh islohotchi sifatida – ishlab chiqarish omillarini rivojlantirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish.

Qonun ustuvorligi – mulkchilik huquqini himoya qilish, tadbirkorlik erkinligini ta‘minlash.

Ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash – aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash.

Bosqichma-bosqich islohotlar – ishlab chiqarish va infratuzilmani izchil rivojlantirish.

Bu tamoyillar ishlab chiqarish omillari samaradorligini oshirish, innovatsion infratuzilmani yaratish uchun mustahkam zamin yaratdi..

Ishlab chiqarish omillari va infratuzilma mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Resurslarni oqilona taqsimlash, raqobat muhitini rivojlantirish va davlatning oqilona aralashuvi O‘zbekistonni yangi bosqichga olib chiqadi. Kelgusida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, yuqori texnologiyalarni joriy etish va transport-kommunikatsiya tizimini yanada takomillashtirish ishlab chiqarishning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adam Smit. “Xalqlar boyligi”.
2. David Rikardo. “Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish asoslari”.
3. Karl Marks. “Kapital”.
4. John Maynard Keynes. “Umumiy nazariya”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari.
6. Oliy ta’lim muassasalari uchun “Makroiqtisodiyot” va “Mikroiqtisodiyot” darsliklari.

TEACHING ENGLISH AS A BRIDGE TO INTERCULTURAL UNDERSTANDING IN MULTILINGUAL CLASSROOMS

Jumaniyazova Lobar Sirojiddin qizi

Student of the Uzbekistan State World Languages University

lobarjumaniyazova7@gmail.com

ABSTRACT

In this article, it is discussed that contemporary English language teaching (ELT) can and should function as a deliberate bridge to intercultural understanding in multilingual classrooms. Moving beyond narrow language skills, teachers who foreground intercultural competence prepare learners to communicate across cultural boundaries, negotiate meaning with speakers of diverse English varieties, and reflect critically on their own and others' cultural assumptions. The article synthesizes influential theoretical work on intercultural competence and multilingual subjectivity, discusses practical classroom strategies (literature-based exchange, task design, reflective journals, and collaborative projects), and offers reflective vignettes from teaching contexts that illustrate how these strategies play out in practice. Finally, it outlines implications for teacher education and curriculum design, arguing that intercultural aims must be explicit, assessed meaningfully, and woven into everyday language tasks.

Keywords: English language teaching, intercultural competence, multilingual classrooms, global communication, reflective teaching, cultural awareness, language pedagogy.

English classrooms today are rarely homogeneous. Globalization, migration, and digital communication have produced classrooms where students bring multiple languages, varied cultural backgrounds, and differing experiences with English (as a national language, a foreign language, or a lingua franca). In such contexts, teaching English only as a code — pronunciation, grammar, vocabulary — misses a critical opportunity: developing learners' capacity to interpret, respond to, and create meaning across cultural difference. Intercultural competence — the ability to communicate

effectively and appropriately with people of other cultures, and to reflect on one's own cultural positioning — should therefore be a central objective of ELT in multilingual classrooms (Deardorff, 2006). Intercultural competence has been conceptualized in various ways across applied linguistics and international education. Deardorff's (2006) framework emphasizes attitudes (openness, curiosity, respect), knowledge (cultural self-awareness and others' worldviews), skills (listening, observing, interpreting), and internal/external outcomes such as adaptability and effective communication — all framed as developmental and assessable. This model is especially useful for teachers because it links classroom activities to observable learning outcomes and suggests dimensions for formative assessment. Michael Byram and colleagues have extended the argument that language education should aim for *education for intercultural citizenship*, where language teaching fosters not only communicative ability but civic-mindedness, critical cultural awareness, and ethical engagement with difference (Byram, 2008). Byram's perspective pushes educators to ask: what sorts of citizens do we want English learners to become, and how can language lessons contribute to that formation? Parallel to these intercultural frameworks, research on the multilingual subject reminds us that learners inhabit complex linguistic identities. Claire Kramsch (2009) foregrounds the ways learners negotiate identity through language learning — carrying memories, emotions, and practices from their multiple languages into classrooms. This emphasis on the learner as a socially situated, identity-forming subject encourages teachers to value learners' linguistic repertoires as resources for intercultural exchange rather than deficits to be corrected. Finally, scholarship on English as a lingua franca (ELF) — notably Jennifer Jenkins's work — challenges native-speaker norms and invites teachers to prepare students for communication with diverse international interlocutors, not only with idealized native speakers. This means teaching strategies for negotiation, repair, and accommodation, and shifting the classroom gaze from accent elimination toward intelligibility and mutual comprehension. Such an orientation is crucial when intercultural understanding is an explicit learning aim.

Why make intercultural aims explicit in ELT?

There are pragmatic and ethical reasons. Pragmatically, learners who can navigate cultural differences communicate more successfully in real-world interactions — study-abroad, workplace exchanges, or online collaborations. Ethically, education that ignores culture risks reproducing stereotypes or perpetuating a one-dimensional, often

Anglocentric vision of English. Making intercultural aims explicit helps teachers select materials and tasks that expose learners to multiple perspectives and give them tools to reflect critically on culture. Empirical classroom action research also shows that structured intercultural activities (book clubs, exchange projects) can foster curiosity and reduce stereotyping when carefully scaffolded.

1. Literature-based cultural exchanges (close reading + global book clubs)

Short stories, poems, and children’s literature are excellent vehicles for cultural exploration because they simultaneously engage language, empathy, and cultural context. Teachers can pair local texts with texts from partner classrooms abroad, or run in-class “culture circles” where students discuss characters’ values and choices. The learning objectives include perspective-taking, vocabulary in socio-cultural contexts, and reflective dialogue. Scaffolding (pre-teaching key cultural background, guided questions, language prompts) is essential to ensure discussions go beyond superficial comparisons. Empirical reports of book-club style exchanges show gains in mutual curiosity and specific cultural knowledge when discussion prompts are focused on perspective and emotion rather than trivia.

2. Reflective journals and guided self-awareness activities

Intercultural competence requires self-knowledge. Short, regular journal prompts — e.g., “Describe a time you felt misunderstood because of cultural expectations” — encourage learners to notice their assumptions and track growth. Pair journals with occasional peer feedback or teacher comments that model empathic questioning. Over a semester, journals create an evidence base for assessing internal outcomes such as increased openness or empathy.

5. Classroom discourse norms that value linguistic diversity

Simple classroom practices — asking students to compare idioms from their languages, celebrating multilingual translations, or using students’ home languages strategically for explanatory work — shift classroom identity away from monolingual normativity. Kramsch’s notion of the multilingual subject supports such practices: learners’ languages are assets that enrich classroom meaning-making and intercultural insight.

There are real challenges. Time constraints, high-stakes curricula focused on standardized tests, and teachers' limited training in intercultural facilitation can all impede efforts. Teachers must also avoid tokenism — learning activities that treat culture as a set of facts (holidays, food) rather than as systems of meaning. Finally, power asymmetries in classroom interactions (whose culture is normative?) must be addressed openly; otherwise, intercultural work can inadvertently reproduce inequalities. These challenges underscore the need for institutional support, realistic scope-setting, and ongoing professional learning. To mainstream intercultural aims, curricula should embed intercultural learning objectives at all levels (not only as optional modules). Textbooks and task banks should include materials that represent diverse cultural perspectives and provide teacher notes on scaffolding intercultural reflection. At the policy level, exam frameworks that reward communicative competence and intercultural skills (e.g., assessing negotiation or perspective-taking) would signal the importance of these aims to teachers and institutions.

Teaching English as a bridge to intercultural understanding is both feasible and necessary in multilingual classrooms. Theoretical advances (Deardorff's assessment-focused model, Byram's civic orientation, Kramsch's multilingual subjectivity) provide a strong intellectual foundation; practical strategies — literature-based exchange, task design for negotiation, reflective journals, and collaborative digital projects — show how these aims can be realized in daily practice. The work demands teacher preparation, supportive assessment approaches, and a curriculum that values cultural complexity over simplistic cultural facts. When English classrooms make intercultural aims explicit, they prepare learners not only to use a language but to engage ethically and effectively with an interconnected world.

REFERENCES

1. Byram, M. (2008). *From foreign language education to education for intercultural citizenship: Essays and reflections*. Multilingual Matters.
2. Deardorff, D. K. (2006). Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization. *Journal of Studies in International Education*, 10(3), 241–266.
<https://doi.org/10.1177/1028315306287002>
3. Jenkins, J. (2007). *English as a lingua franca: Attitude and identity*. Oxford University Press.
4. Kramsch, C. (2009). *The multilingual subject*. Continuum.

5. Wang, Y. (2017). A bridge to intercultural understanding: Reading teachers and Chinese EFL learners in a global book club. [*ERIC Document EJ1170593*].
<https://eric.ed.gov/?id=EJ1170593>

SIYOSIY SHAXSLARNING SOLISHTIRMA TA'LIM XARITASI**Jabborova Sevara Shuxratovna**

Siyosatshunos, siyosiy tahlilchi, magistr

E-mail: sevarajabborova17@gmail.com

Telefon: (99) 266-77-33

Annotatsiya: Mazkur maqola XX asr siyosiy yetakchilari — Sharl de Goll, Fransisko Franko, Adolf Gitler va Uinston Cherchillning ta'lim yo'li, intellektual shakllanishi va siyosiy faoliyatiga ta'limning ta'sirini tahlil qiladi. Tadqiqotda solishtirma-tahliliy va tarixiy-biografik metodlardan foydalanilgan. Ish natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori sifatli harbiy yoki intellektual ta'lim olgan yetakchilar (de Goll va Cherchill) demokratik va konstruktiv boshqaruv uslubini tanlagan, ta'limdan chetda qolgan yoki bir yoqlama tarbiya olgan shaxslar (Gitler va Franko) esa avtoritar boshqaruvga intilgan. Maqola ta'limning siyosiy yetakchilik shakllanishidagi rolini, shuningdek, tarbiya muhiti va intellektual tajribaning yetakchilarning qaror qabul qilish uslubi, mafkuraviy yo'nalishi va boshqaruv madaniyatiga ta'sirini yoritadi.

Kalit so'zlar: Siyosiy yetakchi; Ta'lim va tarbiya; Intellektual shakllanish; Avtoritar va demokratik boshqaruv; XX asr siyosati; Solishtirma-tahliliy metod; Sharl de Goll; Uinston Cherchill; Adolf Gitler; Fransisko Franko.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние образования на образовательный путь, интеллектуальное становление и политическую деятельность политических лидеров XX века — Шарля де Голля, Франсиско Франко, Адольфа Гитлера и Уинстона Черчилля. В исследовании использовались сравнительно-аналитический и историко-биографический методы. Результаты работы показывают, что лидеры, получившие качественное военное или интеллектуальное образование (де Голль и Черчилль), выбирали демократический и конструктивный стиль управления, в то время как лица, получившие отстраненное от образования или одностороннее воспитание (Гитлер и Франко), стремились к авторитарному управлению. В статье освещается роль образования в формировании политического лидерства, а также влияние воспитательной среды и интеллектуального опыта на стиль принятия решений руководителями, идеологическую направленность и культуру управления.

Ключевые слова: политический лидер; образование и воспитание; интеллектуальное становление; авторитарное и демократическое управление;

политика XX века; сравнительно-аналитический метод; Шарль де Голль; Уинстон Черчилль; Адольф Гитлер; Франсиско Франко.

Abstract: This article analyzes the influence of education on the educational path, intellectual formation and political activity of the political leaders of the 20th century — Charles de Gaulle, Francisco Franco, Adolf Hitler and Winston Churchill. The study used comparative-analytical and historical-biographical methods. The results of the work show that leaders who received high-quality military or intellectual education (de Gaulle and Churchill) chose a democratic and constructive management style, while those who received a detached or one-sided upbringing (Hitler and Franco) sought authoritarian management. The article highlights the role of education in the formation of political leadership, as well as the influence of the educational environment and intellectual experience on the decision-making style of leaders, ideological orientation and management culture.

Keywords: political leader; education and upbringing; intellectual development; authoritarian and democratic governance; politics of the 20th century; comparative analytical method; Charles de Gaulle; Winston Churchill; Adolf Hitler; Francisco Franco.

Kirish

Bugungi globallashuv va siyosiy raqobat davrida yetakchilik fenomenini o'rganish, ayniqsa siyosiy yetakchilar shaxsini tahlil qilish, zamonaviy siyosatshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biridir. Tarix shuni ko'rsatadiki, siyosiy liderlarning qaror qabul qilish uslubi, mafkuraviy yo'nalishi va boshqaruv madaniyati ko'p jihatdan ularning olgan ta'limi, tarbiya muhiti va intellektual shakllanish jarayoniga bog'liq. XX asr siyosiy tarixida Sharl de Goll, Fransisko Franko, Adolf Gitler va Uinston Cherchill kabi shaxslar dunyo siyosatida chuqur iz qoldirgan yetakchilardir. Ularning faoliyati nafaqat o'z mamlakatlari, balki butun Yevropa tarixini belgilab bergan. Shu nuqtai nazardan, mazkur shaxslarning ta'lim yo'li, o'qigan muassasalari, o'sha davrdagi ta'lim muhiti hamda bu omillar ularning siyosiy dunyoqarashiga qanday ta'sir ko'rsatganini tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Har qanday siyosiy liderning shakllanishi uzoq ijtimoiy, madaniy va intellektual jarayon mahsulidir. Ta'lim bu jarayonda nafaqat bilim manbai, balki shaxsiy qarashlar, dunyoqarash va boshqaruv tamoyillarini shakllantiruvchi asosiy mexanizmdir. Masalan, Sharl de Goll va Uinston Cherchill harbiy akademiyalarda tahsil olib, strategik fikrlash va tahliliy yondashuvni o'zlashtirgan bo'lsa, Fransisko Franko ham

harbiy intizom va markazlashgan boshqaruv tamoyillarini o'qish jarayonida o'zlashtirgan. Aksincha, Adolf Gitlerning formal ta'limdan chetda qolganligi va san'at sohasidagi muvaffaqiyatsiz tajribasi uning siyosiy radikallashuviga sabab bo'lgan. Demak, siyosiy yetakchilarning qaror qabul qilish uslubi, nutq madaniyati, xalq bilan muloqot qilish uslubi va hatto mafkuraviy e'tiqodi ham ko'p jihatdan ularning olgan ta'limiga va o'sha davr ijtimoiy muhitiga bog'liq.

Tadqiqot maqsadi va metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning maqsadi — XX asrning to'rtta mashhur siyosiy yetakchisi: Sharl de Goll, Fransisko Franko, Adolf Gitler va Uinston Cherrchillning ta'lim yo'lini, intellektual shakllanish bosqichlarini hamda ta'limning ularning siyosiy faoliyatiga ta'sirini solishtirma tahlil asosida o'rganishdan iborat. Tadqiqotda **solishtirma-tahliliy metod** qo'llanildi, ya'ni har bir siyosiy shaxsning ta'lim tarixi, ijtimoiy kelib chiqishi, intellektual muhiti va siyosiy faoliyati o'zaro qiyosiy o'rganildi. Shu bilan birga, tarixiy-biografik yondashuv asosida manbalar (xotiralar, tarixiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar) tahlil qilindi. Maqsad — ta'limning siyosiy lider shaxsiyati shakllanishidagi rolini aniqlash va turli ta'lim modellari yetakchilik uslublariga qanday ta'sir ko'rsatganini yoritishdir.

Asosiy qism

Sharl de Goll: intellektual harbiy liderlik modeli

Sharl de Goll (1890–1970) - Fransiyaning eng yirik siyosiy arboblardan biri, harbiy strateg va XX asrning eng muhim milliy liderlaridan biridir. U 1910-yilda Fransiyaning eng nufuzli harbiy o'quv yurtlaridan biri — Sen-Sir Harbiy Akademiyasiga o'qishga kirgan. Bu muassasa o'sha davrda strategik fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va rahbarlik fazilatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. De Gollning o'qish davridagi eng muhim jihati — u harbiy fanning nazariy tomoniga chuqur qiziqqan va tarixiy tahlilga asoslangan fikrlash uslubini shakllantirganidir. U I jahon urushi davrida harbiy tajriba orttirib, keyinchalik bu bilimlarini siyosiy qarorlarida qo'llagan. De Gollning ta'limi uni strategik mustaqillikka, milliy g'ururni himoya qilishga va erkinlik g'oyalariga sodiq bo'lishga o'rgatdi. Shuningdek, u o'zining ilmiy ishlari orqali harbiy texnologiyalar va davlat boshqaruvi o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratgan. Shu bois, uning siyosiy faoliyati intellektual asosga ega bo'lib, Fransiyani Ikkinchi jahon urushi davrida mustaqil siyosat yuritishga undagan.

Fransisko Franko: intizom va avtoritar boshqaruv namunasi

Fransisko Franko (1892–1975) - Ispaniya tarixidagi eng uzoq muddatli diktatorlardan biri bo'lib, u o'z siyosiy faoliyatida qat'iy markazlashgan boshqaruvni joriy etgan. Franko yoshligidan harbiy intizom muhitida ulg'aygan. U Toledo Harbiy

Akademiyasida tahsil olgan bo‘lib, bu o‘quv yurti o‘sha davrda qat’iy harbiy tarbiya, itoatkorlik va buyruqqa so‘zsiz bo‘ysunishni asosiy qadriyat sifatida singdirgan. Frankoning ta‘lim muhiti asosan monarxistik va konservativ qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan edi. U siyosiy erkinlik yoki demokratik qadriyatlarga emas, balki harbiy intizom va barqarorlikka e‘tibor qaratgan. Shu bois, uning keyingi siyosiy faoliyati ham shu ruhda markazlashgan avtoritar va diniy qadriyatlarga tayangan boshqaruv tizimi asosida qurildi.

Frankoning ta‘limi unga strategik sabr-toqat, sadoqat va qat’iylik fazilatlarini bergan bo‘lsa-da, u tanqidiy fikrlash va erkin ijtimoiy munosabatlarga imkon bermagan. Bu esa Ispaniyada siyosiy erkinliklarning uzoq vaqt davomida cheklanishiga olib kelgan.

Adolf Gitler: formal ta‘limdan chetda qolgan siyosiy radikal

Adolf Gitler (1889–1945) - Germaniya tarixidagi eng bahsli siyosiy shaxs. U o‘rta maktabni to‘liq tamomlamagan va Vena San‘at Akademiyasiga kirish uchun ikki bor uringan, ammo muvaffaqiyatga erishmagan. Shu bois, Gitlarning rasmiy ta‘lim darajasi past bo‘lgan, ammo u o‘z-o‘zini o‘qitish va notiqlik san‘ati orqali siyosiy maydonga kirgan. Gitlarning ta‘limdan chetda qolganligi uning dunyoqarashini keskin va biryoqlama shakllantirgan. U o‘zining siyosiy qarashlarini asosan tajriba, propaganda va ijtimoiy norozilik kayfiyatidan ilhomlanib rivojlantirgan. Uning o‘z-o‘zini o‘qitish jarayonida olgan “bilimi” ilmiy asosga ega bo‘lmagan, ammo ommaviy ruhiyatni manipulyatsiya qilish uchun yetarlicha kuchli edi. Natijada, Gitlarning ta‘limdagi bo‘shliqni populistik g‘oyalar to‘ldirdi. U o‘zining notiqlik iste‘dodi, radikal mafkurasi va millatchilik tuyg‘ulari orqali katta ommani o‘z ortidan ergashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Bu holat ta‘lim yetishmovchiligi qanday qilib siyosiy ekstremizmga olib kelishini ko‘rsatuvchi tarixiy misoldir.

Uinston Cherchill: siyosiy nutq va intellektual diplomatiya namoyandasi

Uinston Cherchill (1874–1965) — Buyuk Britaniya tarixidagi eng mashhur siyosiy arboblardan biri, siyosiy notiqlik va diplomatik mahorat timsoli hisoblanadi. U dastlab Xarrou maktabida o‘qigan, keyin esa Sandxerst Harbiy Akademiyasini tamomlagan.

Cherchillning ta‘lim yo‘li uni harbiy strategiyaga, tahliliy fikrlashga va xalq bilan muloqotda nutq madaniyatini qo‘llashga o‘rgatgan. U o‘qish davridayoq tarix, falsafa va siyosat fanlariga qiziqqan, keyinchalik bu bilimlar uning siyosiy faoliyatida muhim rol o‘ynagan. Uning ta‘lim muhiti Britaniya aristokratik qadriyatlariga asoslangan bo‘lib, shaxsiy mas‘uliyat, mustaqil fikrlash va milliy manfaatni birinchi o‘ringa qo‘yish g‘oyalarini singdirgan. Cherchillning siyosiy muvaffaqiyatining asosiy

siri — ta’lim orqali o’zida shakllangan mantiqiy fikrlash, tarixiy tahlil va nutq mahoratini uyg’unlashtira olganligida edi.

Mezoni	Sharl de Goll	Fransisko Franko	Adolf Gitler	Uinston Cherchill
Ta’lim darajasi	Yuqori (akademik)	Yuqori (harbiy)	Past (o’rta maktab tugallanmagan)	Yuqori (harbiy akademiya)
Ijtimoiy kelib chiqishi	Intellektual oila	Harbiy oila	Past tabaqa	Aristokratik
Mafkuraviy yo’nalish	Milliy mustaqillik, respublika	Avtoritar, konservativ	Totalitar, fashistik	Liberal-demokratik
Ta’limdan olingan asosiy fazilat	Strategik fikrlash	Intizom	Agitatsion qobiliyat	Nutq mahorati, diplomatiya

Xulosa

Ta’lim siyosiy yetakchilarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tarbiyaviy va intellektual tajriba yetakchilarning qaror qabul qilish uslubiga, siyosiy qadriyatlar va boshqaruv shaklini tanlashiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, yuqori sifatli harbiy yoki intellektual ta’lim olgan shaxslar, masalan, Sharl De Goll va Uinston Cherchill, murakkab vaziyatlarda demokratik yoki konstruktiv boshqaruv yo’lini tanlagan. Ularning ta’limi nafaqat strategik fikrlash qobiliyatini rivojlantirgan, balki mas’uliyat, huquqiy me’yorlar va insoniy qadriyatlarni qadrlashni ham mustahkamlagan. Natijada ular siyosiy jarayonlarda ko’proq barqarorlik, kelishuv va ijtimoiy adolatni ta’minlashga intilgan.

Boshqa tomondan, ta’limdan chetda qolgan yoki bir yoqlama, ideologik yo’naltirilgan tarbiya olgan yetakchilar, masalan, Adolf Gitler va Fransisko Franko, ko’pincha avtoritar boshqaruv yo’lini tanlagan. Ularning etakchilik modeli kuch va nazoratga, shaxsiy manfaat va markazlashgan hokimiyatga asoslangan bo’lib, jamiyatdagi erkinlik va demokratik qadriyatlar cheklangan. Ta’limning yetarli darajada bo’lmashligi yoki siyosiy maqsadlar yo’lida qasddan bir yoqlama shaklda berilishi, yetakchining qarorlarini tor nuqtai nazardan shakllantirgan. Shunday qilib, siyosiy yetakchilarning dunyoqarashi va boshqaruv uslubi ko’pincha ularning o’qish, tarbiya va intellektual tajribasiga bog’liq. Ta’limning sifatli va har tomonlama rivojlantiruvchi bo’lishi, demokratik qadriyatlar va barqaror boshqaruv shakllanishida muhim rol o’ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Charles de Gaulle, *Mémoires de guerre*, vol. 1 (Paris: Éditions Plon, 1954), <https://archive.org/details/mmoiresdeguerr01gauluoft>.
2. Winston S. Churchill, *My Early Life* (London: Thornton Butterworth, 1930), <https://archive.org/details/in.ernet.dli.2015.462479>.
3. Stanley G. Payne, *Franco and Hitler: Spain, Germany, and World War II* (New Haven: Yale University Press, 2008), <https://archive.org/details/francohitlerspai0000payn>.
4. Alan Bullock, *Hitler: A Study in Tyranny* (New York: Harper & Row, 1962), <https://archive.org/stream/in.ernet.dli.2015.507192/2015.50719>
5. Raymond Aron, *Les étapes de la pensée sociologique* (Paris: Calmann-Lévy, 1967), <https://archive.org/details/LesEtapesDeLaPensee>

**YANGI O‘ZBEKISTON MAFKURASIDA YOSHLAR
VATANPARVARLIGINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY,
FALSAFIY, IJTIMOYIY VA PEDAGOGIK ASOSLARI**

Toirova Feruza Qobilovna

Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo’lim boshlig’i

Elektron manzil: feruzatoirova1986@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tayyorlashning zamonaviy falsafiy, ijtimoiy va pedagogik asoslari tahlil etilgan. Tadqiqotda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, sotsiologik so‘rovlar, komparativ tahlil va diskursiv metodlar orqali yoshlarning vatanparvarlik haqidagi tasavvurlari o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, bugungi yoshlar orasida vatanparvarlik faqat hissiy-ideologik tushuncha emas, balki ijtimoiy faoliyat, fuqarolik mas’uliyati va raqamli ong orqali ifodalanmoqda. Maqolada ta’lim, OAV va oilaning uzviy hamkorligiga asoslangan yangi model – “amaliy patriotizm konsepsiyasi” ishlab chiqish zarurligi ilmiy asoslandi.

KALIT SO‘ZLAR: vatanparvarlik, Yangi O‘zbekiston, yoshlar, ma’naviy tarbiya, fuqarolik ong, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, amaliy patriotizm, milliy g‘oya.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi milliy mafkuraning markaziy yo‘nalishiga aylandi. Chunki bugungi globallashuv, raqamli kommunikatsiya va ochiq axborot makonida yoshlarda milliy o‘zlikni saqlab qolish, Vatanga sadoqatni shakllantirish nafaqat tarbiya masalasi, balki ma’naviy xavfsizlikning strategik omili sifatida qaralmoqda [1, 23]. Shu boisdan ham davlat siyosati, ta’lim tizimi va ommaviy madaniyat institutlarining asosiy vazifasi — yosh avlodda vatanparvarlikni yangi pedagogik yondashuvlar orqali ongli, faol, zamonaviy shaklda shakllantirishdir.

Bugungi kunda muammo shundaki, vatanparvarlik tushunchasi ko‘p hollarda shioriy, hissiy yoki mafkuraviy sathda talqin qilinmoqda, ammo yoshlarning real hayoti, ijtimoiy faolligi va raqamli muhitdagi ishtirokida bu g‘oya amaliy qadriyat sifatida mustahkamlanmayapti [2, 47]. Yoshlar orasida individualizm, utilitarizm va

virtual identitet kuchayib borayotgani, milliy tarix va urf-odatlariga qiziqishning sustlashayotgani bu muammoning ichki mohiyatini ko'rsatadi [3, 64].

Demak, asosiy ilmiy muammo — vatanparvarlik g'oyasini yangi avlod tafakkuriga mos shaklda, zamonaviy pedagogik vositalar va kommunikativ texnologiyalar asosida singdirish masalasidir. Endilikda yoshlarni tarbiyalash jarayonida nafaqat darsliklar, balki media ta'lim, raqamli platformalar, loyihaviy faoliyat va shaxsiy tajriba asosidagi o'qitish modellari muhim o'rin tutadi. Chunki hozirgi davr yoshlari axborotni tayyor shaklda emas, interaktiv tajriba sifatida qabul qiladi; ular ishtirokchi bo'lgan taqdirdagina vatanparvarlik g'oyasi ularning ichki qadriyatiga aylanadi [4, 58].

Shunday qilib, ushbu tadqiqotning maqsadi — Yangi O'zbekiston mafkurasida yoshlar vatanparvarligini shakllantirish jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ilmiy tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etishning amaliy yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida vatanparvarlikni o'qitish, targ'ibot va axborot texnologiyalarida qo'llanilayotgan usullar tahlil qilinadi hamda yangicha metodik modellar taklif etiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda Yangi O'zbekiston yoshlarini vatanparvarlik ruhida tayyorlash jarayoni falsafiy, sotsiologik va pedagogik metodlar asosida tahlil qilindi. Ilmiy izlanishning metodologik asosi sifatida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, milliy g'oya konsepsiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik modeli va aksilformalizm (praktik patriotizm) g'oyalari tanlandi [1, 37].

Avvalo, falsafiy metod orqali vatanparvarlik tushunchasining mohiyati, uning ontologik (borliqdagi o'rni) va aksiologik (qadriyat sifatidagi) jihatlari tahlil qilindi. Bu borada **J. Ruso, I. Kant, A. Maslou,** shuningdek, o'zbek faylasuflaridan **M. Qodirov va G. To'xtayeva** ishlarida milliy g'urur, burch va fuqarolik ongining o'zaro aloqasi asos sifatida olindi [2, 45].

Pedagogik metodlar nuqtayi nazaridan, *tadqiqotda kuzatish, intervyu va kontent-tahlil usullaridan* foydalanildi. Ayniqsa, maktab va oliygohlarda o'tkazilgan amaliy tajribalar yoshlarning vatanparvarlik haqidagi tasavvurlari ko'pincha tashqi (ramziy) ko'rinishda ekanini ko'rsatdi. Shu bois, o'quv jarayonida interfaol metodlardan — **“rol o'ynash”, “muammoli vaziyatni tahlil qilish”, “tarixiy paralellarni keltirish”** usullaridan foydalanish samaradorligi o'rganildi [3, 53].

Sotsiologik yondashuv esa yoshlar orasida o'tkazilgan so'rovnomalar asosida shakllantirildi. Tadqiqotda 200 nafar talaba ishtirok etdi; ularning 68 foizi “Vatan

uchun xizmat qilish”ni harbiy xizmat bilan, 24 foizi esa ilmiy-ijodiy mehnat bilan bog‘ladi. Bu esa yoshlar ongida vatanparvarlik tushunchasi faqat jismoniy fidoyilik bilan emas, balki intellektual faoliyat orqali ham anglayanotganini ko‘rsatdi [4, 62].

Metodologiyada empirik tahlil bilan bir qatorda komparativ (taqqoslovchi) yondashuv ham qo‘llanildi. Xususan, **Yaponiya, Turkiya va Janubiy Koreya** ta‘lim tizimlarida vatanparvarlikni tarbiyalashning tajribalari O‘zbekiston sharoitiga solishtirildi. Masalan, Yaponiyada **“Kokoro no kyoiku”** (*qalb tarbiyasi*) dasturi orqali vatanparvarlik axloqiy va estetik qadriyatlar bilan uyg‘unlashtiriladi. Bu tajriba O‘zbekiston ta‘lim tizimi uchun “ma‘naviy integratsiya modeli”ni ishlab chiqishda metodik asos bo‘lishi mumkin [5, 58].

Metodologiyaning yangiligi shundaki, **u vatanparvarlikni faqat ma‘naviy g‘oya sifatida emas, balki ijtimoiy faoliyat va kommunikativ madaniyat tizimi sifatida o‘rganishga imkon beradi.** Shunday qilib, tadqiqot milliy qadriyatlar va global jarayonlar o‘rtasida uzviy muvozanat topish zaruriyatini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Tadqiqotda tizimli-tahliliy metod orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosatiga oid nutqlari, **“Yoshlar – kelajagimiz”, “Ma‘naviyat va ma‘rifat”** dasturlari hamda 2030-yilgacha mo‘ljallangan Ta‘lim konsepsiyasi tahlil qilindi [7, 67]. Shuningdek, empirik yondashuv sifatida oliy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari va talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan kuzatuv hamda so‘rov natijalari umumlashtirildi.

Tadqiqotning nazariy tayanchini **I. Karimov, A. Avloni, A. Turaqulov** singari o‘zbek mutafakkirlarining milliy tarbiya haqidagi qarashlari, shuningdek, **E. Durkheim, P. Freire, A. Bandura** kabi zamonaviy pedagogika va sotsiologiya vakillarining g‘oyalari tashkil etdi [8, 73]. Ularning qarashlari yoshlar ongida *vatanparvarlikni ijtimoiy integratsiya va shaxsiy identifikatsiya jarayoni sifatida ko‘rsatishga imkon berdi.*

Shuningdek, tadqiqotda innovatsion pedagogik texnologiyalar – loyihaviy o‘qitish, raqamli ta‘lim, ijtimoiy platformalardan foydalanish usullari tahlil qilindi. Bu yondashuvlar yoshlarni nafaqat bilim jihatdan, balki fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas‘uliyati nuqtai nazaridan ham faol shaxs sifatida shakllantirishda muhim deb topildi [9, 58].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Yangi O‘zbekiston yoshlarida vatanparvarlik tushunchasi nafaqat tarixiy va mafkuraviy mazmun bilan, balki zamonaviy fuqarolik ongining ifodasi sifatida shakllanmoqda. Bu holat, avvalo, yoshlar ongida “Vatan”

tushunchasining tor geografik makon emas, balki shaxsiy mas'uliyat va ijtimoiy faoliyat maydoni sifatida anglanayotganidan dalolat beradi [1, 23].

Shu bilan birga, amaliy kuzatuvlar natijasida aniqlandi: yoshlarning taxminan yarmi vatanparvarlikni faqat rasmiy tadbirlar, bayramlar yoki davlat ramzlariga hurmat bilan cheklaydi. Ularning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi esa ko'pincha shaxsiy manfaat yoki o'zini ko'rsatish motivlariga asoslanadi. Bu esa vatanparvarlikni chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo'lgan qadriyat sifatida emas, balki tashqi ifoda darajasida qabul qilish tendensiyasini keltirib chiqarmoqda [2, 41].

Muammo shundaki, ayrim ta'lim tizimlarida vatanparvarlikni o'rgatish hali ham nazariy shaklda — tarixiy faktlarni yod olish va shiorlarni takrorlash darajasida olib borilmoqda. Bu jarayonda yoshlarning hissiy-intellektual ishtiroki sust bo'lib, natijada ular Vatan bilan shaxsiy aloqadorlik tuyg'usini yetarli darajada his qilmaydi. Masalan, bir nechta oliygohlarda o'tkazilgan suhbatlarda talabalar **“Vatan uchun nima qildingiz?”** degan savolga aniq amaliy misollar keltira olmagan [3, 58].

Biroq ijobiy o'zgarishlar ham kuzatilmoqda. Masalan, “Yoshlar daftari” dasturi doirasida yoshlarning ijtimoiy muammolarini hal etish orqali ularning davlatga ishonchi va mas'uliyat hissi oshmoqda. Shu kabi amaliy loyihalar vatanparvarlikni his qilishni emas, uni amalda namoyon etishni rag'batlantiradi. Demak, **vatanparvarlikni tarbiyalashda deklarativ yondashuv o'rniga tajriba asosidagi (praktik) modelga o'tish zarur** [4, 32].

Muhokamadan shu xulosa chiqadiki, *bugungi yoshlar uchun “Vatanga muhabbat” tushunchasi endilikda an'anaviy shiorlar bilan emas, balki shaxsiy tashabbus, ijtimoiy foydali faoliyat va ekologik, texnologik loyihalarda ishtirok orqali ifodalanmoqda.* Masalan, iqlim o'zgarishiga qarshi o'zbek yoshlarining “Green Nation” harakati nafaqat ekologik ongini, balki milliy manfaatni himoya qilish hissini ham ifodalaydi. Bu holat vatanparvarlik tushunchasining zamonaviy — faol va mas'uliyatli shaklga o'tganini ko'rsatadi [5, 49].

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oila, maktab, oliygoh va OAVning o'zaro integratsiyasi muhim. Ayniqsa, oila – birlamchi ma'naviy ijtimoiy institut sifatida yosh ongida **“Vatan = uy”** konsepsiyasini shakllantiradi. Shu sababli, ot-onalar uchun **“Oilada vatanparvarlik saboqlari”** moduli ishlab chiqish va uni maktab bilan bog'liq tarbiyaviy ishlar tizimiga kiritish taklif etiladi.

Shunday qilib, muhokama natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, Yangi O'zbekiston yoshlarining vatanparvarlik madaniyatini shakllantirish endilikda faqat g'oyaviy targ'ibot emas, balki amaliy ishtirok, tanqidiy tafakkur va global ongini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish jarayoni sifatida qaralishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat siyosati, ta’lim tizimi va fuqarolik jamiyati faoliyatining uzviy qismiga aylanmoqda. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, vatanparvarlik bugungi kunda shunchaki shior yoki hissiy holat emas, balki ijtimoiy ong, mas’uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasi sifatida talqin etilishi zarur [1, 37].

Shaxsiy fikrimcha, hozirgi davrda vatanparvarlikni kuchaytirish uchun uchta yo‘nalishda izchil harakat talab etiladi: **ma’naviy ongni mustahkamlash, ijtimoiy ishtirokni kengaytirish va axborot makonida milliy mafkurani himoya qilish**. Yoshlar ongida **“Vatan uchun yashash”** g‘oyasini shakllantirish, ularni real ijtimoiy amaliyotlar — ekologik, ilmiy, innovatsion, ko‘ngillilik faoliyatiga jalb etish eng samarali tarbiyaviy yo‘l hisoblanadi.

Bugungi yoshlar avvalgi avlodlardan farqli o‘laroq, global axborot oqimida voyaga yetmoqda. Shu bois ularning vatanparvarlik hissi faqat tarixiy xotira bilan emas, balki zamonaviy raqamli madaniyat, ekologik ong va ilmiy tafakkur bilan uyg‘unlashishi lozim. Masalan, raqamli loyihalar orqali milliy merosni targ‘ib etish yoki o‘zbek tilining onlayn nufuzini oshirish harakati – bu zamonaviy vatanparvarlikning amaliy ko‘rinishidir [2, 49].

Vatanparvarlik ruhini kuchaytirishda ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini faqat dars shaklida emas, balki amaliy loyihalar, simulyatsiyalar, muhokama va ijtimoiy tadqiqotlar orqali tashkil etish zarur. Shu bilan birga, “Yosh vatanparvarlar akademiyasi”, “Vatan uchun ixtiro” kabi innovatsion platformalarni yaratish orqali yoshlarning tafakkurini mustaqil, tanqidiy va bunyodkorlik yo‘nalishida rivojlantirish mumkin [3, 51].

- ✓ Oila, maktab va OAV o‘rtasida vatanparvarlikka oid yagona maqsadli dastur ishlab chiqish ham muhim.
- ✓ Ommaviy axborot vositalarida yengil-yelpi kontent o‘rniga, yoshlarning o‘zini topish, jamiyatga foyda keltirish, milliy g‘ururni ifoda etish imkonini beruvchi dasturlar ko‘paytirilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, *Yangi O‘zbekiston yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu mafkuraviy targ‘ibot emas, balki inson kapitalini milliy manfaatlar bilan uyg‘unlashtiruvchi strategik jarayondir*. Har bir yoshning o‘z Vataniga xizmat qilish istagini uyg‘otish, ularni mustaqil fikrli, ijtimoiy faol va axloqan yetuk shaxs sifatida shakllantirish — Yangi O‘zbekistonning eng muhim ma’naviy sarmoyasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov, I. A. (2008). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat. – 240 b.
2. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash, yangicha yondashuv. Toshkent: O'zbekiston. – 312 b.
3. Rahmonov, B. (2022). “Yoshlar tarbiyasida vatanparvarlik va milliy qadriyatlar uyg'unligi.” Ma'naviyat va hayot jurnali, №2. – B. 55–62.
4. Abdullayeva, N. (2020). “Ta'lim tizimida vatanparvarlik g'oyasining zamonaviy talqini.” Pedagogik mahorat jurnali, №3. – B. 30–38.
5. Jo'rayev, U. (2023). “Raqamli davrda yoshlar ongida vatanparvarlikni shakllantirish mexanizmlari.” Ijtimoiy fanlar va innovatsiyalar jurnali, №5. – B. 45–52.
6. Qodirov, M. (2021). Milliy g'oya va yoshlar ma'naviyati. Toshkent: Iqtisodiyot. – 198 b.
7. To'xtayeva, G. (2022). “Globallashuv sharoitida yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash yo'llari.” Falsafa va huquq jurnali, №4. – B. 41–47.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning (2022) “Yoshlar – kelajagimiz poydevori” mavzusidagi ma'ruzasi. Prezident.uz rasmiy sayti.
9. Hasanov, D. (2020). “Vatanparvarlik – shaxsiy mas'uliyatning ifodasi sifatida.” O'zbekiston falsafasi masalalari to'plami. – B. 73–81.
10. Murodova, Z. (2024). “Ommaviy axborot vositalarida vatanparvarlik g'oyasining kommunikativ talqini.” Til va jamiyat jurnali, №1. – B. 27–34.

RAQAMLI GLOBALLASHUV FONIDA MILLIY QADRIYATLARNING
TRANSFORMATSIYASI VA HIMOYA MEXANIZMLARI

Xodjayeva Saida Sharipovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti tyutori

Elektron manzil: Saida-4ka@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarning saqlanishi va ularning modern madaniyat bilan uyg'unlashuv muammosi tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — raqamli va g'oyaviy bosim kuchaygan zamonda milliy o'zlikni himoya qilishning yangi nazariy va amaliy yondashuvlarini ishlab chiqishdir. Maqolada falsafiy tahlil, diskursiv yondashuv va komparativ metod asosida qadriyatlarning dinamikasi, ularning globallashuv jarayonidagi transformatsiyasi o'rganilgan. Natijalarga ko'ra, milliy qadriyatlarni asrash uchun ta'lim, madaniyat va OAV sohalarida kommunikativ madaniyatni rivojlantirish, shuningdek, raqamli suverenitet konsepsiyasini kuchaytirish zarurligi asoslab berilgan.

KALIT SO'ZLAR: globallashuv, milliy qadriyat, madaniy identitet, ma'naviy xavfsizlik, kommunikativ madaniyat, falsafiy tahlil, milliy o'zlik.

KIRISH

Globallashuv insoniyat taraqqiyotining eng muhim bosqichlaridan biri sifatida madaniyatlararo almashinuv, texnologik integratsiya va kommunikatsiya erkinligini kengaytirayotgan jarayondir. Ammo bu jarayonning ikkinchi tomoni ham mavjud — u milliy o'zlik, ma'naviy qadriyatlar va an'anaviy madaniy kodlarning yemirilish xavfini keltirib chiqarmoqda [1, 37]. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat oqimi insonning estetik didi, axloqiy mezonlari hamda ijtimoiy orientatsiyasini qayta shakllantirmoqda.

Bugungi kunda o'zbek jamiyatida ham globallashuvning raqamli bosqichi nafaqat axborot almashuvni tezlashtirdi, balki madaniy identitetga ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlar orasida g'arbona turmush tarzi, chet tillaridagi so'zlardan foydalanish, milliy libos va urf-odatlariga nisbatan sovuqqonlik kabi tendensiyalar kuchaymoqda [2, 54]. Bu holat milliy qadriyatlarning transformatsiyasi muammosini dolzarb ilmiy masalaga aylantirdi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada raqamli globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarning o'zgarish mexanizmlari ularni himoya qilishning nazariy asoslari,

hamda amaliy strategiyalarini ishlab chiqish maqsad qilib olinadi. Tadqiqotning yangiligi shundaki, u globallashuvni shunchaki madaniy almashinuv emas, balki ma'naviy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot falsafiy tahlil, **sotsiokulturna yondashuv va komparativ (taqqoslovchi) metod** asosida olib borildi. **Asosiy maqsad – raqamli globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarning o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash hamda ularni saqlash mexanizmlarini nazariy va amaliy nuqtai nazardan asoslashdir.**

Tadqiqotda, avvalo, dialektik metod yordamida globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi [3, 22]. Shu asosda milliy qadriyatlarning transformatsiyasi ikki yo'nalishda ko'rib chiqildi:

1. *Qadriyatlarning moslashuvchan modernizatsiyasi – zamonaviy texnologiyalar orqali ularning yangi shaklda yashab qolishi;*
2. *Qadriyatlarning devalvatsiyasi – ularning mazmunan susayishi yoki iste'molchilik madaniyati bilan almashtirilishi.*

Shuningdek, tadqiqotda madaniyatshunoslik va axborot-falsafasi tamoyillari asosida raqamli kommunikatsiya vositalarining **(ijtimoiy tarmoqlar, media-platformalar, sun'iy intellekt algoritmlari)** qadriyatlar tizimiga ta'siri o'rganildi [4, 61].

Manba sifatida zamonaviy o'zbek ijtimoiy tarmoqlaridagi diskurslar, madaniyatshunos olimlarning asarlari va globallashuv jarayonini tahlil qiluvchi xalqaro tadqiqotlar o'rganildi. Ushbu materiallar asosida raqamli makonda milliy identitetni saqlab qolish uchun falsafiy g'oyalar va amaliy mexanizmlar ishlab chiqildi.

Metodologik asos sifatida shuningdek, **“madaniy immunitet”** konsepsiyasidan foydalanildi. Bu yondashuvga ko'ra, har bir xalqning qadriyatlar tizimi global axborot oqimlari ta'siriga nisbatan o'ziga xos himoya mexanizmlarini shakllantiradi [5, 49]. Shu boisdan, tadqiqotda milliy qadriyatlar nafaqat passiv meros sifatida, balki aktiv madaniy tizim sifatida talqin qilinadi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli globallashuv jarayonida milliy qadriyatlar tizimi uch asosiy darajada — semantik, funksional va kommunikativ o'zgarishlarga duch kelmoqda. Ushbu o'zgarishlar ijobiy va salbiy jihatlarni o'zida mujassam etgan murakkab jarayondir.

1. Semantik o'zgarishlar.

Milliy qadriyatlarning mazmuni global media diskursi orqali yangicha talqin qilinmoqda. Masalan, ilgari “*baxt*” tushunchasi oila totuvligi, halol mehnat va farzand tarbiyasi bilan bog‘langan bo‘lsa, hozirda yoshlar orasida u moddiy farovonlik, brendli kiyimlar va xorijda yashash orzusi bilan o‘lchanmoqda [6, 112].

Xuddi shunday, “*hurmat*” qadriyati ham raqamli makonda transformatsiyaga uchradi — ilgari u kattalarga ehtirom ko‘rsatish orqali namoyon bo‘lsa, endi u “*fikr erkinligi*” niqobi ostida keskin, hatto tajovuzkor muloqot bilan aralashib ketmoqda.

2. Funktsional o‘zgarishlar.

Ba‘zi qadriyatlar o‘z shaklini yo‘qotsa-da, mazmun jihatdan yangi kommunikatsion ko‘rinishga ega bo‘lmoqda. Misol uchun, Navro‘z bayrami ilgari jamoaviy tarzda, mahalliy maydonlarda nishonlangan bo‘lsa, endi u Instagram va TikTok tarmoqlarida “*Navro‘z challenge*”lar, videoroliklar orqali ifodalanmoqda. Bu jarayon qadriyatning mohiyatini emas, uni ifodalash uslubini o‘zgartirganini ko‘rsatadi [8, 73].

QIZIL RAYHON (TULSI)**Qarshiyeva Dilobar Valijon qizi****Ro‘ziyeva Gulsara Temirqulovna**qarwiyevalilobar06@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qizil rayhon (Tulsi, *Ocimum sanctum* L.) o‘simligining tibbiyotdagi o‘rni, biologik faol moddalari, farmakologik ta’siri hamda xalq tabobati va zamonaviy farmatsevtikadagi qo‘llanilish yo‘nalishlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, rayhon o‘simligi tarkibida efir moylari, flavonoidlar, eugenol, saponinlar, fenol birikmalari va askorbin kislotasi mavjud bo‘lib, ular organizmda antibakterial, yallig‘lanishga qarshi, immunomodulyator, antioksidant va stressga qarshi ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, qizil rayhon yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilaydi, moddalar almashinuvini faollashtiradi va asab tizimining barqaror ishlashiga yordam beradi. Tadqiqotlar ushbu o‘simlik asosida yaratilgan fitopreparatlar profilaktik va davolovchi maqsadlarda yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatdi. Maqolada rayhonning xalq tabobatidagi o‘rni bilan bir qatorda, farmatsevtik texnologiyada qo‘llanilish istiqbollari ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qizil rayhon, Tulsi, *Ocimum sanctum* L., efir moylari, eugenol, antioksidant, immunomodulyator, yallig‘lanishga qarshi ta’sir, fitopreparat, fitoterapiya.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida tabiiy manbali dorivor o‘simliklarga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Kimyoviy preparatlarga nisbatan salbiy ta’sirlar va organizmga toksik yuklamaning kuchayishi fonida, tabiiy xomashyo asosidagi dori vositalarini ishlab chiqish farmatsevtika va tibbiyot sohaslarining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ana shunday noyob dorivor o‘simliklardan biri — qizil rayhon (*Tulsi, Ocimum sanctum* L.) bo‘lib, u qadimdan Sharq xalqlari tabobatida “muqaddas o‘simlik” sifatida qo‘llanilgan. Qizil rayhon Lamiaceae (labguldoshlar) oilasiga mansub bo‘lib, o‘ziga xos yoqimli hid, efir moylariga boy barg va gullari bilan ajralib turadi. O‘simlikning kimyoviy tarkibi juda boy: eugenol, ursolik kislota, flavonoidlar, taninlar, saponinlar, karotin, A, C va K vitaminlari kabi biologik faol

moddalarga ega. Aynan ushbu komponentlar tufayli rayhon antibakterial, yallig‘lanishga qarshi, viruslarga qarshi, immun tizimini mustahkamlovchi, antioksidant va stressga qarshi ta‘sir ko‘rsatadi. Zamonaviy tibbiyotda rayhon ekstraktlari va efir moylari nafas yo‘llari kasalliklari, yurak-qon tomir tizimi buzilishlari, oshqozon-ichak muammolari, teri yallig‘lanishlari hamda asab tizimi kasalliklarini davolashda keng qo‘llanilmoqda. Shuningdek, uning antioksidant ta‘siri hujayralarni erkin radikallardan himoya qilib, qarish jarayonlarini sekinlashtiradi. O‘zbekiston sharoitida qizil rayhon qadimdan oziq-ovqat, kosmetika va xalq tabobatida ishlatilib kelinadi. Biroq so‘nggi yillarda bu o‘simlikning fitokimyoviy tarkibi, farmakologik faol moddalari va ularning tibbiyotdagi qo‘llanilish mexanizmlarini ilmiy asosda chuqur o‘rganish zarurati ortib bormoqda. Shu boisdan, ushbu tadqiqotning dolzarbligi rayhon o‘simligining tabiiy shifobaxsh xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganish, u asosida yangi fitopreparatlar ishlab chiqish imkoniyatlarini aniqlash bilan belgilanadi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistonning Toshkent viloyati hududida o‘stirilgan qizil rayhon (*Tulsi*, *Ocimum sanctum* L.) o‘simligining yer usti qismlari — barglari, gullari va yosh poyalari tanlab olindi. O‘simlik namunalarning tozaligi va biologik faolligini saqlash maqsadida ular gullash davrida yig‘ildi va 25–30°C haroratda soyada quritildi. Quritilgan xomashyo mayda kukun holatiga keltirilib, tahlil uchun tayyorlandi. Kimyoviy tarkibni aniqlash maqsadida etanol va suvli ekstraksiya usullaridan foydalanildi. Ekstraktlar rotatsion bug‘latgich yordamida kontsentratsiyalandi va keyinchalik gaz-suyuqlik xromatografiyasi (GSX) hamda yupqa qatlamli xromatografiya (YQX) orqali komponentlar tarkibi tahlil qilindi. Biologik faol moddalarning mavjudligi flavonoidlar, saponinlar, taninlar, efir moylari va askorbin kislotasini aniqlash bo‘yicha standart fitokimyoviy sinovlar yordamida tasdiqlandi. Farmakologik faoliyatini baholash uchun rayhon ekstraktining antibakterial, antioksidant va yallig‘lanishga qarshi ta‘siri laboratoriya sharoitida sinovdan o‘tkazildi. Antibakterial faollik *Staphylococcus aureus* va *Escherichia coli* shtammlariga nisbatan disk-diffuziya usuli orqali aniqlangan bo‘lsa, antioksidant faollik DPPH (2,2-difenil-1-pikrilgidrazil) radikalini neytrallash ko‘rsatkichi asosida o‘lchandi. Shuningdek, o‘simlik ekstraktining toksikologik xavfsizligi laboratoriya hayvonlari (sichqonlar)da LD₅₀ mezoni bo‘yicha baholandi. Olingan natijalar statistik tahlil qilinib, ishonchlilik darajasi $p < 0.05$ chegarasida aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qizil rayhon (*Tulsi*) o‘simligi tarkibida organizmga foydali bo‘lgan biologik faol moddalarning murakkab majmuasi mavjud. O‘simlikning etanol ekstrakti tahlili davomida eugenol, metilxavikol, linalool, kamfen, flavonoidlar (rutin, kversetin), saponinlar, taninlar va organik kislotalar aniqlangan. Gaz-suyuqlik

xromatografiyasi natijalariga ko'ra, efir moylarining asosiy komponenti eugenol (54,6%) bo'lib, u o'simlikning antibakterial va yallig'lanishga qarshi ta'sirida yetakchi rol o'ynaydi. Antioksidant faollikni baholash natijasida rayhon ekstrakti DPPH radikalini $79,4 \pm 1,3\%$ darajada neytrallagani aniqlandi, bu uning kuchli erkin radikallarni yo'qotuvchi va hujayralarni oksidlovchi stressdan himoya qiluvchi xususiyatga egaligini ko'rsatadi. Flavonoidlar va fenol birikmalarning yuqori miqdori bu natijani tasdiqlaydi. Antibakterial sinovlarda rayhon ekstrakti *Staphylococcus aureus* bakteriyasiga nisbatan $19 \pm 0,5$ mm, *Escherichia coli* bakteriyasiga nisbatan esa $16 \pm 0,4$ mm inhibisiya zonasi hosil qilgan. Bu natijalar rayhon ekstrakti tabiiy antibiotik sifatida ishlatilishi mumkinligini ko'rsatdi. Yallig'lanishga qarshi faollikni baholashda, rayhon ekstrakti indometatsin bilan taqqoslaganda 68–72% yallig'lanishni kamaytirish samaradorligini namoyon etdi. Bunday natija o'simlik tarkibidagi ursolik kislota, eugenol va flavonoidlarning sinergik ta'siri bilan izohlanadi. Toksikologik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, rayhon ekstrakti past toksiklikka ega, LD₅₀ qiymati 2000 mg/kg dan yuqori bo'lib, bu uni xavfsiz terapevtik preparat sifatida qo'llash imkonini beradi. Olingan natijalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, qizil rayhon o'simligi immun tizimini faollashtiruvchi, yallig'lanishga qarshi, antioksidant, antibakterial va adaptogen xususiyatlarga ega bo'lib, uni fitoterapiya va farmatsevtik preparatlar ishlab chiqishda istiqbolli xomashyo sifatida qo'llash mumkin. Tadqiqot natijalari qizil rayhon (*Ocimum sanctum* L.) o'simligining tibbiyotdagi o'rni beqiyos ekanini tasdiqlaydi. O'simlik tarkibidagi efir moylari, flavonoidlar, eugenol, saponinlar, taninlar va fenolik birikmalar yuqori biologik faollikka ega bo'lib, ular organizmning bir nechta tizimlariga bir vaqtning o'zida kompleks ta'sir ko'rsatadi. Bu komponentlarning o'zaro sinergiyasi rayhonning yallig'lanishga qarshi, antibakterial, antioksidant va immunomodulyator ta'sir mexanizmlarini kuchaytiradi. Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan hamohang. Masalan, Hindiston va Tailand olimlari tomonidan o'tkazilgan izlanishlarda Tulsi ekstrakti *Staphylococcus aureus*, *E. coli* va *Pseudomonas aeruginosa* bakteriyalariga nisbatan yuqori antibakterial faollik ko'rsatgan. Bizning tahlillarimiz ham shunga o'xshash natijalarni qayd etdi — bu esa o'simlikning tabiiy antibiotik sifatida ishlatilish imkonini isbotlaydi. Qizil rayhondagi eugenol moddasi — fenolik tuzilmali birikma bo'lib, u yallig'lanish mediatorlari (interleykin-6, prostaglandinlar) faoliyatini cheklaydi, bu esa to'qimalarda yallig'lanish jarayonining pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, flavonoidlar va saponinlar antioksidant fermentlar (superoksid dismutaza, katalaza, glutation peroksidaza) faolligini oshirib, hujayralarni oksidlovchi stressdan himoya qiladi. Qizil rayhonning immunomodulyator ta'siri ham alohida e'tiborga loyiq. Tadqiqotlar

ko'rsatishicha, Tulsi ekstrakti limfotsitlarning faolligini oshiradi, T-hujayralarning proliferatsiyasini kuchaytiradi va interferon ishlab chiqarilishini rag'batlantiradi. Bu xususiyat o'simlikni shamollash, gripp, virusli infeksiyalar va immun tanqisligi holatlarida tabiiy himoya vositasi sifatida qo'llash imkonini beradi. Bundan tashqari, rayhon ekstrakti asabi tizimiga tinchlantiruvchi va adaptogen ta'sir ko'rsatadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida qizil rayhon (Tulsi, *Ocimum sanctum* L.) o'simligi tarkibida biologik faol moddalarning keng spektri mavjudligi aniqlanib, ularning farmakologik ahamiyati ilmiy jihatdan isbotlandi. O'simlikning asosiy faol komponentlari — eugenol, flavonoidlar, saponinlar, taninlar, fenolik birikmalar va askorbin kislotasi bo'lib, ular o'zaro sinergik ta'sirda antibakterial, yallig'lanishga qarshi, antioksidant, immunomodulyator va adaptogen xususiyatlarni namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova S., Abdurahmonov A. Dorivor o'simliklarning farmakologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2022. – 315 b.
2. Pandey A., Singh R. Pharmacological potentials of *Ocimum sanctum* L. (Tulsi): A review. – *Journal of Ethnopharmacology*, 2021; 276: 114182.
3. Khakimova D., Rasulov B. Fitoterapiya va tabiiy dori vositalari. – Samarqand: SamDTI nashriyoti, 2020. – 280 b.
4. Jamshidov M., Alimova N. O'zbekiston florasidagi efir moyli o'simliklarning tibbiyotdagi ahamiyati. – *O'zbekiston tibbiyot jurnali*, 2023; 2(4): 45–52.
5. Singh N., Yadav R. Therapeutic applications of *Ocimum sanctum* in modern medicine. – *Asian Pacific Journal of Tropical Medicine*, 2022; 15(8): 362–369.
6. Petrov V., Kuznetsova I. Biologically active components of aromatic plants. – *Pharmaceutical Chemistry Journal*, 2020; 54(6): 112–118.
7. Rajan R., Thomas J. Immunomodulatory and adaptogenic properties of Tulsi (Holy Basil). – *Phytomedicine*, 2023; 115: 154831..

**XORIJIY ISLOM BANKI MISOLIDA O'ZBEKISTONDA ISLOM BANKINI
RIVOJLANTIRISH**

Tashmatova Nozima

Annotatsiya: Maqola dunyo bo'yicha eng barqaror va yangi hisoblangan islom bankchiligining mamlakatimizga olib kirilishi va iqtisodiyotga ta'sir qilishi haqida. Bunda islom bankchiligi haqida umumiy ma'lumotlar berilib, Al Rajhi islom banki misolida mamlakatimizga olib kirilishi mumkin bo'lgan bank faoliyati haqida tavsfiyalar beriladi.

Tayanch iboralar: islom moliyasi, islom banki, mudoraba, vadia, mushoraka, ijara.

Annotation: The article is about the introduction of Islamic banking, considered the most stable and new in the world, to our country and its impact on the economy. In this, general information about Islamic banking is provided, as well as descriptions of banking activities that can be brought to our country on the example of Al Rajhi Islamic Bank.

Key words: Islamic finance, Islamic banking, mudarabah, wadia, musharakah, rent.


KIRISH

Islom moliyasi dunyo bo'yicha barqaror o'sib borayotgan yo'nalish bo'lib o'z ichiga: islom bankchiliga, islom qimmatli qog'ozlari(suquq), islom sug'urtasi (takafful), islom fondlari va boshqa islomiy moliya institutlarni o'z ichiga oladi. Islom bankchiligi eng rivojlangan islom moliyasi segmenti hisoblanib, O'rta Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida yaxshi rivojlangan. Saudi Arabistoning "Al-Rajhi" Islom banki dunyo bo'yicha eng yaxshi rivojlangan va capital aylanmasi katta bo'lgan bank bo'lib, quyida aynan shu bank misolida mamlakatimiz islom bankchiligini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Nafaqat musulmon bo'lgan davlatlar, balki musulmon bo'lmagan davlatlar (Buyuk Britaniya, Italiya) da ham rivojlanib iqtisodiyotga sezilarli darajada ijobiy ta'sir qilmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston, Qozog'iston kabi iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda islom moliyasi, islom bankchiligini rivojlantirish, moliyaviy risklilik darajasi past bo'lganligi uchun yaxshi hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Shariat qonun qoidalariga asosan o'z faoliyatini olib boruvchi islom moliyasi, moliyaviy risklarni to'g'ri taqsimlanishi va adolatli ulush tengligiga asoslanganligi uchun eng kam risklilikka ega moliya hisoblanadi. Buning asosiy sababi musulmonarning muqaddas kitobi bo'lmish "Qur'on" da Niso surasining 29-oyatida: "Ey iymon keltirganlar! Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang. Magar, o'zaro rozilik ila tijorat bo'lsa, mayli."¹ keltirilgan. Global islom moliya bozori 3,98 trillion A.Q.Sh.dollariga teng bo'lgan 2022-yil, 2027-yilga borib esa, 5,6 trillion A.Q.Sh. dollariga teng deb taxmin qilingan. O'tgan asrda hali yaxshi rivojlanmagan islom moliyasi oxirgi 10 yil ichida qasholikni kamytirish, mamlakat yashash farovonligini oshirish, iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir qildi. Foyda va zararni to'g'ri taqsimlashnishi orqali xatto 2008-yil global iqtisodiy inqirozda va COVID-19 pandemiyasi davrida deyarli zararsiz o'tti. Aynan shu sabab ham ko'plab musulmon bo'lmagan mamlakatlar ham islom moliyasiga o'z qiziqishini uyg'otti. Hozirda 136 ta davlatda 1 679 ta islom moliya institutlari mavjud bo'lib, dunyo bo'yicha islom moliya kapitali 17% ga 2021-yildan 2022-yilga nisbatan oshgan. Yetakchi mamlkatlar bo'lib, Malayziya, Saudia Arabistoni, Eron kiradi. Quyida berilgan rasm orqali islom moliyasidagi kapitalning mamlkatlar kesimidagi ulushini ko'rsak bo'ladi. (1-rasm)



¹ "Tafsiri Hilol" Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.

1-rasm. Islom moliyasidagi kapitalning mamlakatlar kesimidagi ulushi (2022 milliard A.Q.Sh. dollarda)²

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko'rsak bo'ladiki, islom moliyasining deyarlik 4 dan 1 qism kapitali Eron davlatiga tegishlik bo'lib, Saudiya Arabiston, Malayziya ikkinchi va uchinchi o'rinda (606 va 262 milliard A.Q.Sh. dollari).

Sektorlar bo'yicha islom moliyasi 5 ga bo'linadi:

- Islom banki;
- Islom sug'urtasi (takafful);
- Islom qimmatli qog'ozlari (suquq);
- Islom fondlari;
- Boshqa islom moliya institutarini o'z ichiga oladi.


Islom bankchiligi islom moliyasida eng ko'p qo'llaniladigan va eng katta kapital aylanmaga ega sektor hisoblanadi. Islom bankchiligining qisqacha bayoni shundaki, u shariat qonun qoidalariga asoslangan bank faoliyat. Islom bankchiligida foyda va zarar adolatli taqsimlanadi va foiz stavkasi bo'yicha kreditlar ajratmaydi va omonatga pul qabul qilmaydi. Aynan shular ananaviy banklardan asosiy farqlari hisoblanadi. Ananaviy bank tomonidan berilgan pul qaytarilinayotganida albatta ma'lum bir miqdorda foiz stavkasi bilan qaytarilinadi. Bu esa ribo hisoblanib, musulmonlarning muqaddas kitobi "Qur'on"da bir necha joyda kelib, qattiq taqiqlangan hisoblanadi. Masalan,

- Baqara surasi, 278-oyat: "Ey, iymon keltirganlar! Mo'min bo'lsangiz, Allohga taqvo qiling va riboning sarqitini ham tark qiling!"
- Niso suras, 130-oyat: "Ey, iymon keltirganlar! Riboni bir necha barobar qilib yemang. Allohga taqvo qiling, shoyadki, najot topsangiz."
- Rum surasi, 39-oyat: "Odamlar mollari ichida ziyoda bo'lsin deb ribo uchun bergan molingiz Alloh huzurida ziyoda bo'lmas. Allohning yuzini ko'zlab bergan zakotingiz esa, bas, ana o'shalar bir necha barobar qilib oluvchilardir."

Dunyo bo'yicha umumiy kapital islom bankchiligida 2,765 trillion dollarga teng bo'lib, islom moliyasining 70% ni tashkil etadi va 566 ta islom moliya banklariga ega. Quyida 2-ramda 4 xil islom banklari ko'rsatilgan. Son jihatdan eng ko'p tijorat banki hisoblanib, 456 taga 2022-yil yetibdi. Islomiy investitsiya banki esa, 64 ta bo'lib,

² Islomiy moliyani rivojlantirish hisoboti 2022. (Islamic Finance Development Report 2022)

ulgurchi va ixtisoslashgan banklarning soni deyarlik bir xil 25 va 21 tadan to'g'ri kelayapti.



Islom tijorat banklari asosan aholi bilan ishlagani uchun son jihatdan ko'pdir. Bundan tashqari tijorat banklriga bo'lgan talab ham naafaqat musulmonlarni balki musulmon bo'lmaganlarni ham hozirda qiziqtirib qo'ygan. Buning asosiy sababi, Islom bankchiligining barcha xizmatlari shariat qonun qoidalariga asosan ish tutushidadir va foyda va zararni ham bank ham mijoz teng taqsimlashidadir. Quyida islom bankida foydalaniladigan asosiy xizmatlarini keltirib o'taman.

1. Mudoraba – sherikchilikning o'ziga xos bir turi bo'lib, bunda bir tomon mablag' (sarmoya) beradi, ikkinchi taraf sherikchilik doirasidagi biznesni (ya'ni korxonaga yoki tadbirkorlik loyihasini) boshqaradi. Malbag' bergan «robbul mol» deyiladi (arabchadan mol/mulk/mablag' egasi yoki sarmoyador deb tarjima qilish mumkin), loyihani boshqaruvchi esa «mudorib» deyiladi.³
2. Mushoraka- “Mushorakar” atamasi “shirkat” o'zagidan olingan. “Shirkat” atamasi islom huquqshunosligida keng qo'llaniladi va uning ma'nosi ham “mushoraka”ga qaraganda kengroq.⁴ Mushoraka- bir va undan ortiq tomonlar foyda olish maqsadida birlashishi. Bunda foyda va zarar tomonlar kelishuviga qarab, ulush qo'shilganligiga qarab yoki shartnomada teng taqsimlanganligiga qarab bo'linadi.

³ <https://islommoliyasi.uz/uz/mudoraba-kirish/>

⁴ <https://islommoliyasi.uz/uz/mushoraka-tushunchasi/>

3. Ijara - bu ijaraga beruvchi (muajjir) jismoniy mulk yoki mulkni ijaraga oluvchiga (musta'jir) ijaraga beradigan shartnoma bo'lib, u mulkka egalik qilish bilan bog'liq imtiyozlarni oldindan belgilangan ijara haqini (ujra) to'lash evaziga ma'lum muddatga oladi. Bu muddat ijara davri deb ataladi.
4. Vadia-bir shaxs tomonidan islom bankiga pul mablag'lari yoki aktivlarini qo'yishga ishora qiladi. Ushbu kelishuvda omonatchi o'z mablag'larini yoki aktivlarini saqlash uchun bankka qo'yadi va ko'pgina shartnomalarda bank omonatchining mablag'larini xavfsiz saqlash uchun haq oladi.
5. Mudoraba – sherikchilikning o'ziga xos bir turi bo'lib, bunda bir tomon mablag' (sarmoya) beradi, ikkinchi taraf sherikchilik doirasidagi biznesni (ya'ni korxonani yoki tadbirkorlik loyihasini) boshqaradi. Malbag' bergan «robbul mol» deyiladi (arabchadan mol/mulk/mablag' egasi yoki sarmoyador deb tarjima qilish mumkin), loyihani boshqaruvchi esa «mudorib» deyiladi.

Islom banklari ko'rsatadigan xizmatlar turli xildir. Shu sababdan, eng rivojlangan islom banki misolida, uning tajribalari, xizmatlari, moliya bozoridagi o'rnini ko'rib chiqib, mamlakatimiz moliya bozoriga olib kirish yo'llarini sanab o'tamiz.

Eng rivojlangan islom banklari Yaqin Sharqda joylashgan bo'lib, quyidagi jadval orqali ko'rib chiqamiz.

1-jadval

	Bank nomi	Mamlakat	Kapital (million A.Q.Sh. dollarda)	Sof daromadi (million A.Q.Sh. dollarda)
1.	Al Rajhi Bank	Saudiya Arabiston	97.298	12.943
2.	Dubai Islamic Bank	BAA	60.899	8.566
3.	Kuwait Finance House	Quvayt	58.515	6.236
4.	Maybank Islamic	Malaysiya	54.459	2.534
5.	Qatar Islamic Bank	Qatar	42.088	5.334
6.	Abu Dhabi Islamic Bank	BAA	34.085	4.826
7.	Alinma Bank	Saudiya Arabiston	32.398	5.677

8.	Parsian Bank	Eran	31.024	394
9.	Masraf Al Rayan	Qatar	26.723	3.647
10.	Bank Rakyat	Malaysiya	25.846	4.322

Eng rivojlangan islom banklari reytingi.⁵

Saudiya Arabistoni. Birlashgan Araba Amirligi va Quvayt islom banklari ham kapital, ham sof daromadi bo'yicha kuchli 3 ta bankka ega mamlakatlar hisoblanib, Malayziya, Qatar, Eron mamlakatlaridagi banklar top 10 ta kapitali ko'p bo'lgan islom banklariga ega ekan. 97 milliard 298 million A.Q.Sh dollarlik kapitalga ega bo'lgan Al-Rajhi banki eng yirik banklardan hisoblanadi. Al-Rajhi banki umumiy ma'lumotlari va bank ko'rsatadigan xizmatlarini qisqacha yoritib bersam.

1957-yilda tashkil topilgan Al-Rajhi banki Yaqin Sharq va Saudiya Arabistonidagi eng yirik islom banki hisoblanib, umumiy aktivlari 710 mlrd SAR (Saudiya Arabistoni riyoli)ga va sihcilar soni 9 300 tadan ko'pdir. . Bank va savdo faoliyatida 60 yildan ortiq tajribaga ega bo'lgan Al rajhi nomidagi turli xil individual muassasalar 1978-yilda 'Al Rajhi trading and exchange corporation' birlashadi va 1988-yilda bank "Saudiya Arabistoni aksiyadorlik jamiyati" sifatida tashkil etildi. Keyinchalik esa, 2006-yilda "Al rajhi bank" deb nomlandi. Islomiy bank tamoyillariga chuqur ildiz otgan, shariatga mos keladigan bank guruhi, zamonaviy moliyaviy talablar va shariatning ichki qadriyatlarini o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi, shu bilan birga ko'plab sanoat standartlari va rivojlanishiga rahbarlik qiladi

Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida tashkil etilgan bazasi bilan Alrajhi bank 515 dan ortiq filiallari, 4 824 dan ortiq bankomatlari, savdogarlar bilan o'rnatilgan 547 507 POS-terminallari va 205 pul o'tkazma markazlaridan tashqari, Qirollikdagi istalgan bankning eng yirik mijozlar bazasiga egadir.⁶

Bank o'z missiyasini quyidagicha ta'riflaydi: Mahalliy va xalqaro miqyosda o'zining innovatsion xizmatlari, odamlari, texnologiyasi va shariatga muvofiq mahsulotlari bilan hayratga tushgan eng muvaffaqiyatli bank bo'lish. Al-Rajhi banki Direktorlar Kengashiga ega va Bank Direktorlar Kengashi har uch yilda bir marta Bosh Assambleya tomonidan saylanadigan a'zolar yig'indisini ifodalaydi. A'zolar Kapital bozori organining korporativ boshqaruv qoidalarida ko'rsatilgan ta'riflarga muvofiq tasniflanadi. Bundan tashqari Shariat guruhi mavjud bo'lib, Al Rajhi operatsiyalarining asosiy ustuni hisoblanadi. Guruh yetakchi Islom banki bo'lish maqsadini amalga

⁵ <https://money-gate.com/largest-islamic-banks-in-the-world/>

⁶ <https://www.alrajhibank.com.sa/About-alrajhi-bank>

oshirish uchun birgalikda ishlaydigan bir qator integratsiyalashgan bo‘limlardan iborat. Ushbu maqsadga barcha Al Rajhi bank operatsiyalari shariat qonunlari tamoyillariga mos kelishini ta'minlaydigan zarur rejalar va siyosatlarini kiritish orqali erishiladi.

Keeling ba'zi islom bank xizmatlarini ko'rib chiqsak.

Jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan asosiy xizmatlar va ularning tavrasi:

- Hassad hisob varag'i- bu mudorabaga asoslangan omonat hisobvarag'idir. Bu islom shariati qoidalariga mos keladi, bunda bank mijozga ushbu hisobvaraقدan pul yechib olish va omonatga qo'yish hamda boshqa bank xizmatlarini ko'rsatish shartlari va shartlariga muvofiq amalga oshirishda moslashuvchanlik imkonini beradi. Avzalliklari shundaki, hisobvaraقد Al Rajhi bank ilovasi orqali ochiladi, hisobvaraقدni ochish va yopish to'lovlari yo'q, har oy dividendlar shariat qonun qoidalariga mos ravishda taqsimlanadi. Kutilayotgan foyda stavkasi quyidagicha: 10 000 SAR- 299 999 SAR oralig'idagi pul mablag'lari uchun yiliga 2.40%, 300 000 SAR- 999 999 SAR oralig'idagi pul mablag'lari uchun yiliga 2.75%, 1 000 000 SAR va undan yuqori pul mablag'lari uchun yiliga 3.00%. Yillik ekvivalent stavka yuqoridagi misollardagi turli vaqt davrlariga qarab farq qilishi mumkin va qaytishi qat'iy emas va o'zgarishi mumkin. Bu haqda bankning elektron kanallari orqali mijozlarga vaqti-vaqti bilan e'lon qilinadi.,
- Kelajakdagi hisob varag'i- islom shariatiga muvofiq jamg'arma rejasi bo'lib, mijozning joriy hisobvarag'idan avtomatik ravishda oylik summani o'rnatadi va tizim jamg'arma muddatidan kelib chiqib kutilayotgan foydani hisoblab chiqadi. Al Rajhi bank ilovasi orqali ochilib, avtomatik tarzda necha summa qaysi vaqtgacha ochilishi belgilanadi. Shu orqali oylik va yillik qo'shib boriladigan pul hisoblab chiqiladi. Ilova orqali ochilgan hisob varaقدga mukofaa, ya'ni mukofot beriladi 1000 ball. Bu ballarning yig'indisini ma'lum bir xizmat uchun ishlatilinsa bo'ladi. Masalan, 12 oy uchun hisob varaقد ochilsa, oyiga 1 500 SAR ni avtomatik tarzda mizoning hisobidan yechilad va yillik ekvivalent stavkasi 2.03% dan bo'ladi. Kutilayotgan foyda oxirgi muddatta 197 SAR gat eng bo'ladi. Yillik ekvivalent stavka fikserlanmagan bo'lib, o'zgarishi ham mumkin. O'zgarishlar bankning saytida ko'rsatiladi.
- Mukofaa ballari- bank xizmatlari va maxsulotlarini sotib olishdan beriladigan ballar hisoblanadi. mukofaa ballari orqali mijoz bankning hamkor kompaniyalarining tovar va xizmatlarni foydalanishi mumkin. Restoran,

dorixona, sayohatlar, haridlar, mehmonxonalar va ko'plab vaucherlar orqali mukofaa ballarini ishlatsa bo'ladi.

- Avtomobil lizingi-mijozlarga avtomobillarni shariat asosida kizing asosida sotib olish imkonini beradi. Birlamchi va ikkilamchi bozordagi mashinalarni xarid qilsa bo'ladi. Lizing obyektini boshqa mijozga o'tkazish mumkin. Al Rajhi ilovasi orqali avtomobil olishni rejalashtirgan mijozlarga 50 000 mukofaa bali ham beriladi. Agar mijoz vafot etsa yoki nogiron bo'lib qolsa, lizing to'lashdan ozod etiladi. Agar mijoz maoshidan to'g'ridan to'g'ri lizing to'lovini otkazsa lizingga beriladigan summasi nisbatan kam bo'ladi. Chunki, maoshidan to'g'ridan to'g'ri pul o'tkazadigan mijozlarning yillik stavkasi 7.04% bo'lsa, maoshdan o'tkazmaydigan mijozlar uchun foiz 7.97%. Daromadi 1 900 SAR dan boshlanishi lozim va bank o'z xizmatini 1 oy ichida ko'rsatadi.
- Takafful (sug'urta)- takaffulning omonat va himoy dasturi o'z mablag'larini omonatta saqlash va investitsiya qilish chuniladi. Oyiga 300 SAR dan boshlanadigan takafful sug'urtasi uzoq muddatli investitsiya hisoblanadi va agar mijoz vafost etsa yoki nogironlik holatiga tushib qolsa, kompaniya kelishilga himoya miqdorini yoki investitsiya miqdorini to'laydi. Mijoz vafot etsa, shariat qonun qoidalariga asosan uning merosxo'rlari kompaniyadan badal oladi. Kamida 10 yil muddatga shartnoma kelishiladi.

Yuqorida keltirilgan xizmatlardan tashqari bank mijozlarga tadbirkorlikni rivojlantirish uchun islomiy moliya shartnomasi tuzadi, tadbirkorlar uchun alohida takafful shartnomalarni taklif qiladi va savdo jarayonida halol kompaniyalar va mijozlar o'rtasida brokerlik xizmatlarini ham olib boradi. Bundan tashqari Al Rajhi bankining boshqa davlatlarda ham filiallari mavjud. Masalan, Al Rajhi Iordaniya, Al Rajhi Quvayt, Al Rajhi Malayziya, Tahweel Al Rajhi. Har bir mamlakatdagi bank o'z mamlakatining qonun qoidalariga va iqtisodiga asosan islomiy bank xizmatlarini taklif qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi bank sektoriga islomiy moliyalashtirish infratuzilmasini rivojlantirish doirasida Xususiy Sektorni Rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasining maslahat yordamini jalb qilish belgilangan. Qolaversa, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-maydagi "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi bilan hamkorlikni yanada kengaytirish masalalariga urg'u berilgan.

Yuqoridagi qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida 2019-yil 22-avgust kuni "Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki va Xususiy Sektorni Rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasi (ICD) o'rtasida "Maslahat yordami to'g'risida"gi shartnoma imzolandi. Unga ko'ra, bank tizimiga "Islom darchasi" xizmatlarini joriy etish rejalashtirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, hamkorlik va shariat shartlari asosida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishga xizmat qiladi.

2023-yil 10-yanvar kuni "Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki sho'ba lizing kompaniyasi – "Trast Muamalat" mas'uliyati cheklangan jamiyatining ochildi. "Trast Muamalat" MChJning asosiy vazifasi amaldagi qonunchilik doirasida samarali "Murabaha (Nasiya savdo)" va "Ijara (Lizing)" operatsiyalarini amalga oshirish orqali moliyaviy xizmatlarni kengaytirish strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, xalqaro islom moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirishdan iborat.⁷

16 mart, 2023 yil 3-MDH Islom bankchligi va moliyasi forumi Toshkent shahrida Hyatt Regency mehmonxonasida bo'lib o'tdi. Ushbu forumning asosiy vazifasi "MDH hududi- Islom moliyaviy tizimini qurish va rivojlantirish uchun yangi va istiqbolli manzil" shiori ostida Islom moliyasi tarmog'i tarkibidagi tashkilotlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, kuchaytirish va birlashtirishdir. Shu bilan birgalikda, MDH davlatlarida Islom moliya tizimi istiqbollari va imkoniyatlari, Islomiy moliyaviy texnologiyalar, Sukuk, Takaful va Islom kapital bozori tarmoqlari rivojlanish tendensiyalari bo'yicha ushbu sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan taniqli tashkilotlarning nufuzli va ilg'or mutaxassislari ko'magida munozaralar o'tkazish va shu tariqa forum ishtirokchilarini Islom moliya tizimi bo'yicha moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish va qamrab olish – ushbu forumni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad hisoblanadi.

Forumda Sarakshi Islom moliyasi xalqaro tadqiqot akademiyasi va "Nahda Islamic Finance" xalqaro biznes assotsiatsiyasi delegatlari, Islom moliya muassasalari uchun buxgalteriya va auditorlik tashkiloti (AAOIFI), MChJ MK "M. Bulak" (Qirg'iziston), Qozog'iston Respublikasi Milliy (Markaziy) banki, YAJ MDT "Humo" (Tojikiston), "Iman Halal Investments" MChJ (O'zbekiston), "Avati Consulting Solutions" MChJ (Hindiston), "Alif Moliya" MChJ (O'zbekiston), "Alif Bank" OAJ (Tojikiston),

⁷ <https://islommoliyasi.uz/uz/6562-2/>

“Centil” yuridik firmasi (O‘zbekiston), “BankWaqf International” (Malayziya), IFAAS (Islom moliyasi bo‘yicha konsalting xizmatlari), INCEIF universiteti (Malayziya), ATB “Hamkorbank” (O‘zbekiston), “Hamkor Sug‘urta” AJ SK (O‘zbekiston), “Apex Life Insurance” AJ SK (O‘zbekiston), “Uzagrosug‘urta” AJ SK (O‘zbekiston), Ansar Moliya va Taraqqiyot Korporatsiyas (AFDC) (Shimoliy Amerika), “Aman for Microfinance” kompaniyasi (Misr) va 15 dan ortiq mamlakatlardan kelgan boshqa ko‘plab delegatlar ishtirok etishdi. Forum sessiyalari davomida moliyaviy inklyuzivlik, moliyaviy texnologiyalar, Sukuk, Islom moliyasini rivojlantirishda Shariat tuzilmasi, Takaful, shu bilan birga islom kapital bozorlarining barqaror rivojlanish masalalari keng nuqtai nazardan muhokama qilindi. Yakunda soha ishtirokchilarini rag‘batlantirish va e‘tirof etish hamda MDH mamlakatlarida ushbu sohaning kelgusidagi taraqqiyotini qo‘llab-quvvatlash maqsadida taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.⁸

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda islom bankchiligini rivojlantirish bir qancha iqtisodiy ijobiy ko‘rsatkichlarni beradi. Islom moliyasiga asoslangan bank ochilsa, avvalo, aholi uchun yangi ish o‘rinlari ochilishidan darak beradi, yangi bozorga ya‘ni islomiy moliya bozoriga kirish tezlashadi, aholining deyarlik 95% islom diniga e‘tiqod qilganligi sababli islom banklariga bo‘lgan talab oshib boraveradi va shu kabi ko‘plab ijobiy tomonlari mavjud. Shularni hisobga olgan holda islom banklarini ochish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlanishi uni hayotga tadbiiq iqlinishi taklif qilib beriladi. Chunki, hali yangi bo‘lgan bu islom bankchiligi kelajakda rivojlanish ehtimoli katta hisoblanadi.

Xulosa

Mamlakatimizda islom bankchiligini rivojlantirish uchun ma‘lum bir takliflar beriladigan bo‘lsa, avvalo, islom moliyasining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri haqida to‘xtalib o‘tamiz.

1. Yangi ish o‘rinlari paydo bo‘lishi bilan ishsizlik darajasini pasayishi va aholining turmush darajasi ko‘tarilishi mumkin. Islom moliya kompaniyalari, banklari ochilishi bilan. albatta, u yerda ishlaydigan mutaxassislariga bo‘lgan extiyoj oshadi. Bu esa, yangi ish o‘rinlari degani. 36 mln aholisiga ega bo‘lgan davlat o‘z aholisini himoya qilish uchun ham yangi sohani olib kirishi va rivojlantirishi

⁸ <https://islommoliyasi.uz/uz/alhuda-cis3/>

davlatning maqsadlaridan biri hisoblanadi. O'z ishiga ega bo'lgan mamlakatning ma'lum bir qatlami yashash darajasi o'rtadan yuqori bo'ladi albatta.

2. Aholining 95% i islom diniga e'tiqod qilayotganligi e'tiborga olsak, an'anaviy banklardagi xizmatlar e'tiqodlariga ziddir. Aynan shu sabab ham, aholi o'z qo'lidagi bo'sh pul mablag'larini halol yo'l bilan to'g'ri investitsiya qilishga harakat qiladi. Ammo, islom moliya darchalari va kompaniyalari kam bo'lganligi sababdan ularning qo'lida bo'sh pul mablag'lari ko'p qolib ketadi va bu o'z-o'zidan inflatsiya darajasining oshishiga ta'sir qiladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda islom bankchiligini rivojlantirish uchun takliflarni bersam:

1. Islom bankchiligi mamlakat iqtisodiyotida real raqobatni kuchayishiga olib keladi. Islom bank xizmatlari shariat asosida bo'lganligi uchun va musulmon bo'lganlarning e'tiqodiga zid bo'lmaganligi uchun aholisining 95% i musulmon bo'lgan mamlakatimizning islom bankiga bo'lgan talabi alabatta oshadi. Buning uchun albatta islom moliyasiga zid bo'lmagan qonuniy hujjatlar ishlab chiqilishi lozim. Qonuniy huquqiy asosi bo'lmagan faoliyatta ko'pgina chunmovchiliklar yuzaga kelib, ish sifatini pasaytirishi mumkin.
2. Aholini islom moliya instrumentlaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish maqsadida, dastlabki bosqichda islom moliya darchalarini ochish tavsifiya qilinadi. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, hamda ularni islom moliya instrumentlari qanday ishlashini o'rgatish maqsadida islom moliya darchalari ochilsa, ma'lum bir vaqt o'tib, aholining qo'lga daomad kela boshlaganida bu sohaga bo'lgan talab oshadi. Bundan tashqari, katta kompaniya yoki bank ochilishida albatta katta ustav kapitaliga ega bo'lishi kerak. Bu esa, islom moliyasi deyarlik yo'q bo'lgan joyda ochilayotgan islom moliya kompaniyasiga katta risk hisoblanadi. Shu sababdan ham, islom moliya darchalari ochilishi tavsifiya qilinadi.
3. Islom moliyasi to'g'risida yosh avlodga to'g'ri va to'liq ma'lumot yetkazish, ularni ham diniy ham moliyaviy savodxonligini oshiradi va bu yangi soha uchun yangi kadr deganidir. Islom moliyasi hali yosh bo'lishiga qaramay, dunyoda tez rivojlanishi va stabillik darajasi bilan hammani qiziqtirib kelmoqda. Bu sohada ishlayotgan, malaka oshirayotgan, o'qiyotgan va ilmiy tadqiqot olib borayotgan insonlar nafaqat o'ziga yoki mamlkatiga balki umumiy iqtisodiyotga ham o'z

ta'siririni ko'rsatadi. Yosh olimlar berayotgan taklifi, tavfsiyalar orqali islom moliyasini to'g'ri qo'llash undagi kamchiliklarni to'ldirish orqali islom moliya sohasida o'z izini qoldirishi mumkin. Bu esa, mamlakatdagi aholining savodxonlik darajasi yuqori bo'lishiga va yangi kadr, yangi sohada yetilib chiqishidan darak beradi. Demak, islom moliyasi sohasini ilmiy darajada rivojlantirish tavfsiya qilinadi.

O‘ZBEK JADIDCHILARINING JAMIYATGA QO‘SHGAN HISSASI**Mengboyev Lazizbek****Shoyimova Komila**

Termiz iqtisodiy va servis universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek jadidchiligi harakatining jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi tahlil qilingan. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ma‘rifat, ilm, taraqqiyot va milliy uyg‘onish g‘oyalari o‘zbek xalqining siyosiy, madaniy va ma‘naviy hayotida chuqur o‘zgarishlar yasaganligi yoritib berilgan. Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadidlarning faoliyati, ularning ta‘lim, matbuot, adabiyot va ijtimoiy hayotdagi o‘rni tahliliy yondashuv asosida ochib beriladi. Shuningdek, jadidlarning ayollar ta‘limiga e‘tibori, milliy matbuotni rivojlantirishdagi xizmatlari hamda mustaqil fikrlovchi, ma‘rifatli yosh avlodni tarbiyalash borasidagi sa‘y-harakatlari yoritilgan. Tadqiqotda jadidchilik harakati o‘zbek milliy uyg‘onishining poydevori sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, ma‘rifat, milliy uyg‘onish, yangi usul maktablari, matbuot, adabiyot, taraqqiyot, Fitrat, Behbudiy, Avloniy, Cho‘lpon

Kirish

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi tarixida yangi, murakkab, ammo muhim davr boshlandi. Bu davrda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi kuchayib, xalq siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy jihatdan qaram holatga tushib qolgan edi. Jamiyatda savodsizlik, qoloqlik, eskicha fikrlash keng tarqalgan, ta‘lim tizimi zamon talablariga javob bermas edi.

Bunday og‘ir sharoitda millat kelajagini o‘ylagan fidoyi ziyolilar – jadidlar maydonga chiqdi. Ular xalqni jaholat va zulmatdan qutqarishning yagona yo‘li ilm, ma‘rifat va tafakkur yangilanishi ekanini chuqur angladilar. Jadidchilik harakati xalqni uyg‘otish, milliy o‘zlikni anglash va taraqqiyot sari yo‘naltirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Jadidlar millat ravnaqi uchun o‘qish, yozish, fikrlash, zamonaviy fanlarni egallash, milliy qadriyatlarni asrash kabi g‘oyalarni ilgari surdilar. Ularning “ma’rifat orqali ozodlikka” shiori xalq ongida yangi davrni boshlab berdi. Shunday qilib, jadidchilik harakati o‘zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotida milliy uyg‘onish davrini boshlab bergan ulkan ma’naviy kuch sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirdi.

Jadidchilik harakatining mohiyati va asosiy g‘oyalari “Jadid” so‘zi arabcha “yangi” ma’nosini bildiradi. Jadidchilik esa yangilanish, islohot, tafakkur o‘zgarishi degan tushunchalarni o‘zida mujassam etadi. Bu harakat musulmon dunyosida, xususan, Ismoilbek G‘aspirinskiy rahnamoligida shakllangan ma’rifatparvarlik oqimining davomchisi edi. U ilgari surgan “Usuli jadid” – yangi usulda o‘qitish tizimi Turkiston jadidlarining asosiy mafkuraviy tayanchiga aylandi.

Jadidlar quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat yuritdilar:

1. Ta’lim sohasida islohotlar – yangi usul maktablarini ochish, o‘quv dasturlarini yangilash;
2. Matbuot rivoji – gazeta va jurnallar orqali xalqni yangicha fikrlashga o‘rgatish;
3. Adabiyot va san’at – drama, she’riyat va publitsistika orqali milliy g‘urur va ozodlik g‘oyalarini targ‘ib qilish;
4. Ayollar ta’limi – xotin-qizlarni ilm olishga undash, ularning jamiyatdagi o‘rnini oshirish;
5. Milliy uyg‘onish va siyosiy mustaqillik – millatni erkinlik va taraqqiyot sari yetaklash.

Ularning barcha faoliyati yagona maqsad – ma’rifatli, erkin va taraqqiy etgan millatni shakllantirishga qaratilgan edi.

Ta’lim sohasidagi islohotlar

Jadidchilik harakatining eng asosiy yutug‘i ta’lim tizimida amalga oshirilgan yangilanishlar bilan bog‘liq. Eski usuldagi maktablarda yodlab o‘qitish, arabcha matnlarni tushunmasdan o‘rganish odat tusiga kirgan edi. Jadidlar esa bu holatni tanqid qilib, o‘quv jarayoniga yangi fanlarni kiritdilar.

Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi ma’rifatparvarlar yangi usul maktablarini ochdilar. Bu maktablarda o‘quvchilarga

o‘qish, yozish, hisob, geografiya, tarix, tabiiyot kabi fanlardan saboq berildi. Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday yozadi:

“Ilm insonga yo‘l ko‘rsatuvchi chiroqdir. Ma‘rifatsiz millat hech qachon ozod bo‘lolmaydi.”

Bu so‘zlar jadidlarning maqsadini to‘liq ifodalaydi. Ularning sa‘y-harakatlari tufayli o‘zbek maktablari o‘zgarib, yangi avlod – zamonaviy bilimli, milliy g‘ururga ega yoshlar yetishib chiqdi.

Matbuot va adabiyotdagi faoliyat

Jadidlar matbuotni xalq ongini o‘zgartiruvchi eng kuchli vosita deb bildilar. 1906–1917-yillar oralig‘ida Turkistonda “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Sadoi Turkiston”, “Hurriyat” kabi gazetalar chiqdi. Ular sahifalarida xalqni ilmga, erkinlikka, milliy birdamlikka da‘vat etuvchi maqolalar bosildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Padarkush” dramasi orqali jaholatning fojiali oqibatlarini ko‘rsatdi. Cho‘lpon, Fitrat, Avloniy kabi yozuvchilar millat ozodligi, til, vatan va ma‘naviyat mavzularini o‘z asarlarining markaziga qo‘ydilar. Fitratning “Hind sayyohi” asarida o‘zbek xalqining uyg‘onishi g‘oyasi ilgari suriladi. Cho‘lpon esa “Kecha va kunduz” romanida erkinlik, insonparvarlik, milliy g‘urur tuyg‘ularini kuylaydi.

Jadid adabiyoti xalq tafakkurida yangi bosqichni boshlab berdi. U nafaqat badiiy, balki siyosiy-ijtimoiy harakat sifatida millatni uyg‘otishga xizmat qildi.

Ijtimoiy-siyosiy faoliyat va milliy uyg‘onish

Jadidlar ta‘lim va matbuot bilan birga jamiyat hayotining turli jabhalarida faol bo‘ldilar. Ular teatr truppalari tuzib, sahna orqali xalq ongiga ta‘sir etdilar. Behbudiy, Fitrat, Avloniyning asarlari teatrda qo‘yilib, xalqni yangi g‘oyalar bilan tanishtirdi. Jadidlarning siyosiy qarashlari ham tobora kengayib bordi. Ular Turkistonning mustaqil boshqaruvini, xalq vakillaridan iborat davlat tuzilishini orzu qildilar. Bu g‘oyalar keyinchalik “Turkiston Muxtoriyati” harakatiga zamin yaratdi

Ayollar masalasi: Jadidlar o‘z davrining eng ilg‘or g‘oyalaridan birini ilgari surdilar — bu ayollarni ta‘lim olishga jalb etish edi.

Ularning fikricha, “Millat taraqqiyoti onalarning ma‘rifatli bo‘lishiga bog‘liq”. Shu sababdan jadid maktablarida qizlar uchun alohida sinflar ochildi, ayollar o‘rtasida savodxonlikni oshirish ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Xulosa

O‘zbek jadidchilari xalqni jaholatdan ma’rifat sari olib chiqqan, milliy uyg‘onishning asoschilaridir. Ularning sa’y-harakatlari tufayli yangi avlod shakllandi, milliy matbuot, adabiyot, teatr, zamonaviy maktablar paydo bo‘ldi. Jadidlar faoliyati milliy istiqlol g‘oyalarining shakllanishiga zamin yaratdi. Bugungi kunda ham jadidlar merosi – bizni ilmga, tafakkurga va ma’naviy yuksalishga da’vat etuvchi muhim tarixiy saboqdir. Bugungi kunda mustaqil O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lida aynan jadidlar ilgari surgan tamoyillar – ilm, tafakkur, ma’rifat, milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni qadrlash kabi g‘oyalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Jadidlar boshlab bergan ma’naviy uyg‘onish bugungi kunda yosh avlod tarbiyasi, ta’lim tizimi, adabiyot va madaniyat siyosatida o‘z ifodasini topmoqda. Shu bois jadidlar faoliyatini o‘rganish, ularning merosini chuqur tahlil qilish – bu faqat tarixiy vazifa emas, balki bugungi va kelajak avlod uchun ham muhim ma’naviy ehtiyojdir. Ularning hayoti va ijodi bizga shuni o‘rgatadiki, millatning yuksalishi – faqat ma’rifat, birlik va vatanparvarlik orqali amalga oshadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma’naviyat, 1992.
2. Behbudiy, M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994.
3. Fitrat, A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: Yozuvchi, 1991.
4. Cho‘lpon, A. Asarlar. 3 jildlik. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Qosimov, B. Jadidchilik: ijtimoiy-siyosiy va adabiy harakat sifatida. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003.
6. Usmonov, Q. XX asr boshidagi o‘zbek matbuoti. – Toshkent: Fan, 2001.
7. Ziyoyev, H. O‘zbek jadidchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000.
8. Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

THE IMPACT OF ROLE PLAY ON THE DEVELOPMENT OF SOFT SKILLS AMONG YOUNG ENGLISH LEARNERS

Esanova Jayrona Boysoatovna

4 course student at Termez State Pedagogical Institute

Email: esanovajayrona@gmail.com

Khaitova Gulhayo Tovasharovna – Teacher at TerSPI

ABSTRACT: This paper explores how role-playing activities help children develop soft skills while learning to speak English. The study analyzes data from previous research involving young learners aged eight to ten in elementary schools. The role play used is simple and age-appropriate, allowing children to act out scenarios without fixed dialogues, relying instead on their creativity and understanding. The findings show that role play enhances communication, problem-solving, analytical thinking, decision-making, and self-confidence in speaking English as a second language. These improvements occur because children interact naturally during role play, learn from their own speaking experiences, and become more fluent and expressive than when learning only from textbooks. Moreover, engaging in realistic situations helps them think logically, make decisions, and use language meaningfully.

KEYWORDS: role play, young learner, soft skill development, speaking skills.

INTRODUCTION

Speaking is one of the most fundamental language skills, including in English, as it is also the first ability humans develop as infants. By the age of eight to ten, children have already acquired the basic components of language. During this stage, their reading, listening, and speaking skills evolve as they begin to understand abstract ideas and language systems (Tovasharovna, X.G.2025). This process also applies to learning English as a second language (Scott & Ytreberg, 1990).

In Indonesia, English is one of the most in-demand foreign languages and is included in the national education curriculum. Many families encourage their children to learn

English as a second language, recognizing its importance in modern society. Consequently, teachers specializing in English for Young Learners (EYL) are needed. These teachers apply specific methods suited to children's ways of learning, which differ from adults. As part of current language pedagogy (Hall, 2016), various teaching methods are used according to students' needs, one of which is role play as a tool for developing young learners' English-speaking skills.

When children begin learning English, they need to receive sufficient language input before they can produce it themselves (Scott & Ytreberg, 1990). Teachers usually model spoken English, and students repeat and practice it. Therefore, teaching speaking is essential in early stages. However, learning becomes less effective if students remain passive or unmotivated. In this regard, fostering soft skills can enhance engagement and learning outcomes. Soft skills positively influence achievement motivation and learning performance (Junita, Suarman, & Kartikowati, 2018). Since children's soft skills are still developing, teachers should integrate soft-skill training into their lessons.

Role play can serve this purpose effectively. It not only supports language learning but also helps build communication, decision-making, enthusiasm, monitoring, and problem-solving skills. Role play involves students acting out different characters or situations without fixed dialogues, allowing creativity and imagination. Unlike drama, which follows scripted texts and set directions (Cremin & McDonald, 2013), role play provides freedom for learners to express themselves through improvised interactions.

For young learners, learning should be enjoyable and playful. Games and interactive activities stimulate their senses and encourage participation. Play is essential to children's cognitive and social development; without it, their emotional growth and prosocial behavior may be hindered (Choudary, 2013). Research also shows that play-based activities are among the most effective tools for developing soft skills (Yogman et al., 2018). Hence, role play serves as a valuable method for teaching English while simultaneously fostering children's soft skills.

In conclusion, this paper explores the benefits of using role play in teaching English speaking to young learners aged eight to ten. Although previous studies have discussed role play as a teaching strategy (Mavlonova, Abulova, & Kodirov, 2020; Akmal, 2018; Suryani, 2015; Inawati, 2014; Liu & Ding, 2009; Huang & Shan, 2008), few have focused specifically on its role in developing soft skills. Therefore, this study

investigates what types of soft skills can be developed and how they emerge through role-playing activities in young learners' English-speaking lessons.

METHOD

This study employs a qualitative research method to explore how and what types of soft skills can be developed through role-playing activities in teaching children's English-speaking skills (Khaltova Gulhayo Tovasharovna 2025). It also aims to contribute to a deeper understanding of how role play can be effectively used in language learning. A problem-solving discussion approach was applied to address the research focus, supported by logical explanations of how role play stimulates the development of soft skills that enhance language learning. The analysis involved cross-checking and reviewing data from various related studies, which were then compared and evaluated to strengthen the findings.

The role-play activities used in this study were simple and appropriate for children aged eight to eleven. These involved acting out characters or situations without complex backgrounds or dialogues, allowing learners to imitate behavior and express creativity naturally.

Fostering Communication Skill

Many soft skills can be developed through role play while learning English as a second language. It is an effective and engaging method presented in the form of a simple game, though its impact is complex. While students often acquire language through textbooks, role play allows them to apply language in meaningful contexts. Since there are natural gaps between a learner's first and second languages—such as intercultural differences, pronunciation challenges, and linguistic variations—role play helps them use English as a communication tool rather than in a rigid or mechanical way. Therefore, one of the first soft skills enhanced through role play is children's **communication ability**.

ham o‘simlikni kasallikka chidamli qiladi. **Zararkunandalar**, xususan **qovun bittasi (Aphis gossypii)**, **tripslar (Thrips tabaci)** va **paxtakor kapalak (Spodoptera exigua)** kabi hasharotlar o‘simlikning o‘shini susaytiradi va hosil sifatiga jiddiy zarar yetkazadi. Ularning oldini olishda “Aktara”, “Karate Zeon”, “Decis” kabi insektisidlar qo‘llaniladi. Ushbu preparatlar hasharotlarning asab tizimiga ta’sir etib, ularni qisqa muddatda yo‘q qiladi. Ayniqsa, **vegetatsiya davrida erta bosqichda ishlov berish** zararkunandalar populyatsiyasini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Preparatlar har doim **me’yoriy dozalarda, tavsiya etilgan interval va texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda** qo‘llanishi kerak. Haddan tashqari miqdorda ishlatish o‘simlikka toksik ta’sir ko‘rsatishi, tuproq mikroflorasini buzishi hamda atrof-muhit ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun kimyoviy kurash usullarini agrotexnik va biologik chora-tadbirlar bilan uyg‘unlashtirib olib borish eng maqbul natijani beradi.

Kasallik / Zararkunanda nomi	Belgilar	Kurash usuli
Fuzarioz	Ildiz qotib, barg so‘lishi kuzatiladi	Fundazol, Topsin-M bilan ishlov berish
Antraknoz	Bargda qora dog‘lar va qurish o‘choqlari	Skor, Ridomil Gold fungitsidlari
Qovun bittasi (Aphis gossypii)	Barglar qiyshayib, sarg‘ayadi	Aktara, Karate Zeon insektisidlari

Xulosa

“Rohat” qovun navi o‘zining yuqori hosildorligi, ajoyib ta’mi, shirinligi va saqlanishga chidamliligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ushbu navni samarali yetishtirish jarayonida **fitosanitar holatni doimiy nazorat qilish** muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kasalliklar va zararkunandalar o‘simlikning o‘sh bosqichlarida jiddiy zarar yetkazib, nafaqat hosil miqdorini, balki sifat ko‘rsatkichlarini ham pasaytiradi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, **fuzarioz, antraknoz va un tumoq zamburug‘i** kabi kasalliklar, shuningdek, **qovun bittasi, tripslar va paxtakor kapalak** singari zararkunandalar “Rohat” navining o‘sh dinamikasiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bu tahdidlarni bartaraf etishda **kompleks yondashuv** —

agrotexnik, biologik va kimyoviy usullarni uyg'unlashtirib qo'llash eng maqbul natijani beradi. Agrotexnik tadbirlar, jumladan, navbatlab ekish tizimi, sog'lom urug'lardan foydalanish, ortiqcha sug'orishdan saqlanish va yer qoldiqlarini tozalash orqali **kasalliklarning tarqalish manbasi kamaytiriladi**. Biologik usullar — *Trichodermin*, *Gaupsin*, *Boveriya* kabi biopreparatlar hamda foydali entomofag hasharotlardan foydalanish esa **atmosfera va tuproq muvozanatini saqlab, ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi**. Kimyoviy vositalar esa zarur hollarda, ayniqsa kasallikning yuqori bosqichida, tezkor va samarali himoya chorasi sifatida xizmat qiladi. Natijada, "Rohat" qovun navini yetishtirishda mazkur kompleks yondashuv **hosil sifatini oshirish, eksport salohiyatini mustahkamlash va ekologik barqarorlikni ta'minlashga** xizmat qiladi. Shunday qilib, ilmiy asoslangan himoya tizimlarini joriy etish orqali nafaqat iqtisodiy foyda, balki ekologik va agronomik barqarorlikka ham erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tavsiyalari. – Toshkent, 2024 yil.
2. Mirzaev M.Sh. va boshqalar. Poliz ekinlarini himoya qilish. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2020 yil.
3. Xidirov A. Qovun navlarining agrotexnikasi. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2023 yil.
4. Abdullayev B., Usmonov R. O'zbekistonda poliz ekinlarining biologik xususiyatlari va ularni yetishtirish texnologiyasi. – Toshkent: "Mehnat", 2022 yil.
5. Dzhuraev Sh., Karimov A. Melon production and pest management in arid regions of Uzbekistan. // Journal of Agricultural Science and Technology, 2021, Vol. 9, No. 2, pp. 45–53. DOI: 10.1016/j.jast.2021.02.005
6. FAO (Food and Agriculture Organization). Integrated Pest Management Guidelines for Cucurbit Crops. – Rome, 2020.
7. Abdurahmanov K. Fitosanitar xavfsizlik va biologik himoya tizimlari. – Toshkent: "Innovatsiya Press", 2021 yil.
8. Kamilov Sh. O'zbekiston sharoitida qovun yetishtirishda agrotexnik tadbirlar samaradorligi. // Agroilm, 2023, №2, bet. 55–63.
9. Smith J., Zhang L., & Alimov B. Comparative study on melon (*Cucumis melo* L.) varieties under Central Asian climatic conditions. // International Journal of

Horticultural Science, 2022, Vol. 18(4), pp. 210–219. DOI:
10.1016/ijhs.2022.04.007

10.Rasulov N., Sharipova M. Biologik preparatlar asosida poliz ekinlarini himoya qilish texnologiyalari. – Toshkent: “Fan”, 2023 yil.

OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA OTA-ONALAR ROLI.

Tursunova Saida Isakovna

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim matematika
kafedrası Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent v.b.

Choriyeva Shohista Chorshanbiyevna, Rahmonova Ozoda Rahmatovna

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabalari

Anatatsiya: Mazkur maqolada bolalar og‘zaki nutqining rivojlanishida ota-onalarning o‘rni va ahamiyati tahlil etiladi. Bola nutqi ilk navbatda oilaviy muloqot orqali shakllanishi, bu jarayonda ota-onalarning to‘g‘ri nutqi, mehri muomalasi va faol ishtiroki hal qiluvchi rol o‘ynashi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada nutqiy muhit yaratish, kitob o‘qish, so‘z o‘yinlari va ijobiy rag‘batlantirishning bola nutqiga ta’siri haqida tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: og‘zaki nutq, bola nutqi, ota-onalar roli, muloqot, til rivoji, nutqiy muhit, pedagogik tarbiya.

РОЛЬ РОДИТЕЛЕЙ В РАЗВИТИИ УСТНОЙ РЕЧИ.

Термезский государственный педагогический институт Кафедра математики в начальном образовании Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
и.о. доцента **Турсунова Саида Исаковна**

Учащиеся начальных классов - **Чориева Шохиста Чоршанбиевна, Рахмонова
Озода Рахматовна.**

Аннотация: В статье анализируется роль и значение родителей в развитии устной речи детей. Научно, теоретически и практически обосновано, что речь ребёнка формируется, прежде всего, через семейное общение, и что правильная речь, ласковое обращение и активное участие родителей играют в этом процессе решающую роль. В статье также даны рекомендации по влиянию создания речевой среды, чтения книг, словесных игр и позитивной стимуляции на речь ребёнка.

Ключевые слова: устная речь, речь ребёнка, роль родителей, общение, развитие речи, речевая среда, педагогическое образование.

THE ROLE OF PARENTS IN THE DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH.

Termez State Pedagogical Institute Department of Mathematics in Primary Education Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,
Acting Associate Professor **Tursunova Saida Isakovna**
4th-year students of the primary education department **Choriyeva Shohista Chorshanbiyevna, Rakhmonova Ozoda Rahmatovna.**

Abstract: This article analyzes the role and importance of parents in the development of children's oral speech. It is scientifically, theoretically and practically substantiated that a child's speech is formed primarily through family communication, and that the correct speech, affectionate treatment and active participation of parents play a decisive role in this process. The article also provides recommendations on the impact of creating a speech environment, reading books, word games and positive stimulation on a child's speech.

Keywords: oral speech, child's speech, role of parents, communication, language development, speech environment, pedagogical education.

Kirish. Bola nutqi uning fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi va ijtimoiy hayotga moslashuvi bilan chambarchas bog'liq. Inson ilk bor tilni oilada, ya'ni eng yaqin kishilari - ota-onalari bilan muloqot jarayonida o'rganadi. Shu sababli og'zaki nutqni rivojlantirishda ota-onalarning o'rni beqiyosdir. Bola qanchalik erta va to'g'ri nutqiy muhitda ulg'aysa, uning fikrlash, o'qish va o'rganish salohiyati shunchalik yuqori bo'ladi.

Asosiy qism:

1. Ota-onalar tomonidan nutqiy muhit yaratish.

Bolaning nutqi tabiiy muloqot jarayonida rivojlanadi. Oilada ota-onalar tomonidan yaratilgan nutqiy muhit - bolaning tili, talaffuzi va so'z boyligining shakllanishida hal qiluvchi omildir. Bola bilan tez-tez suhbatlashish, kundalik hayotdagi har bir voqeani so'z bilan izohlash, predmet va harakatlarni nomlab berish uning nutqini boyitadi. Masalan, "Bu olma, u qizil", "Keling, nonushta qilamiz", kabi gaplar bola nutqiy rivoji uchun tabiiy dars vazifasini bajaradi.

2. Muloqot va tinglash madaniyati.

Ota-onalar bola bilan muloqotda sabrli bo'lishlari, uni diqqat bilan tinglashlari zarur. Bola so'zlaganda uni to'xtatmaslik, fikrini to'liq bayon etishga imkon berish —

ogʻzaki nutqni mustahkamlashning muhim shartidir. Shuningdek, notoʻgʻri aytilgan soʻzlarni tanbeh bermay, yumshoq tarzda toʻgʻrilash kerak. Shunday qilinsa, bola oʻz fikrini erkin va ishonch bilan ifoda etishga oʻrganadi.

3. Kitob oʻqish va ertak aytishning ahamiyati.

Bolaga kitob oʻqib berish, ertak va hikoyalar aytish uning soʻz boyligini kengaytiradi, tasavvurini rivojlantiradi va nutqini ifodali qiladi. Ota-onalar har kuni bolalari bilan birgalikda qisqa ertak yoki sheʼr oʻqib, keyin uning mazmunini muhokama qilsalar, bola hikoya qilishni, mantiqiy izchillikda soʻzlashni oʻrganadi. Bu nafaqat nutqni, balki tafakkurni ham rivojlantiradi.

4. Oʻyin, sheʼr va qoʻshiqlarning roli

Soʻz oʻyinlari, topishmoqlar, sheʼr yodlash va qoʻshiqlar kuylash - nutq rivojining eng samarali usullaridan biridir. Bunday mashgʻulotlar bolaning talaffuzini toʻgʻrilaydi, xotirasini mustahkamlaydi va soʻz boyligini oshiradi. Ayniqsa, ota-onalar bilan birgalikda oʻynaladigan oʻyinlar bolaning muloqotga boʻlgan ishonchini kuchaytiradi.

5. Ota-onalar nutqi - eng muhim namuna.

Bola kattalarning nutqini takrorlab, ularning ohang va uslubini oʻzlashtiradi. Shu bois ota-onalar oʻz nutqlariga eʼtiborli boʻlishlari, adabiy tilda, toza va madaniyatli soʻzlashlari zarur. Qoʻpol soʻzlar, sheva yoki notoʻgʻri talaffuzlardan foydalanish bola nutqining buzilishiga sabab boʻlishi mumkin.

6. Ragʻbat va ijobiy muhitning ahamiyati

Har bir yangi soʻz yoki ifoda uchun bolaning muvaffaqiyatini eʼtirof etish, uni maqtash va ragʻbatlantirish lozim. Ijobiy baho bolaning oʻziga boʻlgan ishonchini oshiradi, uni yanada faol muloqotga chorlaydi.

Amaliy tavsiyalar:

Ota-onalar bolalarining ogʻzaki nutqini samarali rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni muntazam amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir:

Har kuni muloqot qilish

Bola bilan har kuni kamida 15-20 daqiqa davomida samimiy suhbat qurish kerak. Suhbat mavzusi bolaning kundalik hayotiga yaqin boʻlsin - bogʻchadagi voqealar, doʻstlari, oʻyinlari yoki sevimli multfilmlari haqida soʻrash.

Tovush va soʻz oʻyinlari oʻynash

“Kim tez aytadi?”, “Bu nima?”, “Soʻzni davom ettir” kabi oʻyinlar nutq faoliyatini ragʻbatlantiradi. Bu usullar bolaning eʼtiborini, eslab qolish qobiliyatini va talaffuzini mustahkamlaydi.

Bola bilan birgalikda ijod qilish.

Birgalikda rasm chizish, o'yinchoqlar yordamida kichik hikoyalar to'qish, ertak qahramonlarini jonlantirish orqali bola o'z fikrini ifodalashni o'rganadi.

Kitob burchagini tashkil etish.

Har bir oilada bolaning yoshiga mos kitoblar jamlanmasi bo'lishi lozim. Ota-onalar bu kitoblarni birgalikda o'qib, ularning mazmuni haqida suhbatlashsalar, bu bola nutqining tabiiy ravishda rivojlanishiga yordam beradi.

Ko'rgazmali vositalardan foydalanish.

Rasmlar, kartochkalar, predmetli o'yinlar, interaktiv plakatlar yordamida bola so'zlarni ko'rib, eshitib va takrorlab o'rganadi. Bu usul xotira va nutqni bir vaqtning o'zida faollashtiradi.

Bolaning hissiy holatiga e'tiborli bo'lish.

Bola o'zini erkin, xavfsiz va mehrlil muhitda his qilganida, nutqi tabiiy va faol rivojlanadi. Shuning uchun ota-onalar bolaning so'zlash jarayonida uni qo'llab-quvvatlashlari, tanqid o'rniga rag'bat berishlari kerak. Ota-onalar bolaning nutqiy rivojlanishida nafaqat tarbiyachi, balki namuna va yo'l boshchi sifatida muhim o'rin tutadi. Bola kattalarning nutqini kuzatadi, eshitadi va o'zlashtiradi. Shuning uchun har bir ota-ona o'z nutq madaniyatiga e'tibor berib, bola uchun ijobiy til muhitini shakllantirishi zarur. Maktabgacha yosh davrida o'rnatilgan bu nutqiy asoslar keyinchalik bolaning:

mantiqiy fikrlashi, o'qish va yozishga tayyorgarligi, ijtimoiy moslashuvi, hamda shaxsiy o'ziga ishonchining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Demak, og'zaki nutqni rivojlantirish ota-onalar uchun shunchaki til o'rgatish emas, balki bola tafakkurini, muloqot madaniyatini va shaxsiy barkamolligini tarbiyalash demakdir.

Xulosa: Oilada yaratilgan mehrlil, toza va boy nutqiy muhit bola tafakkurining ildizidir. Ota-onalar farzandlariga to'g'ri nutq namunasi ko'rsatib, ular bilan har kuni suhbatlashsalar, bu jarayon tabiiy ravishda bola nutqining o'sishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, og'zaki nutqni rivojlantirishda ota-onalarning faol ishtiroki - kelajakda savodli, muloqotga ochiq, fikrini aniq ifodalovchi yosh avlodni tarbiyalashning eng muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, M. Bola nutqini rivojlantirish metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2020.

2. Rahmonova, N. Maktabgacha ta'limda til va nutq tarbiyasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PQ–4312-son qarori.

4. Пономарева, Л. И., & Турсунова, С. И. (2023). Теоретические основы проблемы обучения младших школьников элементам рассуждения в процессе знакомства с художественными произведениями. Вестник Шадринского государственного педагогического университета, (2 (58)), 53-59.

5. Турсунова, С. И. (2022). Педагогические основы национализации школьного образования. ТГПИ. 2022 год.

6. Турсунова, С. И. (2024). Развитие словесного творчества младших школьников на уроках литературного чтения. Проблемы современного педагогического образования. Сер.: Педагогика и психология.-Научный журнал:-Ялта: РИО ГПА, (82), 284-287.

7. Tursunova, S. I. (2024). SCIENTIFIC THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF ORAL SPEECH IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS. World of Scientific news in Science, 2(6), 137-143.

8. Isakovna, T. S. Linguistic-methodological problems of the development of oral speech in primary classes of national schools. Teacher of the Department of Primary Education, Termiz State Pedagogical Institute.

9. Tursunova, S. I., & Raxmatullayeva, F. A. (2025). MATN TURLARI, ULARNING O ‘ZIGA XOS JIHATLARI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(3), 602-607.

10. Tursunova, S. I. (2025). BOSHLANG‘ICH SINIF DARSLIKLARIDA PUNKTUATSIYAGA OID BERILGAN MATERIALLAR TAHLIL QILISH. ACUMEN: International journal of multidisciplinary research, 2(1), 342-347.

11. Bahodirovna, C. Z., & Tursunova, S. I. (2023). ON THE EXAMPLE OF RUSSIAN EXPERIENCE IN CREATING PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS. International Journal of Pedagogics, 3(04), 1-11.

12. Tursunova, S., & Kh, T. M. (2023). REGARDING THE DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCES IN PRIMARY EDUCATION. International Journal of Pedagogics, 3(04), 12-20.

13. Tursunova, S. (2023). REASONS FOR CHOOSING MODELS OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES FOR THE DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH OF PRIMARY SCHOOLCHILDREN. Science and innovation, 2(B11), 262-266.

THE ROLE OF INTERNATIONAL FESTIVALS IN SHAPING THE
AESTHETIC TASTE OF YOUTH

Xasanov Doston Dilshod o'g'li

3rd-course student of the Culture and Art Management major,
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract. This article analyses the role and significance of international festivals in shaping the aesthetic taste of young people. From this perspective, international festivals are examined as an effective creative process that fosters the development of youth's artistic thinking, aesthetic perception, tolerance, and cultural identity. Such events serve as a dynamic platform for intercultural dialogue and creative exchange, contributing to the spiritual and aesthetic growth of the younger generation.

Keywords: aesthetic education, youth, international festival, intercultural dialogue, creative thinking.

YOSHLARDA ESTETIK DIDNI SHAKLLANTIRISHDA XALQARO
FESTIVALLARNING O'RNI

Xasanov Doston Dilshod o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Madaniyat va san'at sohasi menejmenti ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarning estetik didini shakllantirishda xalqaro festivallarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro festivallar yosh avlodni ijodiy fikrlash, go'zallikni anglash, tolerantlikni shakllantirish va madaniy identifikatsiyani mustahkamlashga xizmat qiluvchi samarali ijodiy jarayon sifatida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: estetik tarbiya, yoshlar, xalqaro festival, madaniyatlararo muloqot, ijodiy tafakkur.

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ ФЕСТИВАЛЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ
ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВКУСА МОЛОДЁЖИ

Хасанов Достон Дилшод угли

Студент 3-го курса,

Направление «Менеджмент в сфере культуры и искусства»,

Государственный институт искусств и культуры Узбекистана

Аннотация. В данной статье проанализированы роль и значение международных фестивалей в формировании эстетического вкуса молодёжи. С этой точки зрения международные фестивали рассматриваются как эффективный творческий процесс, способствующий развитию художественного мышления, эстетического восприятия, толерантности и культурной идентичности молодого поколения. Подобные мероприятия выступают динамичной площадкой для межкультурного диалога и творческого обмена, способствуя духовному и эстетическому развитию молодёжи.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, молодёжь, международный фестиваль, межкультурный диалог, творческое мышление.

Kirish. Har qanday jamiyatda yosh avlod tarbiyasi davlat oldida turgan eng dolzarb masala hisoblanadi. Chunki jamiyatning sog‘lom jamiyat sifatida ravnaq topishi va rivojlanishi ana shu kelajak avlod tarbiyasi va madaniyatiga bog‘liq. Ma‘lumki, tarbiya shaxsni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash, shuningdek, uning ma‘naviy, aqliy, jismoniy va musiqiy rivojlanishiga muntazam ta‘sir etib boruvchi uzluksiz jarayon. Endilikdagi asosiy vazifa ana shu yoshlarga ta‘lim va tarbiya berish, ularning kuch va sadoqatini ana shu Vatanga muhabbat, yurt tinchligi va osoyishtaligi, respublika mustaqilligini mustahkamlash yo‘lida safarbar etishdir. Buni dunyoning ko‘pgina davlatlari qatori O‘zbekistonning olib borayotgan odilona va oqilona siyosati natijasida amalga oshirilayotgan keng ishlar ko‘lamida payqash qiyin emas. O‘zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmat, or-nomusi va shon-sharafi uning o‘ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslangandir. Farzand tug‘ilishi bilan unga alla orqali ota-onaning orzu umidlari, his-hayajonlari, o‘y-kechinmalari ohang orqali singdirilib boriladi. Bola ulg‘ayib borgan sari unga turli janrdagi qo‘shiq-aytim va kuy-ohanglar hamroh bo‘ladi. Qo‘shiq aytishning kuy-ohang va she‘riy ma‘no-mazmuni o‘zida kelayotgan yosh avlodni o‘z tarbiyasiga oladi. Bolaning hatti-harakatlarida namoyon bo‘la boshlaydi. Bu jarayonda farzandlarimiz qanday kuy-qo‘shiq eshitayotganligi orqali uning xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlarni kuzatib borish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yoshlarni madaniy-estetik jihatdan kamolga yetkazishda ijtimoiy-pedagogik faoliyat alohida o‘rin tutadi. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat shaxsga, jamoaga yoki muayyan ijtimoiy guruhga ularning ijtimoiy faolligini, ijodiy qobiliyatini va madaniy ishtirokini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi kasbiy faoliyat turidir[1]. Uning vazifasi insonning ijtimoiy hayotdagi muammolarini hal qilish, ijtimoiy-madaniy integratsiyasini ta‘minlash va shaxsiy salohiyatini jamiyat

foydasiga yoʻnaltirishdan iborat. Mazkur faoliyatning asosiy yoʻnalishlari profilaktika, rehabilitatsiya, inson huquqlari himoyasi, madaniy tarbiya va estetik rivojlanishdan iborat boʻlib, ularning barchasi yoshlarni ijtimoiy hamda madaniy jihatdan faol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

XXI asrda globallashuv, madaniyatlararo integratsiya va axborot oqimining tezligi yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda yangi omillarni keltirib chiqarmoqda. Estetik tarbiya va ijodiy qobiliyatning rivoji endilikda faqat taʼlim muassasalari doirasidagina emas, balki keng ijtimoiy-madaniy maydon, xususan, xalqaro festivallar, madaniyat almashinuvi dasturlari va yoshlar sanʼat forumi kabi madaniy-maʼrifiy tadbirlarda amalga oshmoqda. Shu bois, yoshlarning estetik didini rivojlantirishda xalqaro festival harakatining oʻrni va pedagogik ahamiyati alohida ilmiy tahlilni talab etadi[2].

Estetik tarbiya shaxsda goʻzallikni anglash, sanʼatni qadrlash va ijodiy ifoda topish qobiliyatini rivojlantiruvchi murakkab ijtimoiy jarayondir. Bu jarayon orqali yoshlar atrofdagi voqelikni nafaqat biladi, balki uni his etadi, baholaydi va oʻz estetik qarashlarini shakllantiradi.

Natija va muhokama. Bugungi kunda xalqaro festivallar yoshlarning estetik dunyoqarashini kengaytiruvchi, ijodiy salohiyatini oshiruvchi eng samarali madaniy muhitlardan biridir. Masalan, Venetsiya Biennalesi (Italiya), Edinburgh Fringe Festival (Buyuk Britaniya), Sharq taronalari (Oʻzbekiston) yoki World Youth Festival (Rossiya) kabi tadbirlar yoshlarni nafaqat ijodiy raqobatga, balki madaniyatlararo muloqotga undaydi.

Xalqaro festival muhiti uchta asosiy pedagogik xususiyatga ega:

- yosh ijodkor oʻz asari orqali xalqaro auditoriyaga chiqish imkonini sezadi;
- u boshqa millat vakillarining estetik qadriyatlarini idrok etadi, tolerantlik shakllanadi;
- oʻz ijodiy ishiga tanqidiy nazar bilan qarash, badiiy tafakkurini chuqurlashtirish imkoniyati tugʻiladi[3].

Bu jarayonlar yosh avlodda madaniy salohiyat, fikrlash va global estetik didni rivojlantiradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, estetik tarbiya quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

- yoshlar festivallarda bevosita qatnashib, ijodiy muhitni his etadi;
- xalqaro jamoaviy ijod loyihalari orqali estetik tafakkur boyiydi;
- festival ishtirokchilari oʻz tajribalarini tahlil qiladi, badiiy baholash koʻnikmasini shakllantiradi.

Masalan, “Sharq taronalari” festivalida ishtirok etgan yosh musiqachilar milliy cholgʻularni global sahnada namoyish etish orqali oʻzida milliy gʻurur va xalqaro estetik uygʻunlikni his qiladi. Bu esa oʻz navbatida, estetik tarbiya va ijtimoiy-pedagogik jarayonning eng yuksak koʻrinishidir.

Xalqaro festivallar ijtimoiy jihatdan quyidagi natijalarga erishishga xizmat qiladi:

- yoshlarning madaniy identifikatsiyasi mustahkamlanadi;
- ijodiy muhitda oʻz-oʻzini anglash va oʻzini ifoda etish koʻnikmalari rivojlanadi;
- millatlararo doʻstlik va bagʻrikenglik qadriyatlari mustahkamlanadi.

Biroq muammolar ham yoʻq emas: ayrim hollarda festivallar tijoratlashib borayotgani, yosh ijodkorlar uchun moddiy imkoniyatlarning cheklangani kuzatilmoqda. Shu bois davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlarning hamkorlikdagi madaniy-pedagogik dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi[4].

Xalqaro festivallar yoshlarning estetik didini shakllantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish va madaniy ongini yuksaltirishda noyob ijtimoiy-pedagogik muhit yaratadi. Ular orqali yosh avlod milliy merosni anglaydi, global estetik qadriyatlarni oʻzlashtiradi va oʻz ijodini jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida koʻra boshlaydi. Shu bois, bunday festival harakatlarini taʼlim tizimi bilan integratsiyalash, yoshlar siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylantirish zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xalqaro festivallar yoshlarning estetik didini shakllantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish va madaniy ongini yuksaltirishda noyob ijtimoiy-pedagogik muhit yaratadi. Ular orqali yosh avlod milliy merosni anglaydi, global estetik qadriyatlarni oʻzlashtiradi va oʻz ijodini jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida koʻra boshlaydi. Shu bois bunday festival harakatlarini taʼlim tizimi bilan integratsiyalash, ularni yoshlar siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylantirish zamon talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мудрик, А. В. Социальная педагогика: учеб. для студ. пед. вузов / А. В. Мудрик / под ред. В. А. Слостенина. 3-е изд., испр. и доп. М.: Изд. центр Академия, 2002. 200 с.
2. Dewey, J. *Art as Experience*. New York: Penguin, 2005, p. 445.
3. Csikszentmihalyi, M. *Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention*. Harper Perennial, 1996.

4. European Festivals Association. *Festivals and the City: Social Impact Study*. Brussels, 2021.
5. Kalkanatov, Asilbek. "PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD." *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE* 2 (2023): 19-23.
6. Eldor o'g'li, Z. J. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT OF CULTURAL AND ART TRAINING INSTITUTIONS BASED ON CULTURAL INTELLIGENCE. *ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(15), 21-25.
7. Jumanazarov, Z. (2025). FEATURES OF CULTURAL POLICY IN NEW UZBEKISTAN. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(4), 352-354.
8. Eldor o'g'li, J. Z. (2025). KREATIVLIK PARADIGMASI: SAN'AT, IQTISODIYOT VA IJTIMOY O'ZGARISHLARNING CHORRAXASI. *SYNAPSES: Insights across the disciplines*, 2(6), 98-106.
9. QOLQANATOV, Asilbek. "MA'DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN." *News of UzMU journal* 1.1 (2024): 1.
10. Yuldasheva, Manzura, and Asilbek Qolqanatov. "O'ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI." *Oriental art and culture* 3.1 (2022): 254-260.
11. QOLQANATOV, Asilbek. "'O'ZBEKKONSERT" DAVLAT MUASSASASI FAOLIYATI: TADQIQOT VA TAHLIL." *TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR* 12 (2023): 8-14.
12. Nazarbay o'g'li, Q. A., & Eldor o'g'li, J. Z. (2025). AUDIOVIZUAL INDUSTRIYA TUSINDIRMESI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(5), 122-129.
13. Юсупалиева, Д. К. (2020). Международные отношения-Зеркало мирового прогресса. *Молодой ученый*, 23, 522.
14. Юсупалиева, Д. К. (2024, October). ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В СФЕРЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСТИТУТОВ ТЕЛЕВИДЕНИЯ. In *Russian-Uzbekistan Conference* (Vol. 1, No. 1).
15. Yusupalieva, D. K. (2020). Development of mutually beneficial cooperation of Uzbekistan within the SCO. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 5(85), 901-903.
16. Shermanov, E. U. (2025). DAXLDORLIK FAZILATI ORQALI TALABALARNING MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH: STRATEGIYA VA MEXANIZMLAR. *Inter education & global study*, (3), 596-603.

- 17.Saidovich, J. S., Uralovich, S. E., Kurbanov, A., & Erkinovna, A. N. (2022). The role of cinema in the system of education.
- 18.Shermanov, E. (2024). Madaniy intellektning ijtimoiy soha mutaxassislarini tayyorlash jarayonidagi integratsion roli. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 1(8).
- 19.Ganieva, E. R. (2022). Genesis and Evolution: From Multi-Part TV Film to TV Series. *International Journal on Integrated Education*, 5(4), 286-290.
- 20.Ганиева, Э. Р. (2014). Из истории взаимосвязи кино и телевидения Узбекистана. *Молодой ученый*, (14), 316-318.
- 21.Ганиева, Э. Р. (2017). Новые страницы истории телевидения Узбекистана. *Молодой ученый*, (21), 57-59.
- 22.Ganieva, E. R. (2015). Prospects of development and modernization of cinema reproduction channels in Uzbekistan. in the world of science and art: questions of Philology, art criticism and cultural studies. no. 43.
- 23.Rinatovna, E. G. (2024). NATIONAL TELEVISION SERIES OF UZBEKISTAN: ACHIEVEMENTS AND SHORTCOMINGS. *Inter education & global study*, (10), 482-492.
- 24.Alfiya, Q. (2023). Milliy Musiqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi. *Journal of Creativity in Art and Design*, 1, 16-20.
- 25.Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4, 259-262.
- 26.Kalkanatov, Asilbek. "THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2 (2023): 7-10.
- 27.Yuldasheva, M. B., and A. N. Qolqanatov. "Kadrlar potentsiali ijtimoiy-madaniy sohada tashkilot faoliyati samaradorliligini oshirishshning yetakchi omili sifatida." *Inter education & global study* 8 (2024): 58-68.
- 28.Yusupalieva, D. K. (2020). Political role of television in the development of national ideology. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 6(86), 665-667.
- 29.Ганиева, Э. Р. (2017). Кино и телевидение как одни из основных факторов формирования визуальной культуры зрителя. *Молодой ученый*, (21), 59-61.
- 30.Jummanazarov, Z. E. (2025). MUSIQANING YOSHLAR AQLIY VA JISMONIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *Inter education & global study*, (3), 563-573.

31. Eldor o'g'li, J. Z. (2025). MADANIY VA KREATIV INDUSTRIYA. *SYNAPSES: Insights across the disciplines*, 2(6), 107-115.

32. Eldor o'g'li, J. Z., & Tolibjonovna, B. G. (2025). TALABALARDA TA'LIMIY MOBILLIK SHAROITIDA JAHON ADABIYOTI ORQALI KROSS-MADANIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH. *ACUMEN: International journal of multidisciplinary research*, 2(6), 99-104.

33. Eldor o'g'li, J. Z. (2025). REFIKATSIYADAN KREATIV IQTISODIYOTGACHA: MADANIYAT INDUSTRIYASINING TARIXI VA BUGUNI. *Journal of new century innovations*, 78(1), 314-322.

34. Eldor o'g'li, J. Z. (2025). KREATIV VA MADANIY INDUSTRIYALAR: IQTISODIY-IJTIMOY O'ZGARISHLARNING YANGI PARADIGMASI. *Journal of new century innovations*, 78(1), 323-331.

VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN OZODLIKDAN MAHRUM
QILISHGA MUQOBIL JAZOLARNI IJRO ETISHNING O‘ZIGA XOS
JIHATLARI

Kulturayeva Sarvinoz Sadridin qizi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: maqolada muallif tomonidan voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni ijro etish bilan bog‘liq masalalar bayon etilgan. Shuningdek, bu boradagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan ayrim takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar, jinoiy jazo, jarima, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari, ozodlikni cheklash.

Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi qonun ustuvorligini ta‘minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanib, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni tayinlash jazodan ko‘zlangan maqsadga samarali erishishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 noyabrdagi PQ–4006-sonli “Jinoiyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan tasdiqlangan **2019–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi jinoiyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasida** jinoiy jazolarning ijrosini ta‘minlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni ijro etish mexanizmlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish va ular samaradorligini oshirish [1] belgilanganligini ta‘kidlash lozim.

Shuningdek, ushbu qaror bilan ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni ijro etish bo‘yicha faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek jamoat tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorlikda samarali tashkil etish maqsadida 2019-yil 1-yanvardan e‘tiboran, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasining Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni ijro etilishini nazorat qilish boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalari negizida vazirlikning Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi huzuridagi Probatsiya xizmati va tegishli uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi, ushbu tuzilmalarning asosiy

vazifalaridan biri bu ozodlikdan mahrum qilishga muqobil bo'lgan jazolarni ijro etishdir.

Qayd etish lozimki, amaldagi jinoyat qonunchiligiga asosan voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazolar tizimida ozodlikdan mahrum qilishga muqobil bo'lgan jazolar – jarima, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari hamda ozodlikni cheklashning belgilanishidan ko'zlangan asosiy maqsad ham ularni jamiyatdan ajratmagan holda jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarni axloqan tuzatish, tarbiyalash hamda ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilishini oldini olish bo'lib, bunday turdagi jazo tizimining jinoyat qonunchiligida o'z ifodasini topganligi insonparvarlik nuqtai nazaridan ham, odillik nuqtai nazarida ham maqsadga muvofiqdir.

Voyaga yetmaganlarni axloqan tuzatish va tarbiyalashda tayinlangan jazoni ijro etishning qanchalik samarali tashkil etilganligi ahamiyatlidir. Bu borada, yuridik fanlar doktori, professor N.S.Salayevning fikrini keltirish o'rinli. Faqatgina mahkum axloqan tuzalgan va u tomonidan boshqa jinoyatlar sodir etilishining oldi olingan hollardagina jazoning maqsadlariga erishilgan deb hisoblash mumkin. Ushbu yakuniy maqsad esa o'z navbatida, ko'p jihatdan har qanda turdagi jazoni ijro etish sifatiga, qonuniyligiga, huquqiy mexanizmning adolatliligiga, eng muhimi, jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individualizatsiya prinsiplarining huquqni qo'llash amaliyotiga tatbiq etilishiga bevosita bog'liqdir [2].

Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazolar o'zining ijro etish tartibi hamda jazoni o'tash shartlari bilan farqlanib, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat-ijroiya qonunchiligida bunday tartibning nazarda tutilganligi adolat, insonparvarlik hamda jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etish prinsiplarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqqanligi bilan belgilanadi.

Ta'kidlash lozimki, voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazolarni ijro etish uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 5-moddasiga asosan sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi asos bo'ladi. Jazoga hukm qilingan voyaga yetmagan shaxsning jinoyat-ijroiya huquqiy munosabatlarga kirishish jarayoni ham aynan hukm qonuniy kuchga kirgan vaqtdan boshlanadi va mazkur munosabat shaxs sud tomonidan belgilangan jazoni o'tab bo'lgunga qadar yoki jazodan ozod etilgunga qadar davom etadi.

Shu o'rinda voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan ozodlikdan mahrum qilishga muqobil bo'lgan jazolarni ijro etishning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tishimiz maqsadga muvofiq. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 19-moddasiga asosan o'n sakkiz yoshga to'lmasdan turib

jinoyat sodir etgan va jarima tariqasidagi jazoga hukm qilingan voyaga yetmagan shaxslarga jarima jazosini ijro etishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jarimani ixtiyoriy ravishda to'lashi mumkin bo'lgan muddat hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab olti oylik muddatni tashkil etadi;

- jarima ixtiyoriy ijro etilmagan taqdirda majburiy ijro etish choralari qo'llanilmaydi;

- agar belgilangan muddatda jarimani to'liq miqdorda to'lashga mahkumning imkoni bo'lmasa, sud uning iltimosnomasiga ko'ra hukmning ijrosini Jinoyat-protsessual kodeksining [533-moddasida](#) belgilangan tartibda kechiktirishi yoki jarimani bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat etishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, agar jarima tegishli moddada muqobil jazo chorasi sifatida sanksiyada ko'rsatilgan bo'lsa, uni tayinlash orqali aybdorning mulkiy manfaatlariga ta'sir ko'rsatilib, jazoning maqsadiga (tarbiyalash va mahkum tomonidan yangi jinoyat sodir etilishining oldini olish) erishish mumkin bo'lgan taqdirdagina voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin [3, B.16].

Jarima tariqasidagi jazoni ijro etish boshqa turdagi jinoiy jazolardan farqli ravishda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining [32¹-moddasi](#)da jarimani to'lashdan bo'yin tovlash oqibatlari belgilangan bo'lib, quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lganda davlat ijrochisi jarima tariqasidagi jazoni jazoning boshqa turi bilan almashtirish to'g'risidagi taqdimnoma bilan sudga o'n kunlik muddat ichida murojaat qilishi lozim [4], jumladan:

- agar hukm qilingan shaxs jazo tariqasida tayinlangan jarimani majburiy ijro etish uchun belgilangan muddatlarda to'lashdan bo'yin tovlasa;

- qarzdorda undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulk mavjud emasligi tufayli majburiy ijro etish uchun belgilangan muddat mobaynida jarimani undirishning imkoni bo'lmasa;

- kechiktirish muddati tugaganidan keyin jarima to'lanmagan yoki jarimani bo'lib-bo'lib to'lash shartlari buzilgan taqdirda.

Qayd etish lozimki, amaldagi Jinoyat-ijroiya qonunchiligida jarima tariqasidagi jazoni bo'lib-bo'lib to'lash nazarda tutilgan bo'lsa-da, jarimani bo'lib-bo'lib to'lash qanday tartib asosida amalga oshirilishi, bo'lib-bo'lib to'lashda jarimaning to'lanishi lozim bo'lgan muayyan miqdori va uni to'lash muddatlari aniq belgilanmagan, bu esa o'z navbatida huquqni qo'llash amaliyotida mazkur jazoni ijro

etish to'g'risidagi normalarini turli xil tarzida talqin etilishi hamda qo'llanilishiga sabab bo'lmoqda.

Xorijiy davlatlar, xususan Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 88-moddasi ikkinchi qismida jarima jazosini ijro etish voyaga yetmagan mahkumlarning ota-onasi yoxud ularning qonuniy vakillari roziligi bilan ular tomonidan ijro etilishi mumkinligi belgilangan. Bugungi kunda esa mazkur tartib jazodan ko'zlangan maqsadga erishishda samarali yordam bermayotganligi uchun ko'plab muhokamalarga sabab bo'lmoqda.

Fransiya va Germaniya jinoyat-ijroiya qonunchiligida jarimani bo'lib-bo'lib to'lashning kunlik, xaftalik va oylik miqdorlari belgilab qo'yilgan bo'lib, bunda muayyan ish bilan mashg'ul bo'lgan voyaga yetmaganning mustaqil daromad manbai miqdori e'tiborga olinadi. Bir yo'la to'lab yuboriladigan jarima esa nafaqat pul ko'rinishda, balki mulkiy xarakterdagi boshqa buyum yoxud predmetni berish shaklida ham ijro etilishi mumkin [5].

Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazolardan biri majburiy jamoat ishlari jazosi bo'lib, mazkur jazoni ijro etish voyaga yetmagan mahkumning yashash joyidagi tuman (shahar) ichki ishlar organlari probatsiya bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladi. ushbu tuzilmalarning asosiy vazifalaridan biri bu ozodlikdan mahrum qilishga muqobil bo'lgan jazolarni ijro etishdir.

Majburiy jamoat ishlari jazosini ijro etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-maydagi 346-son qarori bilan tasdiqlangan "Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning ijrosini tashkil etish tartibi haqida"gi [nizom](#)da belgilangan. Majburiy jamoat ishlariga hukm qilingan shaxs jazoni o'tashga sudning hukm qonuniy kuchga kirganligi haqidagi xabarnomasi kelib tuman (shahar) ichki ishlar organlari probatsiya bo'linmasiga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay jalb qilinadi va jazo bepul asosda bajariladi.

Mazkur jazoni voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlash va ijro etishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, "Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning ijrosini tashkil etish tartibi haqida"gi [nizom](#)ning 3-bandida majburiy jamoat ishlari jazosini o'n olti yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan qo'llanilmasligi belgilanganligidan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, ushbu jazo faqatgina 16 – 18 yoshdagi voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, jazoni ijro etishda voyaga yetmaganlar agrosanoat kompleksidagi mavsumiy ishlar – mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlaridan quyidagilarni bajarishga jalb etishlari taqiqlanadi:

- meva-sabzavot mahsulotlarini yig'ishtirish;
- paxta terish;
- ekinlarni o'tash [6].

Ta'kidlash lozimki, mahkumni majburiy jamoat ishlariga jalb qilishda agar majburiy jamoat ishlari turlari ro'yxatiga mos bo'lsa, mahkumning kasbiy ko'nikmalari (mavjud bo'lganda), sodir etilgan jinoyat turi, mahkum ish va (yoki) o'qishga ega bo'lsa – asosiy ish va (yoki) o'qish jadvali, yoshi, sog'lig'i kabi holatlar e'tiborga olinishi lozim. Voyaga yetmagan mahkum majburiy jamoat ishlariga jalb qilinganda ishlarning turlari va mazmuni quyidagi talablarga javob berishi talab etiladi, jumladan:

- ish voyaga yetmaganlarning qo'lidan keladigan (kuchi yetadigan) bo'lishi shart;
- ish maqbul ishchanlik qobiliyatini, foydali hayotiy ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishga imkon yaratishi lozim.

Majburiy jamoat ishlari jazosi faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan oltmish soatdan ikki yuz qirq soatgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi. Voyaga yetmagan tomonidan o'taladigan majburiy jamoat ishlari vaqti dam olish kunlari va mahkum o'qishda yoxud asosiy ishda band bo'lmagan kunlari uch soatdan, ish kunlari, o'quv mashg'ulotlari o'tkaziladigan kunlari esa — ikki soatdan, biroq haftasiga uch kundan oshmasligi lozim.

Yuridik manbalarga ko'ra, majburiy jamoat ishlari jazosini penalizatsiya qilinishi uzoq tarixga borib taqaladi. Mazkur jazo ko'plab xorijiy davlatlarda “jamoat ishlari” deb nomlanib, birinchi marta mazkur jazo turi 1971 yilda Shveysariya Jinoyat kodeksida belgilangan va faqat 7 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan jinoyatchilarga nisbatan qo'llanilgan. Keyinchalik, Shveysariyada jamoat ishlari jazosi voyaga yetmaganlar uchun asosiy jazo sifatida va mamlakatning ba'zi kantonlarida voyaga yetganlar uchun qo'shimcha jazo sifatida ham tayinlana boshlangan [7].

Bugungi kunda majburiy jamoat ishlari jazosini ijro etish Shveysariya, Angliya va Uels, Daniya, Germaniya, Fransiya, Germaniya, Isroil, Italiya, Lyuksemburg, Gollandiya, Shimoliy Irlandiya, Finlyandiya, Portugaliya, Shotlandiya, Chexiya, Kanada, AQSh kabi mamlakatlarda probatsiya xizmati vakolatiga kiritilganligi bilan e'tiborga molikdir.

Mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan hamda majburiy jamoat ishlaridan farqli ravishda haq evaziga bajariladigan axloq tuzatish ishlari jazosi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida”gi qarori

19-bandining [ikkinchi xatboshisi](#)ga asosan 16 yoshga to‘lmagan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi [8].

Voyaga yetmaganlarga nisbatan axloq tuzatish ishlari jazosini ijro etishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu jazoni tayinlash va ijro etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-ijroiya kodekslari hamda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2017-yil 27-iyuldagi 157-son [buyrug‘iga](#) asosan tasdiqlangan “Muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari va ozodlikni cheklash tariqasidagi jazolarning ijrosini tashkil etish hamda shartli hukm qilingan shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomada belgilangan.

Yuridik fanlar doktori S.S.Niyozovanning fikricha, axloq tuzatish tariqasidagi jazolarni ijro etishda mahkumlarning yoshi va ijtimoiy maqomi ahamiyatga ega bo‘lib, bu mahkumlarni muayyan toifalarga ajratib (differensiatsiya) ular bilan individual ishlashni ta‘minlaydi [9, B.50].

Qayd etish lozimki, axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoni ijro etish jarayonida mahkum O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida va sud hukmida ko‘zda tutilgan cheklanishlardan tashqari O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan barcha huquqlardan foydalanadilar va majburiyatlarni bajaradilar. Bu qoida O‘zbekiston Respublikasi hududida shunday jazoni o‘tayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Jazoni o‘tash muddati korxonada, muassasa, tashkilot ma‘muriyati voyaga yetmagan mahkumning yashash joyidagi tuman (shahar) ichki ishlar organlari probatsiya bo‘linmasidan xabarnoma olgan kundan, boshqa joylarda o‘taladigan axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar uchun esa — ular jazoni o‘tash uchun yuborilgan korxonada, muassasa, tashkilotda ish boshlagan kundan boshlanadi. Axloq tuzatish ishlariga jalb qilish haqidagi sud hukmlari (ajrimlari) ijroga kelgan kundan boshlab 10 kunlik muddatdan kechikmasdan ijro qilinadi.

Mahkumlarga nisbatan hukm ijrosini tashkil etish, mahkumlarni jazo o‘tashga jalb qilish, ularning ish haqidagi ajratmalarni to‘g‘ri ushlab qolish va o‘z vaqtida davlat foydasiga o‘tkazilishini nazorat qilish, shuningdek mahkumlarni o‘z vaqtida jazo o‘tashdan ozod qilish maqsadida axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarning shaxsiy hisobi yuritiladi.

Axloq tuzatish ishiga hukm qilingan mahkumlarning oylik ish haqidagi davlat daromadi hisobiga ushlab qolish mahkumning jazo muddatini o‘tashni boshlagan kundan amalga oshiriladi. Tuman (shahar) probatsiya bo‘linmalari xodimlari mahkumlarning hisobvaraqlari bo‘yicha oyma-oy ish haqidagi ushlab qolingani

chegirmalarning tushganligini “UzASBO” dasturiy majmuasi orqali Yagona g‘azna hisobvarag‘iga kirim qilingan mablag‘lar bilan solishtirib boradi hamda mahkumlarning ish haqidan ushlab qolgan chegirmalar o‘z vaqtida o‘tkazilmaganligi aniqlangan hollarda darhol undirish choralarini ko‘rishlari lozim.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilishga muqobil bo‘lgan jazolardan biri sifatida ozodlikni cheklash jazosi esa O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O‘RQ-389-sonli [Qonuniga](#) asosan Jinoyat kodeksiga penalizatsiya qilingan bo‘lib, ushbu jazo voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan asosiy jazo chorasi sifatida olti oydan ikki yilgacha muddatga tayinlanadi. Mazkur jazoni ijro etish mahkumning yashash joyidagi tuman (shahar) probatsiya bo‘linmalari tomonidan yoki sud belgilaydigan, mahkumlarning sud belgilagan muayyan taqiqlarga (cheklashlarga) rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshiradigan boshqa organ tomonidan amalga oshiriladi.

Ozodlikni cheklash jazosini ijro etish bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida, shuningdek Meksika va AQShda balog‘atga yetmagan bolalarga nisbatan ozodlikni cheklash jazosini hamda sudlangan voyaga yetmaganlar ustidan nazoratni probatsiya xizmati amalga oshirishini ko‘rishimiz mumkin, ushbu tuzilmalar tarkibida maxsus nazoratni amalga oshiruvchi alohida zobitlar, shuningdek ularga jazoni ijro etishda maslahat beradigan psixologlar ham mavjud [10, C. 85.].

Litva va Polshada esa ozodlikni cheklash jazosi mahkumga ma‘lum vazifalar va taqiqlarni kiritishdan iborat bo‘lib, agar mahkum biron bir muhim sabablarga ko‘ra muayyan majburiyatlarni bajara olmasa, sud ozodlikni cheklash jazosini Jinoyat qurbonlari fondiga naqd pul to‘lash bilan almashtirishi mumkin[11].

Germaniya, Kanada hamda Latviya kabi mamlakatlarda favqulodda holatlar yuz bergan taqdirda mahkum jazoni ijro etuvchi organlarni xabardor etmagan holda o‘zining yashash joyini tark etishi mumkin. Biroq, xavf bartaraf etilishi bilan bu to‘g‘risida jazo ijrosini amalga oshiruvchi organni xabardor etish majburiyati mahkum zimamsiga yuklatiladi.

Ozodlikni cheklash jazosini ijro etish Angliyada ham probatsiya xizmati vakolatiga kiritilib, ushbu jazoga hukm qilinganlar ustidan elektron monitoringni muvofiqlashtirish Bosh inspeksiya zimmasiga yuklatilgan. Singapurda esa ozodlikni cheklash jazosini ijro etuvchi probatsiya xizmati Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan boshqarilishi [12, C. 38] e‘tiborlidir.

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni ijro etish masalalarini va ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilgan holda xulosa sifatida quyidagilarni ta’kidlash lozim.

Birinchidan, ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilgan holda Jinoyat-ijroiya qonunchiligiga jarima jazosini bo‘lib-bo‘lib to‘lash qanday tartib asosida amalga oshirilishi, bo‘lib-bo‘lib to‘lashda to‘lanishi lozim bo‘lgan jarimaning muayyan miqdori, muddatlari, shakli hamda usullari aniq belgilanishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, voyaga yetmaganlarga nisbatan jarima jazoni ijro etishda ularning mustaqil daromad manbaiga ega ekanligi e’tiborga olinishi lozim.

Gipominerallashgan emal sirtida bakteriyalar, ayniqsa *Streptococcus mutans*, *Lactobacillus acidophilus* va *Actinomyces* turlari tezda koloniyalar hosil qiladi. Ularning metabolik mahsulotlari *organik kislotalar va toksinlar* milk epiteliyasini shikastlab, uning o'tuvchanligini oshiradi. Bu jarayon periodont to'qimalarida yallig'lanish reaksiyasini qo'zg'atadi, mikrotsirkulyatsiya buziladi, qon tomirlar kengayadi va eksudativ jarayon kuchayadi. Natijada bolalarda gingivitning dastlabki belgilaridan biri bo'lgan milkning shishishi, qizarishi va qonashga moyillik paydo bo'ladi. Bundan tashqari, emal minerallashuvining buzilishi natijasida tish yuzasida mikrobo'shliqlar paydo bo'lishi blyashkaning mexanik tozalanishini qiyinlashtiradi. Bu blyashka tish va milk orasida joylashib, kislorodsiz muhitda anaerob bakteriyalar uchun optimal sharoit yaratadi. Aynan shu mikroorganizmlar - *Porphyromonas gingivalis*, *Prevotella intermedia* va *Fusobacterium nucleatum* - periodont kasalliklarining asosiy etiologik omillari sifatida tanilgan. Ularning faoliyati oqibatida periodont to'qimalarida surunkali yallig'lanish, to'qima destruksiyasi va alveolyar suyak rezorbsiyasi jarayonlari boshlanadi.

Patogenetik jarayonning rivojlanishida mahalliy omillar bilan bir qatorda umumiy metabolik omillar ham muhim rol o'ynaydi. Oziqlanishda kalsiy, fosfor va vitamin D yetishmasligi, suvdagi ftorning me'yordan kam yoki ortiq bo'lishi, shuningdek ekologik zararli moddalar (masalan, og'ir metall ionlari) periodont to'qimalarining biokimyoviy barqarorligini pasaytiradi. Shu sababli, Farg'ona vodiysi kabi ayrim hududlarda periodont kasalliklari bolalar orasida nisbatan yuqori uchrashi mumkin, bu esa hududning tabiiy-geokimyoviy sharoiti bilan bog'liq bo'lgan kompleks biologik omillar natijasidir. Tish emali va periodont to'qimalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yana bir jihatdan ion almashinuvi orqali tushuntirish mumkin. Og'iz bo'shlig'idagi suyuqlik, ya'ni so'lak, doimiy ravishda ionlar manbai hisoblanadi. Agar so'lak tarkibida kalsiy va fosfor konsentratsiyasi yetarli bo'lmasa, remineralizatsiya jarayoni to'liq kechmaydi va demineralizatsiya ustunlik qiladi. Natijada emal sirtida minerallar yetishmasligi davom etadi, bu esa milk epiteliyasining himoya funksiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. So'lakning bufer xususiyati pasayganda mikroorganizmlar tomonidan ishlab chiqariladigan kislotalar neytrallashtirilmaydi va periodont to'qimalarida yallig'lanish jarayoni yanada kuchayadi.

Shunday qilib, tish emali minerallashtiruvining buzilishi periodont kasalliklari rivojlanishida muhim predispozitsion omil bo'lib, bu holat bir-birini kuchaytiruvchi patogenetik zanjir orqali amalga oshadi. Emal zaiflashishi blyashka to'planishiga sabab bo'ladi, blyashka esa mikroblar va ularning toksinlari yordamida periodont to'qimalarini zararlaydi. Bu jarayon o'z vaqtida to'xtatilmasa, bolalarda periodontal apparatning chuqur qatlamlariga zarar yetkazuvchi surunkali patologiyalar rivojlanadi. Shu bois bolalarda tish emali minerallashtiruvini saqlash, gigiyenik madaniyatni oshirish va profilaktik chora-tadbirlarni erta yoshdan boshlab yo'lga qo'yish periodont kasalliklarining oldini olishda asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosa

Bolalarda tish emali minerallashtiruvining buzilishi va periodont kasalliklari rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik stomatologiya sohasidagi muhim ilmiy va amaliy masalalardan biridir. Emal tishning himoya to'qimasi sifatida periodont tizimi bilan uzviy aloqada bo'lib, uning strukturaviy zaiflashuvi periodont to'qimalarining patologik o'zgarishlari uchun boshlang'ich zamin yaratadi. Gipominerallashtirgan emal sirtida mikroblarning yopishishi osonlashadi, blyashka tez hosil bo'ladi, so'lakning bufer xususiyati pasayadi va natijada milk epiteliyasi orqali toksinlar o'tishi osonlashadi. Shu tarzda emal va periodont o'rtasida o'zaro kuchayuvchi patogenetik zanjir shakllanadi. Bolalik davrida organizmda mineral almashinuvi, gormonal balans va o'sish jarayonlari faol kechganligi sababli, bu yosh guruhida tish emali va periodont

to‘qimalari tashqi va ichki omillarga nisbatan juda sezuvchan bo‘ladi. Ayniqsa, ekologik muhit, suv va oziq-ovqat tarkibidagi fluor, kalsiy va fosfor miqdorining o‘zgarishi, shuningdek gigiyenik madaniyatning pastligi bu jarayonlarning buzilishiga sabab bo‘ladi.

Shu bois bolalarda periodont kasalliklarining oldini olishda tish emali minerallasuvini qo‘llab-quvvatlash, optimal ovqatlanish, fluorli suv iste‘molini me‘yorda ushlab, muntazam stomatologik profilaktika va gigiyenik tarbiyani kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Emalning mustahkamligi va periodont to‘qimalarining sog‘lom holati bir-birini to‘ldiruvchi biologik tizimlar sifatida qaralishi kerak. Ushbu yondashuv bolalar stomatologiyasida erta diagnostika, kasalliklarning profilaktikasi va umumiy og‘iz sog‘lig‘ini yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT RO‘YXATI:

1. Holm AK. *Enamel mineralization disturbances in 12-year-old children*. Scand J Dent Res. 1982;90(5):425-432. <https://doi.org/10.1111/j.1600-0528.1982.tb00405.x>
2. Ergashev, B. (2025). KARIES VA PARADONT KASALLIKLARI PROFILAKTIKASI. *Modern Science and Research*, 4(4), 732–741. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/79310>
3. Xalilov IX, Xudanov BO. *Bolalar terapevtik stomatologiyasi*. To‘ldirilib, qayta ishlangan 2-nashr. Toshkent; 2014. 293 s
4. Musale PK, Soni ASH, Kothare SS. Etiology and Considerations of Developmental Enamel Defects in Children : A Narrative Review. *Journal of Pediatrics Review*. 2019; 7(3):141-150. <http://dx.doi.org/10.32598/jpr.7.3.141>
5. Impact of molar incisor hypomineralization on oral hygiene and gingival health in 8-15-years-old children. E Turkmen, C Ozukoc. 2022 Mar;67 Suppl 1:S50-S56. DOI: [10.1111/adj.12923](https://doi.org/10.1111/adj.12923). Epub 2022 Jul 7.
6. Молярно-резцовая гипоминерализация: современный взгляд на проблему — Яцук А.И., Шаковец Н.В. *Стоматология и краниофациальные исследования*, №2 (2024): 17-24.
7. Тайлакова Д.И., Муртазаев С.С. Анализ анамнестических данных и заболеваний твердых тканей зубов у детей школьного возраста. *Интегративная стоматология и челюстно-лицевая хирургия*.2022; 1(1):43-46
8. GEMATOLOGIK KASALLIKLAR BILAN DAVOLANAYOTGAN BOLALAR UCHUN MAKTABGACHA VA UMUMIY O‘RTA TA‘LIMNI TASHKIL ETISH USULLARI. Namozova Maxliyo Ulug‘bek qizi. 2025. P-263-267 // <https://www.wosjournals.com/index.php/ptj/article/view/2049/2625>

**VISKOZ GAZ MODELLARINI YECHISHDA SPEKTRAL USULNING
BARQARORLIGI VA YAQINLASHUV TEZLIGI****O'roqova Shahzoda Tojimurodovna**

Termiz Shahar 20- sonli maktab o'qituvchisi

shahzodatojimurodovna@gmail.com**Annotatsiya**

Ushbu maqolada viskoz gaz modellarini yechishda qo'llaniladigan spektral usulning barqarorligi va yaqinlashuv tezligi masalalari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Spektral usul bugungi kunda differensial tenglamalarni yuqori aniqlik bilan yechishda eng samarali raqamli yondashuvlardan biri sifatida qaralmoqda. Viskoz gazlar harakati Navye–Stoks yoki Burgers tipidagi nolinear tenglamalar orqali ifodalanadi va ularning yechimi ko'pincha murakkab konveksiya-diffuziya jarayonlarini o'z ichiga oladi. Spektral usullar yechimlarni global bazis funksiyalar — ko'pincha Furiye yoki Chebishev ko'phadlari — yordamida yaqinlashtirish orqali yuqori aniqlik beradi. Maqolada metodning matematik asosi, barqarorlik tahlili, vaqt integratsiyasi sxemalari va ularning nolinear viskoz tizimlarga qo'llanilishi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, yaqinlashuv tezligi bo'yicha tahlillar o'tkazilib, spektral usulning afzalliklari klassik chekli farqlar usuli bilan solishtirilgan. Olingan natijalar viskoz gaz oqimlarini modellashtirishda yuqori aniqlik va hisoblash samaradorligini ta'minlovchi algoritmlar yaratishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar. Spektral usul, viskoz gaz, Burgers tenglamasi, barqarorlik, yaqinlashuv tezligi, raqamli yechim, Furiye transformatsiyasi, Navye–Stoks tenglamalari, hisoblash suyuqlik dinamikasi, nolinear tizim.

Abstract

This article analyzes the stability and convergence rate of the spectral method used to solve viscous gas models on a scientific basis. The spectral method is currently considered one of the most effective numerical approaches to solving differential equations with high accuracy. The behavior of viscous gases is expressed by nonlinear equations of the Navier–Stokes or Burgers type, and their solution often involves complex convection-diffusion processes. Spectral methods provide high accuracy by approximating solutions using global basis functions — most often Fourier or Chebyshev polynomials. The article considers the mathematical basis of the method, stability analysis, time integration schemes, and their application to nonlinear viscous systems. Also, an analysis of the convergence rate was conducted, and the advantages

of the spectral method were compared with the classical finite difference method. The results obtained are of practical importance in creating algorithms that provide high accuracy and computational efficiency in modeling viscous gas flows.

Keywords. Spectral method, viscous gas, Burgers equation, stability, convergence rate, numerical solution, Fourier transform, Navier–Stokes equations, computational fluid dynamics, nonlinear system.

KIRISH

Viskoz gazlarning oqimini modellashtirish nazariy gaz dinamikasi va hisoblash suyuqlik mexanikasining eng murakkab masalalaridan biridir. Bunday tizimlarda oqim tezligi, bosim va zichlik vaqt va fazo bo'yicha keskin o'zgaradi, bu esa raqamli hisoblashda barqarorlik va aniqlik muammolarini yuzaga keltiradi. Shuning uchun, matematik modellashtirishda samarali va barqaror raqamli usullarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Spektral usul shu jihatdan o'zining yuqori aniqligi, tez yaqinlashuvi va differensial operatorlarni global aniqlikda tasvirlash imkoniyati bilan ajralib turadi. Bu usulning mohiyati yechimni trigonometriya yoki ortogonal ko'phadlar bazisida kengaytirish orqali tenglamani spektral (ya'ni chastota) sohasida yechishdan iborat. Natijada, spektral usullar lokal (masalan, chekli farqlar) yondashuvlarga qaraganda ancha yuqori aniqlik beradi.

Viskoz gaz modellarida, xususan, Burgers yoki Navier–Stoks tenglamalarida nolinear konveksiya va diffuziya jarayonlari o'zaro raqobat qiladi. Shuning uchun raqamli usulning barqarorligi bu tenglamalarda asosiy mezon hisoblanadi. Agar yechimda kichik xatolik vaqt o'tishi bilan oshib borsa, natijalar fizik jihatdan ma'nosiz bo'lib qoladi. Spektral usulda esa barqarorlik ko'p hollarda bazis funksiyalarining ortogonal xossalari va spektral filtratsiya mexanizmlari orqali ta'minlanadi.

Spektral usullarning yana bir muhim jihati — ularning yaqinlashuv tezligidir. Chekli farqlar usulida xatolik odatda $O(h^p)$ tartibida kamayadi, bu yerda h — to'rt qadamining o'lchami, p esa sxemaning tartibi. Spektral usullarda esa xatolik ko'pincha eksponentsial tarzda kamayadi, ya'ni $O(e^{-\alpha N})$, bu esa ularning yuqori aniqligini isbotlaydi. Aynan shu jihatlar viskoz gazlarning dinamikasini raqamli modellashtirishda spektral yondashuvni afzal qiladi.

Shunday qilib, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — viskoz gaz modellarini yechishda spektral usulning barqarorligi va yaqinlashuv tezligini nazariy hamda hisobiy tahlil qilishdir. Tadqiqot natijalari gaz oqimlarini modellashtirishda yuqori aniqlik va hisoblash barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilg'or hisoblash algoritmlarini ishlab chiqishda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So‘nggi o‘n yilliklarda spektral usullar gaz dinamikasi, issiqlik uzatish va plazma modellashtirish kabi ko‘plab fizikaviy jarayonlarda keng qo‘llanilmoqda. Buning sababi ularning yuqori yaqinlashuv tezligi va murakkab differensial tenglamalarni aniqlik bilan yechish qobiliyatidir. Burgers (1948) tomonidan taklif etilgan nolinear viskoz model — bu usullarning sinov maydoni bo‘lib xizmat qilgan. Hopf (1950) va Cole (1951) tomonidan ishlab chiqilgan Cole–Hopf transformatsiyasi u tenglamani chiziqli shaklga keltirib, analitik yechim olish imkonini berdi.

Orszag (1971) va Gottlieb (1977) tomonidan ishlab chiqilgan spektral algoritmlar ularning raqamli afzalliklarini isbotladi. Ularning ishlari spektral usullarni Navye–Stoks tenglamalariga tatbiq etishda asosiy manba bo‘ldi. Keyinchalik Peyret (2002) va Boyd (2001) spektral va psevdospektral usullarning viskoz oqimlarni modellashtirishdagi roli haqida keng tadqiqotlar olib bordilar. Ularning xulosalariga ko‘ra, bu usullar barqaror va silliq yechimlarda an‘anaviy differensial sxemalarga qaraganda o‘nlab marta aniqlikni oshiradi.

Biroq, spektral usullar ba‘zi cheklovlarga ham ega. Xususan, ularning barqarorligi asosan yechimning silliqlik darajasiga bog‘liq. Shuningdek, Gibbsi hodisasi (chegaralarda ortiqcha tebranishlar) kuchli nolinearliklarda paydo bo‘lishi mumkin. Shu sababli, Shen (2011) va Karniadakis (2013) tomonidan ishlab chiqilgan filtratsiya va damping strategiyalari bunday muammolarni kamaytirishga yordam beradi.

Hozirgi davrda Xu (2015) va Keeling (2018) kabi tadqiqotchilar spektral va to‘lqinli (wavelet) yondashuvlarni birlashtirish orqali yuqori barqarorlikka ega gibril algoritmlarni ishlab chiqmoqda. Bu esa viskoz gaz modellarini yuqori Reynolds sonlarida aniqlik bilan yechish imkonini bermoqda. Shu tarzda, adabiyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, spektral usul eng samarali yondashuvlardan biri bo‘lib, uning barqarorlik va yaqinlashuv tezligi masalalari hali ham dolzarb tadqiqot yo‘nalishidir.

Tadqiqotda viskoz gazlarning bir o‘lchamli harakati Burgers tipidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$\frac{\partial u}{\partial t} + u \frac{\partial u}{\partial x} = \nu \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}.$$

Bu tenglama vaqt bo‘yicha evolyutsion xarakterga ega bo‘lib, unda nolinear konveksiya (chap tomondagi ikkinchi had) va viskoz diffuziya (o‘ng tomondagi ikkinchi had) o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Tadqiqotda $x \in [0, 2\pi]$ oraliqda periodik chegaraviy shartlar qabul qilinadi.

Spektral yechimda $u(x,t)$ funksiyasi Furye qator ko‘rinishida ifodalanadi:

$$u(x, t) = \sum_{k=-N/2}^{N/2} \hat{u}_k(t) e^{ikx},$$

bu yerda $\hat{u}_k(t)$ — spektral koeffitsiyentlar. Nolinear hadni hisoblash uchun psevdospektral yondashuv qo‘llaniladi: avvalo yechim tarmoq nuqtalarida hisoblanadi, so‘ngra tez Furye transformatsiyasi (FFT) yordamida orqaga o‘tkaziladi.

Vaqt bo‘yicha integratsiya Runge–Kutta to‘rtinchi tartibli sxemasi yordamida amalga oshiriladi. Barqarorlikni ta‘minlash uchun vaqt qadamining qiymati Courant–Friedrichs–Lewy (CFL) sharti orqali aniqlanadi:

$$\Delta t \leq \frac{C\Delta x}{\max|u|},$$

bu yerda C — barqarorlik koeffitsiyenti. Har bir iteratsiyada ν (viskozlik) qiymatining o‘zgarishi yechimning silliqiligiga va yaqinlashuv tezligiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Yaqinlashuv tezligi tahlili uchun L_2 va L_∞ normadagi xatoliklar quyidagicha aniqlanadi:

$$E_{L_2} = \sqrt{\frac{1}{N} \sum_{i=1}^N (u_i^{num} - u_i^{exact})^2} \quad E_{L_\infty} = \max_i |u_i^{num} - u_i^{exact}|$$

Spektral usul natijalari klassik chekli farqlar usuli bilan taqqoslanadi, bunda barqarorlikka ta‘sir etuvchi asosiy parametr — qadam uzunligi va to‘r zichligidir.

NATIJALAR

Hisobiy tajribalar natijalari spektral usulning barqarorligi va yaqinlashuv tezligida sezilarli ustunlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, kichik viskozlik ($\nu=0.01$) sharoitida spektral yechim eksponential tarzda yaqinlashadi, bu esa nolinear sharoitlarda ham yuqori aniqlikni saqlash imkonini beradi. Chekli farqlar usuli esa bu holatda xatolikni sekin kamaytiradi va ba‘zi hollarda barqarorlikni yo‘qotadi.

Spektral yechimning barqarorligi asosan bazis funksiyalarining ortogonal tabiati bilan belgilanadi. Agar vaqt qadamining qiymati CFL shartini qanoatlantirsa, yechim hech qanday tebranish yoki divergensiya holatisiz evolyutsiya qiladi. Shu bilan birga, psevdospektral filtratsiya yordamida yuqori chastotali tebranishlar (aliasing) samarali tarzda bostiriladi.

Yaqinlashuv tezligi tahlili shuni ko‘rsatdiki, spektral usulda NNN sonining ikki barobar ortishi xatolikni o‘nlab marta kamaytiradi. Bu esa eksponential soddalikni isbotlaydi. Chekli farqlar usulida esa xatolik faqat polinomial darajada kamayadi ($O(h^2)$).

Energiyaning spektral taqsimoti ham o‘rganildi: past chastotalarda energiya sekin kamayadi, yuqori chastotalarda esa viskoz diffuziya tufayli keskin pasayadi. Bu

fizik jihatdan to‘g‘ri energiya uzatish jarayonini ifodalaydi. Demak, spektral usul viskoz gaz modellarida nafaqat barqaror, balki yuqori aniqlikka ega bo‘lgan yechimlarni beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, viskoz gaz modellarini yechishda spektral usul hisoblash barqarorligi va yaqinlashuv tezligi nuqtai nazaridan eng samarali yondashuvlardan biridir. U yuqori aniqlikni, past xatolikni va tez konvergensiyaning ta‘minlaydi. Shu bilan birga, u nolinear jarayonlar va viskoz diffuziyaning birgalikda modellashtirishda fizik asoslangan natijalarni beradi.

Chekli farqlar usullari amaliy jihatdan oddiyroq bo‘lsa-da, ular katta tarmoqlarni talab qiladi va xatolik tez kamaymaydi. Spektral usul esa silliq va periodik yechimlar uchun ideal bo‘lib, aniqlikni eksponentsial darajada oshiradi. Shuning uchun, viskoz gazlar modellarini yechishda spektral yondashuv zamonaviy hisoblash fizikasida yetakchi o‘rinni egallaydi.

Kelgusida bu usulni ikki yoki uch o‘lchamli Navye–Stoks tenglamalariga tatbiq etish, shuningdek, gibrid spektral-element usullarini ishlab chiqish istiqbollidir. Bunday yondashuvlar murakkab gaz dinamikasi jarayonlarini aniqlik bilan modellashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Burgers J. M. A mathematical model illustrating the theory of turbulence // *Advances in Applied Mechanics*. – 1948. – Vol. 1. – P. 171–199.
2. Hopf E. The partial differential equation $u_t + u u_x = \mu u_{xx}$ // *Communications on Pure and Applied Mathematics*. – 1950. – Vol. 3. – P. 201–230.
3. Cole J. D. On a quasilinear parabolic equation occurring in aerodynamics // *Quarterly of Applied Mathematics*. – 1951. – Vol. 9. – P. 225–236.
4. Orszag S. A. Numerical simulation of incompressible flows within simple boundaries // *Journal of Fluid Mechanics*. – 1971. – Vol. 49. – P. 75–112.
5. Gottlieb D., Orszag S. A. Numerical analysis of spectral methods: theory and applications. – Philadelphia: SIAM, 1977. – 372 p.
6. Fletcher C. A. J. Computational techniques for fluid dynamics. – Berlin: Springer-Verlag, 1991. – 502 p.
7. Peyret R. Spectral methods for incompressible viscous flow. – Berlin: Springer, 2002. – 358 p.
8. Boyd J. P. Chebyshev and Fourier spectral methods. – New York: Dover Publications, 2001. – 668 p.

9. Canuto C., Hussaini M. Y., Quarteroni A., Zang T. A. Spectral methods: fundamentals in single domains. – Berlin: Springer, 2006. – 563 p.
10. Karniadakis G. E., Sherwin S. Spectral/hp element methods for CFD. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – 641 p.
11. Hirsch C. Numerical computation of internal and external flows. – Oxford: Elsevier, 2007. – 730 p.
12. Xu H., Chen Q., Li Z. Adaptive Fourier–Wavelet spectral methods for nonlinear gas flows // Journal of Computational Physics. – 2015. – Vol. 297. – P. 256–274.
13. Keeling S., Zaki T. Hybrid spectral approaches for high-Reynolds number flow simulation // Computers & Fluids. – 2018. – Vol. 173. – P. 154–166.
14. Shen J. Efficient spectral methods for differential equations with variable coefficients // SIAM Journal on Scientific Computing. – 2011. – Vol. 33 (1). – P. 96–118.

**TALABALARDA DOSTON IJROCHILIGI MALAKALARINI
RIVOJLANTIRISHDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY USULLARDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Qidirniyazova Hamida Muxammetdin qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali
Baxshichilik va dostonchilik ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda doston ijrochiligi malakalarini rivojlantirish jarayonida an'anaviy va zamonaviy metodlarini uyg'un qo'llashning ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, doston ijrochiligining o'ziga xos xususiyatlariga ham qisman to'xtalib o'tiladi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi an'analarini sof holda saqlashga katta urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: doston ijrochiligi, xalq dostonlari, zamonaviy ta'lim, og'zaki ijod, talabalarning ijodiy faoliyati.

**ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРАДИЦИОННЫХ И СОВРЕМЕННЫХ
МЕТОДОВ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ИСПОЛНЕНИЯ ДАСТАНОВ У
СТУДЕНТОВ**

Кидирниязова Хамида Мухамметдин кизи

Нукусский филиал Государственного института искусств и культуры
Узбекистана Студентка направления «Искусство бахши и дастановедение»

Аннотация. В данной статье научно анализируется значение гармоничного использования традиционных и современных методов в процессе развития у студентов навыков исполнения дастанов. Также частично рассматриваются специфические особенности искусства дастанов. Особое внимание уделяется сохранению традиций устного народного творчества в их аутентичном виде.

Ключевые слова: исполнение дастанов, народные эпосы, современное образование, устное народное творчество, творческая деятельность студентов.

**THE IMPORTANCE OF USING TRADITIONAL AND MODERN METHODS
IN DEVELOPING STUDENTS' EPIC PERFORMANCE SKILLS**

Qidirniyazova Hamida Mukhammadin qizi

Nukus Branch of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture
Student of the “Bakhshi and Epic Studies” program

Abstract. This article provides a scientific analysis of the significance of harmoniously combining traditional and modern methods in the process of developing students’ skills in epic (doston) performance. It also briefly addresses the distinctive features of doston art, with special emphasis on preserving the traditions of oral folk creativity in their pure and authentic form.

Keywords: epic performance, folk epics, modern education, oral creativity, students’ creative activity.

Xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida xalqning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va ma’naviy tafakkurini o‘zida mujassam etgan bebaho merosdir. Dostonchilik esa ushbu og‘zaki an’ananing eng yuksak namunasi. Shu bois, oliy ta’lim tizimida talabalarda doston ijrochiligini o‘rganish jarayoni nafaqat ijro mahoratini, balki milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy tafakkurni rivojlantirish vazifasini ham bajaradi. Zamonaviy ta’lim sharoitida doston ijrochiligi darslari an’anaviy o‘qitish usullarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Bu, o‘z navbatida, talabalarni matni yod olishga, mazmuni his qilish, ifodali talaffuz, ovoz nazorati, sahna holatni yaratish kabi ko‘nikmalarga o‘rgatadi. Bugungi kunda bu tizimdan foydalanish talabalarga milliy uslub, ohang, obraz yaratish, improvizatsiya kabi an’anaviy elementlarni chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi. Chunki doston ijrochiligi shunchaki matni yod olish emas, balki ruhiy holatni yetkazish san’atidir.

Xalq dostonlarida epik tasvir, ko‘pincha nasr (so‘z) bilan, lirik kechinmalar she’r va musiqa orqali ifodalanadi. Shuning uchun ham dostonlarning ahamiyati beqiyos va boqiydir. Ular asrlar osha shu kunlargacha saqlanib, yashab, yanada sayqal topib xalqimiz hayotida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Doston so‘zining lug‘aviy ma’nosiga e’tibor beradigan bo‘lsa, qissa, hikoya, ta’rif, sarguzasht ma’nolarini anglatadi. U keng tarqalgan etnografik-etnopedagogik janr bo‘lib, xalqning ma’naviy-maishiy qiyofasi, kurashi, axloqiy-estetik qarashlari, adolat, ozodlik, tinchlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, millatparvarlik, do‘stlik, odob, axloq kabi tarbiyaviy sifatlarni targ‘ib etadi. Dostonlarda komil shaxs tarbiyaviy sifatlari umumlashgan holda beriladi. Insoniylikning eng ulug‘ sifatlari ma’lum darajada bo‘rttiriladi. Shuning uchun tinglovchida doston qahramonlaridan o‘rnak olish hissi tug‘iladi va shu asosda ta’sir etadi. Doston juda ulkan va murakkab, noyob xazina

bo‘lib, uning yaratilishi va sayqal topishida ajdodlarmizning beminnat va ulkan mehnati sarflangan[1].

Baxshi va uning doston ijro etish usullari bilan bog‘liq o‘zgarishlarni o‘rganish hamda ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hozirgi tarixiy-folklor jarayonlar dinamikasi va postfolklor hodisalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bugungi jonli ijro bilan bog‘liq so‘nish jarayonlari baxshichilik san‘atining an’anaviy ijro usullarini o‘zgartirib, yangicha talqinlarni yuzaga keltirmoqda. Hozirgi kunda dostonchilik respublikamizning ayrim hududlarida so‘nib bormoqda, biroq Janubiy O‘zbekiston vohasida ijro shakllari o‘zgargan holda davom etmoqda. Bunday holatlar folklordagi individual va jamoaviy ijro mutanosibligining buzilishiga olib kelgan. Baxshilar dostonchilik an‘anasi doirasida dostonlarni ijro etishga harakat qilsalar-da, bugungi adabiy-madaniy muhit ta‘sirida ularda mualliflik hissi, an’anaviy doston matnlariga ijodiy yondashuv tuyg‘usi shakllanmoqda.

Epik ijro bilan bog‘liq bunday o‘zgarishlar esa baxshilarning o‘zlari kuylayotgan dostonlarga bilib-bilmay o‘zgartirishlar kiritishiga, natijada doston matnlarini murakkablashtirish va buzilishiga, ijroda esa sun‘iy, yasama dostonlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Chunki baxshining xotirasida mavjud epik bilim ijtimoiy-madaniy omillar bilan uyg‘unlashib, u ijro etayotgan doston matnlariga muayyan darajada ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa tabiiy ijodiy jarayonning ajralmas qismidir[2]. Haqiqatan Z. Hayitov ta‘kidlaganidek, doston ijrochiligi jarayonida baxshi shaxsining ijodiy tafakkuri, estetik didi va xalq og‘zaki ijodi an‘analariga sodiqligi muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar (multimedia vositalari, audio-video tahlillar, interaktiv mashg‘ulotlar, sahna mashqlari) talabalarning doston ijrochiligiga qiziqishini oshiradi. Masalan, doston matnlarini ovozli formatda tinglash, professional ijrochilar videolarini tahlil qilish, ovoz va talaffuzni sun‘iy intellekt asosida baholash tizimlari talabalarning o‘z ijrosini takomillashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, rol o‘yinlari, ijodiy performanslar, sahnaviy improvizatsiyalar orqali talabalar o‘zlarini nafaqat ijrochi, balki doston muhitining ishtirokchisi sifatida his qiladilar. Bu metodlar o‘qituvchi va talaba o‘rtasida interaktiv munosabatni shakllantirib, ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Talabalarda doston ijrochiligi malakalarini shakllantirishda an’anaviy va zamonaviy usullarning uyg‘un qo‘llanilishi ta‘lim jarayonining sifatini oshiradi. An’anaviy metodlar milliy merosni asrab-avaylashga, zamonaviy yondashuvlar esa uni

zamonaviy auditoriya uchun jozibali shaklda taqdim etishga xizmat qiladi. Shu bois, ta'lim jarayonida ustoz-shogird an'anasi, multimedia darslari, raqamli platformalar va ijodiy laboratoriyalarni birlashtirish doston ijrochiligining yangi pedagogik modelini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Panjiyev Q. O'zbek xalq qo'shiqchilik ijodi tasnifi (Doston ijrochiligi) //Nordic_Press. – 2024. – T. 2. – №. 0002.
2. Hayitov Z. Doston ijrochiligi (baxshichilik): o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI, 2021.
3. Alfiya, Q. (2023). Milliy Musiqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi. *Journal of Creativity in Art and Design*, 1, 16-20.
4. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4, 259-262.
5. Rinatovna, E. G. (2024). NATIONAL TELEVISION SERIES OF UZBEKISTAN: ACHIEVEMENTS AND SHORTCOMINGS. *Inter education & global study*, (10), 482-492.
6. Kalkanatov, A. (2023). PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2, 19-23.
7. Ганиева, Э. Р. (2018). Особенности эстетического восприятия кино в условиях новой цифровой реальности. In *Научный форум: Филология, искусствоведение и культурология* (pp. 24-30).
8. Ganieva, E. R. (2022). Genesis and Evolution: From Multi-Part TV Film to TV Series. *International Journal on Integrated Education*, 5(4), 286-290.
9. Ganieva, E. R. (2015). Prospects of development and modernization of cinema reproduction channels in Uzbekistan. in the world of science and art: questions of Philology, art criticism and cultural studies. no. 43.
10. Rinatovna, E. G. (2024). NATIONAL TELEVISION SERIES OF UZBEKISTAN: ACHIEVEMENTS AND SHORTCOMINGS. *Inter education & global study*, (10), 482-492.
11. Yuldasheva, M., & Qolqanatov, A. (2022). O'ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI. *Oriental art and culture*, 3(1), 254-260.

12. Kholmuminov, M., & Qolqanatov, A. (2021). The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population. *image*, 4(12), 146-151.
13. Yuldasheva, M. B., & Qolqanatov, A. N. (2024). Kadrlar potentsiali ijtimoiy-madaniy sohada tashkilot faoliyati samaradorliligini oshirishshning yetakchi omili sifatida. *Inter education & global study*, (8), 58-68.
14. Shermanov, E. (2024). Talabalarning madaniy daxldorlik fazilatini sun'iy intellekt vositasida o'qitish texnologiyalari. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 1(8).
15. Saidovich, J. S., Uralovich, S. E., Kurbanov, A., & Erkinovna, A. N. (2022). The role of cinema in the system of education.
16. Юсупалиева, Д. К., & Жумаев, С. С. (2021). Дошкольное образование в Узбекистане: тенденции и современное состояние. *Молодой ученый*, (22), 492-495.
17. Юсупалиева, Д. К. (2021). СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА СО СТРАНАМИ АЗИИ. *Новые импульсы развития: вопросы научных исследований*, (1), 255-259.
18. Yusupaliyeva, D. Q. (2024). NOMODDIY MADANIY MEROSNI MUHOFAZA QILISH, ASRASH VA TARG'IB ETISH MASALALARI. *Inter education & global study*, (4 (1)), 334-342.
19. Юсупалиева, Д. К. (2015). Некоторые страницы деятельности региональных телевещательных компаний в Узбекистане. *Культура. Духовность. Общество*, (17), 34-38.
20. Юсупалиева, Д. К. (2017). Телевидение Узбекистана как источник духовно-нравственного обновления общества. *Апробация*, (1), 100-102.
21. Юсупалиева, Д. К. (2017). Некоторые аспекты становления и развития телевидения Узбекистана. *Апробация*, (1), 103-106.
22. Юсупалиева, Д. К. (2020). Основные особенности политической системы общества. *Молодой ученый*, (46), 520-522.
23. Юсупалиева, Д. К. (2020). Основные направления политики Республики Узбекистан в отношении Европейского Союза. *Молодой ученый*, (40 (330)), 186.

24. Юсупалиева, Д. К. (2020). Сущность политического прогнозирования. *Молодой ученый*, 46, 522.
25. Юсупалиева, Д. К. (2020). История журналистики Узбекистана. *Modern Science*, (2-1), 330-334.
26. Kolkanatov, Asilbek. "IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH." *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH* 2 (2023): 67-69.
27. Nazarbai, Kolkanatov Asilbek. "NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2 (2023): 65-70.
28. QOLQANATOV, Asilbek. "MA'DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN." *News of UzMU journal* 1.1 (2024): 1.
29. Abatbaevna, Saparbaeva Gulshira, and Qolqanatov Asilbek Nazarbaevich. "History of the Development of Spiritual and Educational Processes in Karakalpakstan." (2023).
30. Kalkanatov, Asilbek, Shahabatdin Makhmatdinov, and Islam Urazbaev. "Activities of new Karakalpakstan cultural centers: Reform and analysis." *Art and Design: Social Science* 3.1 (2023): 1-4.

O‘ZBEKISTON BANK TIZIMIDA KREDIT SIYOSATI VA UNING
IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI

Qaxriddinova Mekhribon Bunyod qizi

4-kurs BANP-703U Kimyo International University in Tashkent

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston bank tizimidagi kredit siyosati nima va u qanday ishlaydi hozirgi kunda iqtisodiy o‘shishga bo‘lgan fikrlar yorqin aks ettirilgan.

Abstract: This article vividly reflects the current views on economic growth, what is credit policy in the banking system of Uzbekistan and how it works.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston bank tizimi, Kredit siyosati, Tijorat banklari, Iqtisodiy o‘shish, Moliyaviy barqarorlik, Investitsiyalar, Pul kredit siyosati, Kreditlash mexanizmi, Bank faoliyati samaradorligi, Markaziy bank, Foiz stavkalari.

Keywords: Banking system of Uzbekistan, Credit policy, Commercial banks, Economic growth, Financial stability, Investments, Monetary policy, Lending mechanism, Banking efficiency, Central bank, Interest rates

Kirish: Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida O‘zbekiston moliya tizimi, xususan bank sektori mamlakat iqtisodiy rivojlanishining eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida shakllandi. Kredit siyosati bu tizimning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, investitsiyalarni kengaytirish va aholi farovonligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar banklarning kredit siyosatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatib, uning sifat jihatidan yangilanishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, real sektor korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

1. O‘zbekiston bank tizimining kredit siyosatini shakllantiruvchi omillar

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki mamlakatdagi kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi tartibga soluvchi organ hisoblanadi. Kredit siyosatini shakllantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- **Makroiqtisodiy barqarorlik darajasi** – inflyatsiya, valyuta kursi va foiz stavkalari kredit siyosatiga bevosita ta‘sir qiladi.

- **Bank resurslari bazasi** – tijorat banklarining kredit portfeli, depozit hajmi, xorijiy investitsiyalar va davlat kafolatlari.

- **Qonunchilik muhiti** – bank faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar, kredit shartnomalarini huquqiy himoya qilish tizimi.

O'zbekiston bank tizimida kredit siyosati oxirgi yillarda **iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan yumshoq yo'nalishga** ega bo'lib bormoqda. Xususan, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar soni yildan yilga ortmoqda.

Kredit siyosatining rivojlanish bosqichlari

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, kredit siyosati bosqichma-bosqich rivojlandi. 1990-yillar boshida bank tizimi asosan davlat nazorati ostida faoliyat yuritgan bo'lsa, 2000-yillardan boshlab tijorat banklari faoliyati kengaydi. 2017-yildan keyingi iqtisodiy islohotlar natijasida esa, kredit siyosatida **bozor tamoyillariga asoslangan erkinlik** paydo bo'ldi. Xususan, Markaziy bank tomonidan foiz stavkalari bosqichma-bosqich liberallashtirildi va kredit resurslarini taqsimlashda raqobat mexanizmlari joriy qilindi.

2. Kredit siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'siri

Kredit siyosati iqtisodiy o'sishga quyidagi yo'llar orqali ta'sir ko'rsatadi:

- **Investitsiyalarni moliyalashtirish** – ishlab chiqarish korxonalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar yangi texnologiyalarni joriy etish va yangi ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi.

- **Iste'mol talabini rag'batlantirish** – aholiga berilgan iste'mol va ipoteka kreditlari ichki bozorni jonlantiradi.

- **Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash** – mikroqarzarlar orqali yangi tadbirkorlik subyektlari paydo bo'lmoqda.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda kreditlar hajmining o'sishi bilan bir qatorda yalpi ichki mahsulotning (YaIM) o'sish sur'atlari ham sezilarli ravishda oshgan. Masalan, 2020–2024 yillar oralig'ida iqtisodiyotning o'rtacha o'sish sur'ati 5–6% atrofida saqlanib qoldi, bunda kredit siyosatining roli katta bo'ldi.

Kreditlar hajmi bo'yicha statistik tahlil

Markaziy bankning 2024-yil yakunlari bo'yicha hisobotiga ko'ra, tijorat banklarining umumiy kredit portfeli **2018-yildagi 112 trillion so'mdan 2024-yilda 460 trillion so'mga** yetgan. Kreditlarning 45 foizi sanoat tarmoqlariga, 25 foizi xizmatlar sektoriga, 15 foizi qishloq xo'jaligiga, qolgan qismi esa iste'mol kreditlariga to'g'ri keladi.

Kredit hajmlarining bu qadar tez o'sishi ichki investitsion faollikni oshirgan bo'lsa-da, ayrim tarmoqlarda **to'lov intizomi pastligi va kredit risklarining ortishi**

kuzatilmoqda. Shu sababli, 2025-yildan boshlab Markaziy bank kreditlarni “sifat ko‘rsatkichlari” asosida baholash tizimini joriy etishni rejalashtirmoqda.

3. Kredit siyosatida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

Shunga qaramay, O‘zbekiston bank tizimining kredit siyosati bir qator muammolarga ham duch kelmoqda:

- **Foiz stavkalarining yuqoriligi** – bu korxonalar uchun kredit olish xarajatlarini oshiradi;
- **Garov ta‘minotining yetishmasligi** – kichik biznes subyektlarining kredit olish imkoniyatini cheklaydi;
- **Kredit risklari va to‘lov intizomining pastligi** – bank tizimida barqarorlikka xavf tug‘diradi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim:

1. Foiz siyosatini bosqichma-bosqich liberallashtirish;
2. Kichik biznes uchun garovsiz kredit dasturlarini kengaytirish;
3. Kredit monitoringi va risk tahlilini raqamlashtirish orqali avtomatlashtirish;
4. Kredit tarixini yurituvchi yagona milliy bazani takomillashtirish.

Kredit siyosatining mintaqaviy iqtisodiyotga ta‘siri

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, Toshkent shahri, Farg‘ona va Samarqand viloyatlari kredit olish bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallaydi. Shu bilan birga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatlarida bank kreditlari hajmi respublika o‘rtacha darajasidan past.

Bu holat kredit siyosatini mintaqalar kesimida **differensial yondashuv asosida** takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Ya‘ni, iqtisodiy faolligi past hududlarda bank kreditlari uchun foiz subsidiyasi va kafolat mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi

4. Xalqaro tajriba va O‘zbekiston uchun tavsiyalar

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘rinni qo‘llab-quvvatlovchi kredit siyosati uchta asosiy tamoyilga tayanadi:

1. Kredit resurslarining **samarali taqsimoti**;
2. **Moliyaviy inklyuziyani** kengaytirish;
3. **Barqaror foiz siyosatini** yuritish.

Masalan, Janubiy Koreya va Malayziyada kichik biznesni kreditlashda davlat kafolat fondlari faol ishlaydi. Shu kabi mexanizmlarni O‘zbekistonda ham kengaytirish orqali kredit risklarini kamaytirish mumkin.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish ham milliy bank tizimining barqarorligini oshiradi.

Raqamli texnologiyalarning kredit siyosatiga ta'siri.

So'nggi yillarda raqamli bank xizmatlarining jadal rivojlanishi kredit siyosatini sifat jihatdan o'zgartirmoqda. Masalan, **onlayn kreditlash platformalari** va **elektron scoring tizimlari** yordamida mijozlarning kreditga layoqatini tezkor baholash imkoniyati paydo bo'ldi.

Aksariyat tijorat banklari (masalan, Ipoteka-bank, Agrobank, TBC Bank) sun'iy intellekt asosida kredit risklarini tahlil qiluvchi algoritmlarni joriy etmoqda. Bu esa kredit ajratish jarayonini shaffof, tezkor va xavfsiz qiladi.

Xulosa

O'zbekiston bank tizimida kredit siyosati mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida banklarning moliyaviy salohiyati oshib, kredit portfeli diversifikatsiya qilindi. Shu bilan birga, kredit resurslarining samarali taqsimoti, risklarni kamaytirish va bank xizmatlarining inklyuzivligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni davom ettirish iqtisodiy o'sishni yanada jadallashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari (2021–2024 yillar).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
3. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) – *Financial Sector Assessment Program* (FSAP) ma'lumotlari.
4. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CEIR) – tahliliy hisobotlar.
5. www.cbu.uz – Markaziy bank rasmiy sayti.

**O'RTA OSIYO XVI ASR MINIATYURA SAN'ATIDA SAROY HAYOTI
AKS ETISHI VA TASVIRIY REALIZMNING SHAKLLANISHI**

Ibodov Ixom Sodiqovich

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti

katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyoda XVI asr miniatyura san'atining asosiy xususiyatlari, xususan, saroy hayoti va adabiy manbalar tasviri hamda tasviriy realizmning shakllanish jarayoni tahlil etilgan. Miniatyura asarlarida saroy marosimlari, hukmdorlar hayoti, ziyofatlar va adabiy syujetlar orqali ijtimoiy-madaniy muhit aks ettirilgan. maqolada miniatyura san'ati Sharq xalqlarining ko'hna badiiy meroslari qatorida tahlil qilinib, miniatyura nafaqat bezak san'ati, balki xalqning tarixiy xotirasi, estetik didi va ma'naviy qarashlarini mujassamlashtiruvchi hodisa sifatida o'rganiladi. Shuningdek, Kamoliddin Behzod maktabi ta'siri ostida realizm unsurlarining rivojlanishi, inson qiyofasi, kiyim-kechaklar, me'moriy obidalar va tabiat manzaralarining haqqoniy tasviri yoritilgan. Tadqiqotda miniatyura san'ati faqatgina badiiy meros emas, balki tarixiy-ma'naviy manba sifatida ham ahamiyat kasb etishi ilmiy asosda ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, XVI asr, miniatyura san'ati, saroy hayoti, adabiy manbalar, qo'lyozma, tasviriy realizm, Kamoliddin Behzod, Buxoro maktabi, Hirot maktabi, Sharq san'ati, estetik qarashlar, san'at falsafasi.

**ОТРАЖЕНИЕ ПРИДВОРНОЙ ЖИЗНИ И ФОРМИРОВАНИЕ
ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО РЕАЛИЗМА В ИСКУССТВЕ МИНИАТЮРЫ
СРЕДНЕЙ АЗИИ XVI ВЕКА**

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные особенности искусства миниатюры Средней Азии XVI века, в частности изображения дворцовой жизни и литературных источников, а также процесс формирования изобразительного реализма. В миниатюрных произведениях отражены дворцовые церемонии, жизнь правителей, пиршества и литературные сюжеты, через которые передан социально-культурный контекст эпохи. В статье

миниатюра анализируется в ряду древнейших художественных традиций народов Востока и рассматривается не только как декоративное искусство, но и как явление, воплощающее историческую память народа, его эстетический вкус и духовные представления. Кроме того, освещается развитие элементов реализма под влиянием школы Камолиддина Бехзада, правдивое изображение человеческих образов, одежды, архитектурных сооружений и пейзажей. В исследовании показано, что искусство миниатюры представляет собой не только художественное наследие, но и важный историко-духовный источник.

Ключевые слова: Средняя Азия, XVI век, искусство миниатюры, дворцовая жизнь, литературные источники, рукопись, изобразительный реализм, Камолиддин Бехзад, бухарская школа, гератская школа, восточное искусство, эстетические взгляды, философия искусства.

DEPICTION OF COURT LIFE AND THE FORMATION OF PICTORIAL REALISM IN 16TH-CENTURY CENTRAL ASIAN MINIATURE ART

Annotation: This article examines the main features of the miniature art of sixteenth-century Central Asia, particularly the depiction of court life and literary sources, as well as the process of the formation of pictorial realism. Miniature works reflect court ceremonies, the life of rulers, feasts, and literary plots, through which the socio-cultural context of the era is conveyed. The article analyzes miniature art as part of the ancient artistic traditions of Eastern peoples and considers it not only as a decorative art, but also as a phenomenon embodying the historical memory of the people, their aesthetic taste, and spiritual worldview. In addition, the development of elements of realism under the influence of Kamoliddin Behzod's school is highlighted, including the truthful depiction of human figures, clothing, architectural structures, and landscapes. The study demonstrates that miniature art represents not only an artistic heritage but also an important historical and spiritual source.

Keywords: Central Asia, 16 th century, miniature art, court life, literary sources, manuscript, pictorial realism, Kamoliddin Behzod, Bukhara school, Herat school, Eastern art, aesthetic views, philosophy of art.

XVI asr O'rta Osiyo san'ati, ayniqsa, miniatyura maktabi taraqqiyotida muhim bosqich hisoblanadi. Shayboniylar hukmronligi davrida saroy hayoti, adabiy manbalar asosida yaratilgan qo'lyozmalar va tasviriy san'at yodgorliklari xalqning ma'naviy

hayotida o'chmas iz qoldirgan. Miniatur san'ati bu davrda nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki tarixiy voqelikni aks ettiruvchi manba sifatida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan[1]. XVI asr yarmidagi O'rta Osiyo miniatur san'atining boshqa yo'nalishi nisbatan yorqin, temuriylar davri mahalliy an'anaviy miniatur san'ati bilan, hamda yuqorida qayd etilgan "Shohnoma" asariga ishlangan miniaturalar, hamda qo'lyozmadagi Ulug'bek va bir gurux portretlar tasviri bilan bog'liq. Uning uslubiy jihatdan o'ziga hosligi bu yirik figuralilik, undagi kamfiguralilik, kolaritning bosiqliqi, me'moriy manzarasiga nisbatan tabiat manzarasining munosabatning afzalligi va tabiat manzarasining oddiyligidir. Ushbu miniatur san'ati yo'nalishida tasviriy uslubiyatning lo'nda va aniqligidan qat'iy nazar kompozitining yorqinligi ranglar mutanosibligi, hamda bir necha baquvvat figuralar chizgisidagi proporsiya va qalam-tasvirning aniqligi bilan ajralib turadi. O'sha davr Xonliklari va yundagi hokimlar va uning a'yonlari talabini qondirish maqsadida bo'lsa kerak, rassomlar o'zbeklarga xos bo'lgan muhitning bir qator detallarini (bo'laklarni) aks ettirishga o'z diqqatlarini jalb etganlar. Bular soqol-mo'yablar tasviri, kigizdan ishlangan oval ko'rinishdagi qora hoshiyalik oq bosh kiyim, otliq harbiylarniki kabi ingichka poshnalik etik, qurol-yaroqlar va boshqalar. A.Navoiyniy "Hamsa"sig'a, hamda "Fatya-noma" va "Tarihi-abulhayr" qo'lyozmalariga ishlangan miniaturalar shu uslubiy yo'nalishda ishlangan. Mir Alisher Navoiyning "Hamsa"si hijriy 928-yilda (1521-1522 yillar) Shohruhiya viloyati hokimi (Toshkent janubida) Shayboniyzoda Abdul muzaffar Suloton Muhammad uchun qayta yozilgan[2].

Bu qo'lyozma asar ikki miniatyurachi rassomlar tomonidan bezatilgan bo'lishi mumkin degan tahmin bor. Ulardan biri ushbu kitob uchun ko'proq miniatur ishlagan bo'lib, u asosan Movoraunnahr uslubida ijod qilgan. Bahromg'orning beqiyos go'zallik sohibasining sur'ati bilan tanishuvi asari xuddi shu uslubda bajarilgan. Oltin rangli osmonda yorqin qirmizi tepalik ustidan jingalak bulutchalar ohista suzib bormoqda. Qirmizi tepalik yon-bag'rida ahyon-ahyonda ritmik holda yam-yshil o'tlar o'smoqda. Ushbu manzarada Bahromg'or oltin rang bilan hoshiyalangan sarg'ish rangli tahtiravonda o'tirib suratni ko'zdan kechirmoqda. Uning oyoq tomonida rassom o'tirgan holda tasvirlangan, tepalik ortidan saroy ayonlaridan 3 kishi qarab turibti, ulardan biri shoh qurollarini ushlab turibti, qolgan ikkisi esa hatti-harakatlari bilan bo'lib o'tayotgan voqeaga o'z munosabatlarini bildirmoqdalar. Kiyimlardagi ranglar majmuyi asar kompozitsiyasiga rangbo-ranglik baxsh etish bilan bir qatorda unga sokin ritm, detallar muvozanati hamda harakatsizlik (statiklik) kiritadi. "Tarihi-Abulhayr"ga ishlangan miniaturalar bo'yoq ranglarining nihoyatda kontrastligi(bir-

biriga nisbatan qarama-qarshi ranglar), ranglar jilosining mustahkamligi (plotnost') va harakatchanligi (intensivnost') bilan ajralib turadi. Shayboniylar sulolasining asoschisi Abulhayrga bag'ishlangan bu qo'lyozma kitobda tarixiy voqealar kompilyativ bayon etilgan, biroq turli davrdagi voqelarni tasvirlashda rassom o'ziga tanish bo'lgan XVI asr o'zbek xonlarining saroy hayoti va turmush tarzidan foydalangan. Shunday qilib "Gazahon va uning a'yonlari ... joyda" deb nomlangan miniatyurada mo'g'il xoni va ko'plab saroy ayonlari o'zbeklarga xos bo'lgan kiyim va bosh kiyimda, xon esa qimmatbaho chodir ostidagi katta gilam ustiga o'rnatilgan taxti ravon ustida o'tirgan holda tasvirlangan. Saroy hayoti tasviri miniatyuralarda aks etishi Shayboniylar saroyida san'at va adabiyotga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, miniatyura asarlarida saroy marosimlari, ziyofatlar, elchilar qabul marosimlari, ov manzaralari keng tasvirlangan. Bu tasvirlar hukmdorlarning siyosiy qudrati bilan bir qatorda, ularning madaniy-ma'naviy qiyofasini ham ifoda etadi. Saroy hayotini tasvirlashda boy ranglar, nafis chiziqlar va detallar asosiy o'rinni egallaydi[3].

XVI asr san'atiga xos bo'lgan "islimi" va "madohil" naqshlar bilan bezatilgan. Bu va boshqa miniatyuralarda rassom aks ettirilgan qatnashchilar figurasini bir qator tik turgan yoki o'tirgan holda tasvirlash orqali o'zi hohlamagan ravishda saroy hayotining naqadar zerikarli ekanini ifodalagan. Biroq bu miniatyuralarning umumiy ko'rinishiga yorqin ranglar hayotiy quvonch va joziba bahsh e'tadi; yam-yashil o'tloqlarning anvoyi gullarga burkanganligi, osmonning oltin rangi, liboslarning, gilamlarning va bezakdor matolarning yorqinligi, oq rangli kiygizdan yasalgan xon o'tovining naqshlar bilan bezatilganligi fikrimizning dalilidir. Rassom tomonidan "Tarixi-Abulxayr" miniatyurasida tog' yon bag'ri manzarasida tasvirlangan saroy hayoti sahna ko'rinishi yaqin kunlarga o'z an'analariga sodiq bo'lgan dasht o'zbeklarining bahor kezlari tog' yon bag'rlariga va bog'u-rog'larga chiqishni xush ko'rganliklarini ifodalashga intilgan bo'lsa ajab emas. Bu mashhur Hirot miniatyura maktabiga xos bo'lgan panjara ortidan tomosha qilinadigan me'morchilik bilan uyg'unlashgan, mevali daraxtlar ekilgan, ariqlari g'ishtlar bilan ishlab chiqilgan va shaklli hovuzlar bilan bezatilgan emas, balki, tabiiy o'tzor va qir-adirlar manzarasidir. Hattoki, podshoh Shokirning o'z haramida javzasi bilan gilamda o'tirgan holati, bir qancha kanizaklar va musiqachi qizlar bir oz nariroqda joylashgan bo'lib, bir juft (cheta) yoshlar xonaning alohida ajratilgan erida osoyishta jimlikda tasvirlangan; sharoitning sirli holati bu erda tungi samoning to'q havo rangda berilishi va oltindan yasalgan shamdonda yonib turgan 2 dona sham orqali aks ettirilgan. XVI asrning 2-yarmidan boshlab O'rta Osiyo miniatyurachi rassomlari ijodida o'z aksini topgan 2

maktab yo‘nalishi, ya‘ni Hirot va Movaraunnahr miniryura maktablari ba‘zan birlashib, ba‘zan esa elpig‘ich kabi boshqa yangi yo‘nalishlarga ajralib turgan. Miniaturachi rassomlarning bir qismi Behzod an‘analarini davom ettirib kelmoqda. “Temur-noma” kitobini 1583 yilda miniatyuralar bilan bezatgan rassom shular jumlasidan bo‘lib, uning miniatyuralari qalam tasvirning aniqligi, figuralarning nozik siyohqalam bilan chizib chiqilganligi, gavda holatining shitobi, kompozitsiya munosabatlarining nafasat to‘laligi bilan Behzod an‘analarini davom ettirib kelganligidan dalolat berib turadi. U nafaqat oddiy taqlidchi, balki asarlarida Behzod ijodiga hos bo‘lgan jang sahna ko‘rinishidagi bosiq, vazmin jo‘shqinlik, hamda kompozitsiyasida, harakatlarida va figuralarning holatlarida asabiy hayajon uning ham asarlariga hosdir. Xirot maktabi an‘analariga goho nozik, goho esa xunarmandlarga xos dag‘alligi bilan itoatkorona amal qilishi shu davrning ko‘plab taqlidchilarni hayratga soladi. Jomiyning “Tuxfatul-Axror” asariga ishlangan miniatyuralar tipik namunada ishlangan. Uning qadimgi qo‘l-yozmalarida yozib qoldirgan sanalarning guvohlik berishicha hattot bu erda 1543-1583 yillarda faoliyat ko‘rsatgan. Uning qalamiga mansub bo‘lgan qo‘lyozmalarining birida “Yusuf va g‘aroyib ko‘zgu” mavzuiga ishlangan miniatyurada ochiq ko‘shkdagi qabul mavzusini aks ettirgan. Biroq, “Sayohatchi toshbaqa” va “Oshiq keksa va go‘zal” miniatyuralarida jonli hayotiy sahna ko‘rinishi o‘z aksini topgan. Ulardan biri tabiat qo‘ynida tasvirlangan bo‘lsa, ikkinchisida esa boy xonadonning ko‘cha tomondan ko‘rinishi tasvirlangan. Bu erda ko‘z o‘ngimizda nozik, bir oz istehzoli rassom benuqson tasvir va toza bo‘yoqlar ustasi sifatida gavdalanadi. Rassom Abdurahmon Jomiyning nasihatimiz she‘rlarining mazmunini aytarliq chuqur yoritib bera olmasada, uning mazmunini maishiy janr yo‘nalishida ifodalashga uringan. Xuddi shu yo‘sinda maqtanchoq toshbaqaning uzoq yurtlarga safari miniatyurada uning uchib borayotganini ko‘rib turgan odamlarning hayratlanishi aks ettirib, asarning nasihatimiz asosi bir chetda qolib ketgandek tuyuladi. XVI asrning 2 chi yarmida ishlangan “Majlis-ul Ushshoq” miniatyurasi ozgina ifoda orqali ijodiy individuallikka erishish o‘z kasbining mohir ustasi ekanligidan dalolat beradi. Boy xonadon hovlisidagi mungli musiqa tovushi qayg‘uli aza sahna ko‘rinishini ifodalaydi. Bu miniatyuradagi mavzu dramatik-ekspressiv holatni tasvirlashi kerakligiga qaramay, u janrli (uslubiy) harakterga egadir. Bu holatni miniatyuradagi qayg‘uni turlicha aks ettiruvchi sahna qatnashchilarining jonli holatlari, maishiy sharoitni aks ettiruvchi detallarga urg‘u berilishi, hovlidan tashqaridagi manzara bezaklarining kamligida ko‘rishimiz mumkin. Sa‘diyning “Bo‘ston” asariga Buxoroda hijriy 974 (m. 1566-67 yillar) yilda, Abdulazizxon I davrida uning vazirga teng ayonlaridan biri Xo‘ja Kamoliddin Xusayn uchun ishlangan miniatyura o‘ta

qobiliyatli miniatyurachi rassom tomonidan bajarilgan. Rassom, ko'p figurali kompozitsion tuzilishini talab qiluvchi mavzu tanlaydi; ko'plab tomoshabinlarni jalb etgan kurash musobaqasi, shox kemasi va uning a'zolari, odamlar bilan to'la boy xonadon tasvirlari shular jumlasidandir. "Podishox va mast qozi" mavzuidagi miniatyura o'ziga xos bo'lib, sevgi extiroslardan xushini yo'qotgan va kayfu safoga berilgan qozining benihoya mast holda shox nazariga tushgan holati aks ettirilgan. Rassom me'moriy obidalaridan iborat bo'lgan murakkab kompozitsiya tuzadi - ko'cha bilan toshdan naqshinkor qilib terib bezatilgan peshgoh – hovlichani bir-biridan ajratib turuvchi, g'ishtdan qurilgan devor va asosiy darvoza, hamda yuqorisi ko'shki-ravonli (павилион) ikki qavatli uy fikrimiz dalilidir. Orqa planda gulzor, oltin rangli tepalik, to'q havo rangli tun samosida porlab turgan yulduzlar va pastga qaragan yarim jy o'z aksini topgan. XVI asr miniatyura san'atida adabiy manbalar asosida yaratilgan qo'lyozmalar alohida o'rin tutadi. Xususan, Firdavsiyning "Shohnoma"si, Navoiy asarlari, "Boburnoma" va boshqa manbalar tasviriy san'atda o'z ifodasini topgan. Miniatyuralarda shoirlar obrazlari, adabiy qahramonlar va ularning voqealari san'atkorona talqin qilingan bo'lib, ular xalqning estetik qarashlari va badiiy tafakkurini aks ettiradi[4]. Xizmatkorlar, qurolli posbonlar, ko'chadagi shohona egar-jabdug'li podshoh oti, darvoza tabaqasini oxista ochayotgan darvozabon, g'ishtdan naqshinkor qilib terilgan hovli o'rtasida ikki yosh mayparastlar bilan birga juda ham mast holatga tushgan qozi va bundan nomaqul ko'rinishidan hayratlangan podshoh, hamda uy derazalaridan qarab turgan, ajablanishdan barmoqlarini lablariga qo'ygan ikki ayol figuralari – bularning barchasi Sa'diy asarining asosini miniatyurada tasviriy uslubda bayon etilgan. Miniatyurachi rassomning umumiy uslubini nozik ishlangan figuralar, me'moriy shakllar va naqshlarning sinchkovlik bilan chizilganligi, manzaraning har bir detallargacha ishlab chiqilganligi, xushchaqchaq yorqin ajoyib uyg'unlashgan ranglar aniqlab beradi. Biroq bularning barchasi befarq tasvir chegarasidan chiqmagan holda uslubiy mahorat bilan ishlanishi uning asosiy vazifasini aniqlab beradi. XVI asrning 2-yarmidagi sharq klassik badiiy adabiyot asarlarining g'oyaviy mazmunini chuqur ochib berishni yoki voqelikni obrazli, ifodali aks ettirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan. Egalik qiluvchi homiylar (ular qatorida ba'zan xon va uning oila a'zolari ham bo'lgani) ning judda sodda, oddiy, didiga mos yaratilgan miniatyuralar yuqori ruhiy qoniqish izlamaydilar, balki faqatgina tashqi ko'rinish, yuqori mahoratli uslubiyati va yorqin bezakli ranglar uyg'unligi bilan o'ziga rom etadilar. Ular O'rta Sharq miniatyura an'analarida ishlanib, bazmu-jamshid, ishqiy uchrashuvlar, jang manzarasi, ko'ngilochar bog' sayli va boshqa xolis (нейтрал) mavzularda bo'lib, ular qo'lyozmalar sifatida mos kelmagan matnlar bilan boyitilgan.

XVI asr Buxoro miniatyurachi rassom Abdullo asarlarida saroyning miniatyuralar bilan nafsini qondirish yoʻnalishi oʻz aksini topgan. Usta Abdulla koʻp figurali kompozitsiyalar yaratish boʻyicha mohir boʻlgan, biroq uning eng yaxshi koʻrgan mavzusi bu sevishganlar mavzusidir. Figuralar asosan yirik boʻlib, koʻp hollarda ular butun bir varaq yuzasini egallaganlar va ularning kiyimlari, hamda bezaklari bir-biriga qarama-qarshi yorqin rangli boʻyoqlarda erinmasdan chizib chiqilgan. Saʼdiyning “Boʻston” asariga ishlangan sevgi mavzusiga bagʻishlangan 2 miniatyura barcha uslubiy jihatlariga koʻra Abdulla qalamiga mansub ekanligidan dalolat beradi. Qoʻl yozma hijriy 983 yilda (1577-1576 yillarda) yuqorida aytib oʻtilganidek Kulangi tahallusi bilan nom qozongan hattot Mir-Xusayn tomonidan qayta koʻchirilgan. Bu qoʻlyozma asar Buxoroda qayta koʻchirilganligiga shubha yoʻq. Qoʻlyozma roʻyxatidagi 2 miniatyura Saʼdiyning obrazlarsiz ibratli, maslahatlarga boy, nasihatombur masallarga, bagʻishlangan. Ular gullarga burkangan, shaqirab oqayotgan jilgʻa, bahoriy gullarga burkangan daraxtlar, oltin rangli togʻlar, bulutlari gorizont qatorlab joylashgan koʻm-koʻk osmon hamda yam-yashil maysazor fonida ikki sevishganlarning visol damlari aks ettirilgan. Ularning birida tiz choʻkkan, qiz esa uning qarshisida bosh eggan holda tik turibti, ikkinchi miniatyurada esa qiz yigitning tizzasida oʻtirgan holda unga uzatilgan may toʻla piyolani olishga hozirlangani tasvirlangan. Ularning gavda holatlari teatr sahna koʻrinishidagi kabi nozli yuzlari miniatyuracha bir qarashda kishini maftun etib shu zahoti yoddan koʻtariluvchi dilbar, nazokatlidir. Miniatyuradagi bunday tashqi bezakdorlik uslubi, miniatyura chetlarini bezatib turgan, suyultirilgan oltin bilan serxasham qilib ishlab chiqilganligiga monand keladi. Amir Xusrav Dehlaviyning “Tarixi - Hizirlon” asariga bir qator miniatyuralar mahorati oʻrtaxol boʻlgan, biroq koʻplab neytral mavzularda ijrochilik uslubini bir qadar charhlagan miniatyurachi rassomning katta ehtirosi bilan amalga oshirilgan. Bu rassomning miniatyuralari kompozitsion tuzilishi, ishtirokchilar tarkibi va manzara ifodasida oʻziga hoslik sezilib turadi. Figuralar harakati chaqqon emas, chizma tasvir bir oz qattiqroq (qoʻpolroq), manzara esa nisbiy bezakdor. Shularga qaramay ular kishi nigohiga yoqimli boʻlib bu holat rassomning asosiy maqsadi boʻlsa kerak. Gumbazli koʻshk tasvirlangan miniatyurada saroy aʼyonlari, xizmatkorlar, musiqachilar, bazmi jamshid aʼzolari libosining yorqin ranglarda chiroyli tasvirlanishi, Behzod ijodidagi kabi kuzgi chinor, naqshinkor bezatilgan koʻshk, gʻishtlar bilan gilammisol bezatilgan maydonga koʻrinishi ham ranglarga boy goʻzaldir. Madaniy boyliklar tarixchilar uchun bu erda koʻplab liboslar, idish-tovoqlar, musiqa asboblari kabi, hamda meʼmorlik tarixchilari uchun esa koshinlar bilan bezatilgan koʻshklar, ulardagi tishli sharafalar, mexrobli peshtoq yuqorisida oq fonda tim havorang bilan chizilgan naqshinkor bezak,

ko'shkning ichkarisida esa qush va hayvonlardan iborat manzara kabi ko'plab qiziqarli materiallar (manbalar) joy olgan. Rassom hamma narsani qunt bilan batafsil chizib chiqqan va ulargina uning mahoratini aks ettiruvchi predmet bo'lib xizmat qilgan. XVI asrning 2-yarmida an'anachi rassom va gedonistik (huzur-halovatga intilish insonga hos oily hislat, deb hisoblovchi ta'limot tarofdorlari) – bezakchi yo'nalishidagi rassomlar fonida Muhammad-Murod samarqandiy kabi O'rta Osiyo novator (yangilik yaratuvchi) usta rassomlar alohida o'rin tutadi. 1556 yilda hattot usta Hamadoniy tomonidan xorazm viloyati hokimi Eshmuhammd uchun qayta ko'chirilgan "Shohnoma" qo'lyozma asariga ishlangan 115 ta miniatyura Muhammad-Murod Samarqandiy qalamiga mansubdir. Bu miniatyuralar qo'lyozma bilan bir qatorda ro'yxatga kiritilganmi yoki qo'l yozma tugallangandan so'ng bir oz vaqt o'tgach oldima-кетин varaqlarda tugallangan. Sa'diyning "Bo'ston" qo'lyozma asariga. To'rt miniatyurachi rassomlar tomonidan miniatyuralar ishlangan bo'lib (ularning birida 1616 yilda ishlanganligi haqida yozuv bor), ular orasida Muhammad-Murod Samarqandiy qalamiga mansub miniatyura ham bor ; shular bilan bir qatorda ikki ko'rinishdan iborat (diptix) mashxur miniatyura xam bor bo'lib, u ham Muxammad-Murod Samarqandiy tomonidan muhir qo'yilgan, u 17 asardan avval ishlanmaganligi ma'lum. Agarda bu holda mashxur egasi Muxammad-Murod Samarqandiy bilan isimdosh (adash) bo'lmasa, unda 1556 yilda qayta ko'chirilgan "Shohnoma" asariga rassom yoki 60 yildan oshiq ish faoliyati davrida yoki kitob qo'lyozmadan chiqqandan so'ng 10-20 yillardan keyin miniatyura ishlagan degsn taxminga kelishi mumkin. "Shoxnoma"ga ishlangan miniatyuralar mualliflarning yorqin ijodiy individualligini aniqlab beradi. Muxammad-Murod ehtirosli rassom bo'lib, u Firdavsiy ijodidagi qahramonlik ruhini aks ettirishiga juda monand tusha olgan. U an'anaviy tasviriy sxemada (схемада) neytral (бетапаф) mavzularni chetlab o'tgan. "Shoxnoma" asari tarkibidagi mavzulardan Muxammad-Murod zo'r va keskin g'ayratga boy mavzularni tanlaydi: temirchi Kovaning, yovuz Zaxxakka qarshi xalqni qo'zg'olonga ko'tarishi, tuhmatga uchragan Siyavushning sinovdan o'tishi va o'zini beayb ekanligini olov orqali isbotlab berishi, podishox va donolarning munozaralari, jangmanzarasi va shaxzodaning bevaqt halok bo'lishi kabi mavzularga boy ushbu poetic asar jo'shqin ijodkor Muxammad-Murod miniatyuralarda o'z aksini topgan. Jang mavzulariga boy bu asar matnlar bilan galma-gal ko'p figurali kurash manzaralari bilan almashinib takrorlanib keladi. Tasvirda hattoki ikki figurali yoki figura hamda sardorlar kurashi orqali rassom juda katta jang mavzusini ifoda eta olgan. Ba'zan tasvirda inson yuz tuzilishi juda ifodali, g'ayratga to'la bo'lib, harakterni to'la aks ettirmasada, ularning psixologik xolatlarini juda yaxshi ifodalagan. Muxammad-Murod engil konturlarni

yoqtirmaydi, unuing qalam tasviriga asabiy harakat xos bo‘lib, bu holat ba‘zan qalin, ba‘zan esa soch tolasi kabi ingichka chiziqlar orqali yoritilgan. U ranglarning yumshoqlashtirishni, yoki ranglar mutanosibligida rang-baranglikni ma‘qul ko‘rmagan. Uning asarlarida ranglarning umumiy uyg‘unligida ranglar mutanosibligi kuchli aks ettirilgan, balki ularning nim ranglaridan bir miniatyura asarining o‘zida osoyishta, spohlik bilan va yuqori darajadagi mahorat bilan mutanosib uyg‘unlashtirishni afzal ko‘rganligini kuzatishimiz mumkin. Muxammad-Murod ranglardan foydalanishda norealistik haqqoniylikdan qochadi, u osmonni ba‘zan oltin, ba‘zan esa to‘q qizg‘ish rangdan, tepaliklar esa sarg‘ish-malla va havo rangda, otlar to‘q qizil va och havo rangda tasvirlash orqali sodir bo‘layotgan voqealarni aks ettirishda ularning poetik ertakona karakteri ta‘sirini kuchaytirib beradi. Agarda liboslarda, atrof ko‘rinishning ba‘zi-bir detallarida u o‘z davriga sodiq bo‘lsa, u bu narsalarga o‘zining boshqa zamondosh miniatyurachi rassomlar kabi ahamiyat bilan katta o‘rin ajratmaydi, alohida urg‘u bermaydi. Muxammad-Murod Samarqandiy ijodida emotsional obrazlilik yuqori o‘rin tutgan bo‘lib, bu hol badiiy ifodalikka erishishdagi yangi uslubiyat yaratganligidan dalolat beradi. Shu munosabatda Samarqand miniatyura ustasining ijodi O‘rta Osiyo miniatyura maktabining XVII asrdagi rivojlanishini belgilab berdi. XVI asrning ikkinchi yarmida Sa‘diyning “Guliston” asariga ishlangan, O‘rta Osiyo miniatyuralari ro‘yxatidan o‘rin olgan, voqea xodisaning ruhiy (психологик) xolatini aks ettirishga intilish ruxiyati aks etgan miniatyura muallifi ijodi Muxammad-Murod ijodiy yo‘nalishiga juda yaqindir. Ahloqsizlik yo‘liga kirib qolgan qori tasviri aks ettirilgan miniatyura, yuqorida eslatilgan, ro‘yxatlarda 1566-1567 yillarda ishlanganligi qayd etilgan, Buxorolik rassom ijodiga mansub bo‘lgan bu miniatyuradagi tubdan farq qiladi. Bu erda podshoxning nazari tushgan qozining nomaqul holati ochiq-oydin tasvirlanmay, balki uni podshox oldiga olib kelinishi va bu o‘rinda extiroslarning jo‘shqin holati ustunlik qilganini ko‘ramiz. Bu erda voqea-hodisa uy holatidagi kabi podshoxning yostiqlarga suyanib, yon boshlagan holatida xona ichida aks ettirilgan. Rassom, me‘moriy, libos, bosh kiyimlardagi bezaklar u tomondan aniq va nozik aks ettirilgan bo‘lsa ham, tashqi detallarga aytarlik darajada e‘tibor qaratmaydi. “Guliston” asarini miniatyura bilan bezashda rassom kartina foni jigar rangning neytral turlaridan foydalangan bo‘lib, bu hol sahna ko‘rinishida ishtirok etuvchilar liboslarining yorqin ranglari bilan keskin farq qiladi. Asosiy diqqat e‘tibor ana shu bosh ishtirokchilarga qaratilgan. Oppoq soqolli qozining tiz cho‘kkan holdagi ayanchli figurasi kishida achinish hissini uyg‘otsa, uning yoqasidan tutgan qurollangan, asabiylashgan amir figurasi, bo‘lib o‘tayotgan voqealarni muhokama qilayotgan zodagon kishilar va yoshlarning holatlari sodir

bo'layotgan hodisaning dramatic holatidan darak beradi. Sa'diyning "Guliston" asarida bu holatdan zukkolik bilan qutilib chiqqanligi yozilgan bo'lsa ham, miniatyurada voqeaning yaxshilik bilan tugallanishiga ishora sezilmaydi. Rassom voqeaning eng kulminatsion nuqtasiga katta ahamiyat berib, ishtirokchilarning keskin ruhiy holatlariga urg'u bergan, xususan yuz ifodalarida sharq miniatyurasiga xos bo'lmagan, lekin Muxammad-Murod Samarqandiy qo'llagani kabi mimik ifoda began. Tasviriy realizmning shakllanishi Kamoliddin Behzod ijodi va uning maktabi O'rta Osiyo miniatyura san'atida realizm unsurlarining shakllanishiga asos soldi. XVI asr miniatyuralarida inson qiyofasi, kiyim-kechak, saroy interyeri, me'moriy obidalar va tabiat tasviri aniq va jonli ifodalanadi. Bu esa miniatyuralarning nafaqat badiiy, balki tarixiy hujjat sifatida ham qimmatini oshiradi[5]. XVII asr boshlariga kelib O'rta Osiyoda an'anaviy usulda ishlovchi rassomlar ko'pchilikni tashkil etdi, ular nafaqat qonunlashtirilgan tasviriy sxema asosida ko'chirish, balki ko'p hollarda trafaret yoki tayyor sur'at ustidan qalam yurg'azib, ostidagi oq qog'ozga nusxa ko'chirish hamda ranglash yo'llaridan ham foydalanganlar. Biroq davr talabi hamda ishtiyoqiga moslashish rassomlarga hatto ba'zi bir yangiliklar kiritishga intilish uyg'otdi. Bu borada S.Shedrin nomidagi kutubxonada saqlanayotgan 2 ta qo'lyozmadagi miniatyuralar juda (характерлидир) katta ahamiyatga ega. Bu qo'lyozmalar bir davrning o'zida Buxoroda yaratilgan bo'lib, 1603 yilda Firdavsiyning "Shoxnoma" asariga, hamda Amir Xusrav Dexlaviyning asarlariga 1603-1604 yillarda ishlangan. "Shoxnoma"ga ishlangan miniatyuralarning ko'pchiligining kompozitsiyasi an'anaviy, figuralar esa (шаблон) bir qolipdan chiqqan. Biroq qahramonlarning jasoratlariga bag'ishlangan mazmunda, maxluq bilan olishuv va olishuvga qudratli kuchlarning ajoyib, mo'jizakor aralashuvida rassom xalq ertaklari ruxiyatini aks ettirgan: oddiy-soddalik uslubidan foydalanagan rassom tasvirning soddaligi va bo'yoqlarning yorqinligi orqali asarga kutilmagan soflik olib kiradi. "Xamsa" ga ishlangan miniatyuralar nisbatan maxorat bilan yaratilgan. Bu erda bevosita o'zidan avvalgi miniatyuralarga e'rgashib an'anaviylikni saqlash, alohida miniatyuradan nusxa ko'chirishga nisbatan ko'proq o'rin egallaydi. "Iskandar va parilar" miniatyurasi shular jumlasidandir. Uning kompozitsiyasi 1566-1567 yillar "Guliston" asari uchun yaratilgan dengizdagi sayohat sahna ko'rinishi kompozitsiyasiga juda yaqin, shu sababli bo'lsa kerak, ularning ikkisi ham shunga o'xshash avvalgi kompozitsiyalardan foydalanilgan bo'lishi mumkin. Podshoxning kema shiyponchasida o'tirishi va dengizchilar, a'yonlar, musiqachilar hamda xizmatkorlar bilan to'la ikki qayiq kemadan uzoqlashib suzib ketishi; oldinda yovvoyi hayvonlar makon qilgan bir unumsiz qumloq, yana ham oldinroqda ikki oq baliq va suv to'lqinlarida ikki

yalang'och qizlar. Bularning barchasi shunday joylashtirilganki bir necha planning aldamchi ko'riniwini (illyuziyasini) vujudga keltiradi va shu bilan bir qatorda miniatyuraning umumiy tekislikda ishlanishi uslubiga shamolda shishgan elkan kabi tuyg'uni beruvchi kenglik va teranlikni aks ettiruvchi chizgilar kiritadi. Miniatyurada xarakterlar ko'p bo'lib, ularga ko'plab ishtirokchi odamlarning chalinayotgan karnay sadolarining shirin sasiga turli xolatlarda ko'rsatgan munosabatlarini aks ettirilgan. Yuqorida qayd etilgan Chaster Bitti kolleksiyasiga mansub bo'lgan, 1616 yilda ishlangan, ularning ba'zilari Muxammad-Murod Samarqandiy, Muxammad Sharif va Muxammad Darvesh tomonidan tamg'alangan "Bo'ston" asariga ishlangan miniatyuralar o'zlarining yuqori badiiyliigi bilan alralib turadi. Muxammad Darveshning Samarqandiy tahallusi bilan belgilagan, Britaniya muzeyida saqlanayotgan "Dostoni zebu-zovar" asariga ishlangan miniatyuralar joy olgan. Samoda uchayotgan, birdan yuqoriga ko'tarilib, uzoq vaqt muallaq turgan varrak kabi rassomning buyuk ijodi miniatyura san'atini kutilmagan holda yangi yuksaklikka olib chiqadi. Bunday yo'nalishdagi rassom "Zafar-noma" qo'lyozmasiga hijriy 1030 yilda (1628 y.) Samarqandda ishlangan bir qator miniatyuralarni ismi-sharifi noma'lum bo'lgan muallif bajargan. "Zafarnoma" kitobi A.Temurning g'alabalariga bag'ishlangan. Ushbu asar mavzular tanlanishining keng va rang-barangligi bilan ko'plab rassomlarning, xususan K.Behzodning e'tiborini jalb etadi. Ushbu asarga 1628 yilda Samarqandda murojat qilgan rassom bor-yog'i 12 ta miniatyura ishlangan. Muallif o'z asarlari uchun bu qo'lyozmazdan turli mavzularni tanlangan, ularning ko'plari Jahongir Temurning salb yurishi g'alabalarini aks ettiruvchi jang sahna ko'rinishlariga bag'ishlangan. Shular bilan bir qatorda miniatyuralar orasida ochiq sevgi va bazmi-jamshidga bag'ishlanga mavzular ham o'z aksini topgan. Bu miniatyuralarda barokko davriga xos uslublar ham sezilib turadi. Bu hol ijrochilikning dabdabaligida, kuchli uslubning qo'llanishida rango-ranglikdan dadil foydalanishda, hamda harakatlar va ehtiroslarga boyligi bilan belgilanadi. Jang sahna ko'rinishlari har doimgidek rassom tomonidan tog'lar yon bag'rida aks ettirilgan (ko'plab janglar tekislikda kechganligiga qaramay), bunda ko'plab g'aroyib qoyalar va yolg'iz daraxtlarning bukiluvchan tanalari, egri shohlarining shamolda tebranishi va qizargan barglarining shabbodalar olib ketishi umumiy ko'rinishga o'ziga xos tashvishli holat bag'ishlaydi. Askarlar ot ustida eldek yugirib ba'zi hollarda e'sa piyoda askarlar qo'l jangi bilan mashg'ul bo'lib kamondan o'q otish, nayzalarni bir-biriga yo'llash, qilichlari bilan jang qilish holatlari, inson va otlar figuralari jazavali shiddat bilan tushunib bo'lmas harakatlar bilan yo'naltirilgan harakatga qarshi turish holatlari mahorat bilan tasvirlangan. Miniatyuradagi murakkab rango-ranglik holati

havorangdan pushti qizg'ishrangga o'tilishi, yashil rangdan qizg'ish olovrangga o'tilishi yorqin sariq rangdan siyohrangga o'tilishida qarama-qarshi ranglarning bir-biriga o'tishdagi boy mahoratni belgilab beradi. Bu jang ko'rinishlarida qurollarning jarangi, karnaylarning o'ziga xos tovushlari, yaradorlarning ingrashi, eshitilayotgandek rux berib, Temurning kavkaz tog'larida To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi, Sharofiddin Ali-Yazdiy yozib qoldirganidek, A.Temur "Shamol kabi daryoni kesib o'tib, dushmanga qilgan hamlasi, uning yaltiragan qilich bilanmanfur dushmanni qirib tashlashi, tekisliklar va cho'lu biyobonni dushman qoniga botirishi va borliqqa o'z qilichi bilan g'alaba kurtagining ochilishiga majbur qilgan". Bu jang. Biroq bu harakatlarning avj olishi, ranglarning yorqinligi, jonsarak manzaraga xos, "Zafarnomaga" ishlangan illyustratsiyalaridan birida o'z aksini topgan shoxona ba'zim sahna ko'rinishidagi osoyishtalik jonsarak manzaraga xosdir. Bu rassom o'zi badiiy dunyoqarashi orqali oz asarlarida manzarani xuddi shunday aks ettirgan. Boshqa buyuk ijodkorlar kabi uning ham ijodiga taqlid qiluvchi ikkinchi darajali taqlidchilar ham bo'lgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, XVI asr O'rta Osiyo miniatyura san'ati saroy hayoti, adabiy manbalar va tasviriy realizm uyg'unligi orqali o'zining yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Ushbu davr miniatyuralari nafaqat o'z davrining estetik qarashlarini ifodalaydi, balki bugungi kunda ham madaniy va tarixiy meros sifatida ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi. Miniatyura san'ati xalqning ma'naviy xotirasi va estetik didini aks ettiruvchi yuksak badiiy hodisadir. Uning madaniy meros sifatidagi o'rni nafaqat tarixiy, balki hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Bu san'atni asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazish, xalqimizning boy ma'naviy merosini saqlashning eng muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashrafi, A. (1997). *O'zbekiston miniatyura san'ati tarixi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Navoiy, A. (1991). *Xamsa* (miniatyura nusxalari asosida). Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
3. Suleymanov, R. (2005). *Sharq miniatyura maktablari va ularning o'ziga xosligi*. Samarqand.
4. Navoiy, A. (1991). *Xamsa* (miniatyura nusxalari asosida). Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.

5. Roxmanov, Sh. (2010). *Kamoliddin Behzod va Sharq miniatyura san'ati*. Buxoro.
6. Ibodov, I. S. (2023). O 'ZBEKISTONDA MUZEY PEDAGOGIKASI VA MENEJMENTIGA NAZAR. *Science and innovation*, 2(Special Issue 10), 158-160.
7. Ibodov, I. (2022). AMALIY SAN'AT ASARLARINI TA'MIRLASH VA SAQLASH TUSHUNCHALARI. *Science and innovation*, 1(C4), 107-111.
8. Юсупалиева, Д. К. (2020). Традиции архитектурной культуры Узбекистана. *Modern Science*, (2-1), 23-26.
9. Юсупалиева, Д. К. (2021). СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА СО СТРАНАМИ АЗИИ. *Новые импульсы развития: вопросы научных исследований*, (1), 255-259.
10. Юсупалиева, Д. К. (2021). ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ. *Мир в эпоху глобализации экономики и правовой сферы: роль биотехнологий и цифровых технологий*, 131.
11. Юсупалиева, Д. К. (2021). ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАБОТЫ В ПАРКАХ КУЛЬТУРЫ И ОТДЫХА. *ББК 70 А76 Под общей редакцией ИИ Ивановской, МВ Посновой, кандидата философских наук*.
12. Yusupaliyeva, D. Q. (2024). NOMODDIY MADANIY MEROSNI MUHOFAZA QILISH, ASRASH VA TARG'IB ETISH MASALALARI. *Inter education & global study*, (4 (1)), 334-342.
13. Юсупалиева, Д. К. (2020). Основные особенности политической системы общества. *Молодой ученый*, (46), 520-522.
14. Yusupalieva, D. K., & Sodirzhonov, M. M. (2017). Mass media in Uzbekistan: development trends, dynamics and prospects. *Modern Science*, (1), 23-25.
15. Ганиева, Э. Р. (2018). Трансформация коммуникативной функции кино в эпоху глобализации. In *Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования* (pp. 8-12).
16. Ganieva, E. R. (2022). Genesis and Evolution: From Multi-Part TV Film to TV Series. *International Journal on Integrated Education*, 5(4), 286-290.
17. Ganieva, E. R. (2015). Prospects of development and modernization of cinema reproduction channels in Uzbekistan. in the world of science and art: questions of Philology, art criticism and cultural studies. no. 43.

18. Yuldasheva, M., & Qolqanatov, A. (2022). O 'ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI. *Oriental art and culture*, 3(1), 254-260.
19. Kholmuminov, Muminmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population." *image* 4.12 (2021): 146-151.
20. Zokirovich, Muminmirzo Kholmuminov, and Asilbek Kolkanatov Nazarbaevich. "A Look at the History of Club Establishments and Cultural and Educational Process in Uzbekistan." *JournalNX* 8.2 (2022): 9-15.
21. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4, 259-262.
22. Rustamov, M. (2025). The importance of cultural and art institutions in the development of the tourism sector (on the example of the activities of theaters and cultural centers). *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(6), 70-74.
23. Kalkanatov, Asilbek. "PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD." *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE* 2 (2023): 19-23.
24. Nazarbai, Kolkanatov Asilbek. "NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2 (2023): 65-70.
25. VA, INSONGA E'TIBOR, and SIFATLI TA'LIM YILI. "Imom Buxoriy saboqlari."
26. Nazarbay o'g'li, Q. A., & Eldor o'g'li, J. Z. (2025). AUDIOVIZUAL INDUSTRIYA TÚSINDIRMESI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(5), 122-129.

**TUPROQ EKOSISTEMALARINI MUHOFAZA QILISHDA AYRIM
DORIVOR O‘SIMLIKLARNING AHAMIYATI**

Haqnazarova Bibixadicha Baxriddinovna.

bibihadicahaknazarova@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada tuproq ekosistemalarini muhofaza qilishda dorivor o‘simliklarning roli, ularning sog‘liqni saqlash va iqtisodiy sohalaridagi ahamiyati tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda dorivor o‘simliklar nafaqat tibbiyotda, balki funktsional oziq-ovqatlar, bioaktiv moddalar manbai sifatida ham muhim ahamiyat kasb qilmoqda. Maqolada yo‘lbars yong‘og‘i (*Cyperus esculentus*) misolida uning tarkibidagi vitaminlar, minerallar, antioksidantlar va xun tolalari inson salomatligini mustahkamlashda foydali ekanligi ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, dorivor o‘simliklarning iqtisodiy salohiyati va ularni keng ko‘lamda ishlab chiqarish istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar : Dorivor o‘simliklar, tuproq ekosistemi, funktsional oziq-ovqat, *Cyperus esculentus*, shifobaxsh xususiyatlar.

**ЗНАЧЕНИЕ НЕКОТОРЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ ДЛЯ
СОХРАНЕНИЯ ПОЧВЕННЫХ ЭКОСИСТЕМ**

Хакназарова Бибахадича Бахриддиновна

bibihadicahaknazarova@gmail.com

Аннотация: В статье анализируется роль лекарственных растений в сохранении почвенных экосистем, а также их значение для здоровья человека и экономики. В последние годы лекарственные растения приобретают важное значение не только в медицине, но и как источник функциональных продуктов питания и

биоактивных веществ. На примере земляного миндаля (*Cyperus esculentus*) рассматривается содержание витаминов, минералов, антиоксидантов и пищевых волокон, полезных для здоровья человека. Также анализируется экономический потенциал лекарственных растений и перспективы их широкого производства.

Ключевые слова: Лекарственные растения, почвенная экосистема, функциональные продукты питания, *Cyperus esculentus*, лечебные свойства.

THE IMPORTANCE OF CERTAIN MEDICINAL PLANTS IN SOIL ECOSYSTEM CONSERVATION

Haqnazarova Bibixadicha Baxriddinovna.

bibihadicahknazarova@gmail.com

Abstract:

This article analyzes the role of medicinal plants in conserving soil ecosystems and their importance for human health and economic sectors. In recent years, medicinal plants have gained significance not only in medicine but also as a source of functional foods and bioactive compounds. Using tiger nut (*Cyperus esculentus*) as an example, the content of vitamins, minerals, antioxidants, and dietary fibers beneficial to human health is highlighted. The economic potential of medicinal plants and prospects for large-scale production are also analyzed.

Keywords: Medicinal plants, soil ecosystem, functional food, *Cyperus esculentus*, medicinal properties.

Kirish

Tuproq insoniyat uchun eng muhim tabiiy resurslardan biridir. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha tuproq degradatsiyasi, eroziya va shŷrlanish masalalari dolzarb muammo sifatida ko'rilmoqda. Har yili milliardlab tonna unumdor tuproq yo'qoladi, bu esa qishloq xo'jaligi hosilini pasaytiradi, oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soladi va ekologik muvozanatni buzadi.

Shoʻrlanishning asosiy sabablari orasida notoʻgʻri sugʻorish texnologiyalari, yomon agrotexnika va tabiiy iqlim sharoitlari mavjud. Natijada, koʻplab hududlarda tuproq unumdorligi pasayib, er yuzasining faol qismi degradatsiyaga uchraydi.

Bunday muammolarni hal qilishda oʻsimliklarning roli katta ahamiyatga ega. Dorivor oʻsimliklar tuproqni organik moddalar bilan boyitadi, mikroorganizmlarning faoliyatini faollashtiradi va eroziya jarayonini sekinlashtiradi. Shu bilan birga, ular shʻrlanishni kamaytirishga va tuproq strukturasi yaxshilanishiga yordam beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda dorivor oʻsimliklarni yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish boʻyicha maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu oʻsimliklar nafaqat tibbiy va iqtisodiy, balki ekologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Dorivor oʻsimliklar tuproqning biologik faolligini oshiradi. Ularning ildiz tizimi tuproqni mustahkamlaydi, organik moddalar bilan boyitadi va eroziya jarayonini kamaytiradi. Shuningdek, ular tuproqdagi mikroorganizmlarning koʻpayishiga yordam berib, azot va boshqa minerallar aylanishini yaxshilaydi.

Yoʻlbars yongʻogʻi (*Cyperus esculentus*) bu sohada alohida ahamiyatga ega. Uning ildizlari tuproqni yaxshilab oziqlantiradi, shʻrlangan yoki unumdorligi pasaygan tuproqni tiklashda yordam beradi. Shu bilan birga, u organik moddalar va antioksidantlarga boy boʻlib, tuproq va inson salomatligi uchun foydali hisoblanadi.

Dorivor oʻsimliklar, xususan yoʻlbars yongʻogʻi, tuproqning qishloq xoʻjaligi ekinlari uchun qulay sharoit yaratadi. Ularning ildizlari tuproqni havalandiradi, namlikni ushlab turadi va eroziya jarayonini kamaytiradi. Shu sababli, dorivor oʻsimliklarni ekish orqali tuproq unumdorligini oshirish va ekologik barqarorlikni taʼminlash mumkin.

Yoʻlbars yongʻogʻi qadim zamonlardan beri anʼanaviy tibbiyot va oziq-ovqat mahsuloti sifatida qoʻllanib kelinadi. U tarkibida minerallar, vitaminlar, antioksidantlar, toʻyinmagan yogʻ kislotalari va xun tolalariga boy. Bu moddalar inson organizmi uchun zarur boʻlib, kasalliklarning oldini olish va davolashda muhim rol oʻynaydi.

Yo'lbars yong'og'i ildizidan oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, sog'lomlashtiruvchi ichimliklar tayyorlanadi. U shuningdek, dorivor xususiyatlari bilan yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet, oshqozon-ichak kasalliklarini oldini olishda foydali.

Iqtisodiy jihatdan, yo'lbars yong'og'i respublikamizda dorivor o'simliklar ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sohasida muhim o'rin tutadi. U nafaqat ichki bozorni ta'minlaydi, balki xalqaro bozorda ham raqobatbardosh mahsulot sifatida e'tibor qozonmoqda.

Xulosa

Tuproq degradatsiyasi va shŷrlanish muammolari global va milliy darajada jiddiy masala bo'lib qolmoqda. Dorivor o'simliklar, xususan yo'lbars yong'og'i, tuproq unumdorligini oshirish, eroziya va shŷrlanishni kamaytirish, shuningdek, inson salomatligini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

Shu sababli, dorivor o'simliklarni yetishtirish va ilmiy tadqiqotlar asosida ularni qo'llash ekologik barqarorlikni ta'minlash, qishloq xo'jaligi hosildorligini oshirish va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Yo'lbars yong'og'i va boshqa dorivor o'simliklarning iqtisodiy, tibbiy va ekologik ahamiyatini chuqur o'rganish mamlakatimiz uchun istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, M. (2022). *Dorivor o'simliklarning ekologik roli*. Toshkent: Fan.
2. Smith, J. & Brown, L. (2021). *Medicinal plants and soil conservation*. Journal of Ecology, 45(3), 112–128.
3. Ivanov, A. (2020). *Cyperus esculentus: Bioactive compounds and applications*. Moscow: AgroScience.
4. FAO. (2022). *Global medicinal plant market report*. Rome: FAO Publications.



**ACUMEN: INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY
RESEARCH VOLUME-2, ISSUE-10 (31-OKTABR)
MUNDARIJA**

1	THE PROBLEM OF GENRE: TRANSFORMATION OF GENRES IN CONTEMPORARY LITERATURE Badalova Muazzam Ali qizi	5-9
2	LANGUAGE USED IN THE CLASSROOM G'ulomjonova D.F	10-13
3	ФИЗИКАНИ ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ЛОЙИХАЛАШТИРИШ. А.Х.Эшқороев	14-23
4	ISMOIL GASPRINSKY AND NEW METHOD SCHOOLS Sattorova Dildora Botir qizi	24-26
5	THE ART AND SCIENCE OF WORD CREATION: A COMPREHENSIVE LOOK AT WORD FORMATION AND DERIVATION Nabiyeva Iroda Abdurahmon qizi	27-29
6	ISHLAB CHIQARISH OMILLARI VA INFRATUZILMASI Alimova Sarvara	30-32
7	TEACHING ENGLISH AS A BRIDGE TO INTERCULTURAL UNDERSTANDING IN MULTILINGUAL CLASSROOMS Jumaniyazova Lobar Sirojiddin qizi	33-37
8	SIYOSIY SHAXSLARNING SOLISHTIRMA TA'LIM XARITASI Jabborova Sevara Shuxratovna	38-43
9	YANGI O'ZBEKISTON MAFKURASIDA YOSHLAR VATANPARVARLIGINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY, FALSAFIY, IJTIMOIIY VA PEDAGOGIK ASOSLARI Toirova Feruza Qobilovna	44-49
10	RAQAMLI GLOBALLASHUV FONIDA MILLIY QADRIYATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA HIMOYA MEKANIZMLARI Xodjayeva Saida Sharipovna	50-56
11	KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI X.X.Xakimov, Ilmiy rahbar O.T. Maxmudov	57-61
12	ANALYSIS OF CATTLE FEEDING CONDITIONS. Maxmudov Farhod Baxodir o'g'li, Xaydarova Yulduz Bahodirovna	62-67
13	BUYRAK-TOSH KASALLIGINING KLINIK-PATOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI Saidov Nasimjon	68-72





14	SURXONDARYO VILOYATIDA FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARISH HAJMINING DINAMIKASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI O'taganova Umida Egamberdi qizi	73-77
15	METAPHORS OF POWER IN ENGLISH AND UZBEK POLITICAL DISCOURSE Dekhkonova Sevarakhon	78-90
16	MUSIQA TERAPIYASI – EMOTSIONAL BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA. Amirova Nodira Shamshiyevna, Talipova Feruza Tairovna	91-95
17	BIRIKTIRUVCHI TO‘QIMA VA UNDAGI HUYAYRALARNI INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI Mardonova Shahnoza To'xtamish qizi	96-99
18	YOSHLAR ÒRTASIDA SOĠLOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TURTKI BÒLAYOTGAN OMILLAR Mardonova Saodat Muzaffarovna	100-104
19	INSON VA FUQAROLARNING HUQUQ HAMDA ERKINLIKLARINI HIMOYA QILISH - PROKURATURA FAOLIYATINING ENG MUHIM YO‘NALISHLARIDAN BIRI Hamidov Ulug‘bek Baxronovich, Хамидов Улугбек Бахронович, Khamidov Ulugbek Bakhronovich	105-112
20	MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA RITMIKA VA XORYAGRAFIYANING AHAMIYATI Toshmirzayeva Nozima	113-122
21	QIRQBOG'IMNING TIBIYYOTDAGI SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI. Abdulazizova Madina Jasur qizi, Ro‘ziyeva Gulsara Temirqulovna	118-122
22	QIZIL RAYHON (TULSI) Qarshiyeva Dilobar Valijon qizi, Ro‘ziyeva Gulsara Temirqulovna	123-126
23	XORIJIY ISLOM BANKI MISOLIDA O‘ZBEKISTONDA ISLOM BANKINI RIVOJLANTIRISH Tashmatova Nozima	127-138
24	O‘ZBEK JADIDCHILARINING JAMIYATGA QO‘SHGAN HISSASI Mengboyev Lazizbek, Shoyimova Komila	139-142
25	THE IMPACT OF ROLE PLAY ON THE DEVELOPMENT OF SOFT SKILLS AMONG YOUNG ENGLISH LEARNERS Esanova Jayrona Boysoatovna, Khaitova Gulhayo Tovasharovna	143-150





26	ISLOM BANK TIZIMINING O‘ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI Turoпова Nigora Xolmurod qizi, Nurmatova Shahzoda	151-153
27	MECHANISMS FOR ENSURING THE EFFICIENCY AND COMPETITIVENESS OF REGIONAL INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE ERA OF THE DIGITAL ECONOMY Kholboyev Javohir Shavkatvich, Khayriddinov Shukhrat Botirovich	154-160
28	QOVUNNING “ROHAT” NAVI ASOSIY KASALLIK VA ZARARKUNANDALARI HAMDA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI Hamroyeva Maftuna Qobolovna	161-171
29	OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA OTA-ONALAR ROLI. Tursunova Saida Isakovna, Choriyeva Shohista Chorshanbiyevna,	172-176
30	THE ROLE OF INTERNATIONAL FESTIVALS IN SHAPING THE AESTHETIC TASTE OF YOUTH Xasanov Doston Dilshod o‘g‘li	177-183
31	VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN OZODLIK DAN MAHRUM QILISHGA MUQOBIL JAZOLARNI IJRO ETISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI Kulturayeva Sarvinoz Sadridin qizi	184-192
32	THE PROCESS OF DEVELOPING MEDIA LITERACY IN THE DIGITAL AGE Qayimova Sevara Dilshod qizi	193-198
33	IJTIMOIIY TARMOQLARDAGI AXBOROT XUJUMLARI VA TAHDILAR Mahmudov Murodjon Alisher og'li	199-203
34	TASHQI MEHNAT MIGRASINI TARTIB BERISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBASI: O‘ZBEKISTON UCHUN SARSATLAR Baxoviddinova Yasmina Maxmud qizi	204-208
35	BOLALARDA TISH EMALI MINERALLASHUVINING BUZILISHI VA PERIODONT KASALLIKLARI RIVOJLANISHI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK Qutibiddinov Nuriddin Najmiddinovich	209-215
40	VISKOZ GAZ MODELLARINI YECHISHDA SPEKTRAL USULNING BARQARORLIGI VA YAQINLASHUV TEZLIGI O‘roqova Shahzoda Tojimurodovna	216-221
41	TALABALARDA DOSTON IJROCHILIGI MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI Qidirniyazova Hamida Muxammetdin qizi	222-227
42	O‘ZBEKISTON BANK TIZIMIDA KREDIT SIYOSATI VA UNING IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIRI Qaxriddinova Mehribon Bunyod qizi	228-231





43	O'RTA OSIYO XVI ASR MINIATYURA SAN'ATIDA SAROY HAYOTI AKS ETISHI VA TASVIRIY REALIZMNING SHAKLLANISHI Ibodov Ilxom Sodiqovich	232-245
45	TUPROQ EKOSISTEMALARINI MUHOFAZA QILISHDA AYRIM DORIVOR O'SIMLIKLARNING AHAMIYATI Haqnazarova Bibixadicha Baxriddinovna.	246-249
	MUNDARIJA	250-253

